

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

# JISER

International  
multidisciplinary  
scientific journal



- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation





*“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND  
EDUCATIONAL RESEARCH”*

---

*VOLUME 1, ISSUE 4  
(30- October)*

Ushbu to'plamda "**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH** " ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ	
SO'Z BOSHI	
TARIX	
AMIR TEMURNING SIYOSIY FAOLIYATI	8
<i>Haqqulova Dilfuza Choriyevna</i> FONIY QASIDALARIDA ISLOMIY QARASHLAR	10
<i>Boboyev Lutfullo Xabibulloyevich</i> TEMUR TUZUKLARIDA HARBIY ISH.	13
<i>Qulmonova Dilovar Erkinovna</i> MAKTAB TARIX XONASI VA UNING TARBIYAVIY TA'LIMDAGI O'RNI	15
<i>Qulmonova Zulxumor Erkinovna</i> TARIX DARSLARI MAVZULARINING UZVIYLIGI VA DIDAKTIK JIHOZLANISHI	18
<i>Rajabova Sanobar Obidovna</i> O'ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA UNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI	20
<i>Sotiboldiyeva Shaxnoza Baxromjon qizi</i> AL-XORAZMIY YASHAGAN DAVR VA UNING ILMIIY FAOLIYATI.	22
<i>Abdurahimova Nodira Akramaliyevna</i> <i>Dexqanov Shuxratjon Adashaliyevich</i> TARIX DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLI USULLARDAN FOYDALANISH	24
<i>Мадаминов Шокиржон</i> ИМОМ ТЕРМИЗИЙ	26
<i>Мадаминов Шокиржон</i> ИМОМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ	29
<i>Нуридинов.Т</i> <i>Содиқов Х</i> ТЕПАҚЎРҒОН ЁДГОРЛИГИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	33
SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT	
<i>Fotima Salixova</i> MUSIQA TA'LIMI MUASSASALARI O'QUVCHILARINING MADANIY SALOHİYATI RIVOJLANISHIDA DOSTONCHILIK VA BAXSHICHILIK SAN'ATINING O'RNI	35
<i>Kenjayev Azizbek Murodullo o'g'li</i> JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI TARKIB TOPTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	37
<i>Joniqulov Isomiddin Zoirovich</i> JISMONIY TARBIYA HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING MAQSAD, VAZIFALARI	39
<i>Kurbanazarova O'g'iloy Bekpulatovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O'QITISH METODLARI.	41
<i>Qulmatova Ozoda Qarshiyevna</i> TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI	44
<i>Ro'ziyeva Sevara Ergash qizi</i> GRAFIK FAOLIYATDA O'QUVCHILARNING FAZOVIIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTRISH.	46
<i>Turapova Shoxsanam Xolmurod qizi</i> YOSH VOLEYBOLCHILAR O'QUV TRENIROVKA MASHG'ULOTLARINI USLUBIY ASOSLARINI O'RGANISHNING AXAMIYATI	48
IJTIMOIY-GUMANITAR	
<i>Абирова Умида Назаровна</i> ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИГИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ҲОЛАТИ	50
<i>Рахматуллаева Гулнозахон Мавланжановна</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁ АЛЛОММАЛАРИНИНГ МЕРОСИДА МАЪРИФАТ АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАЛАРИ	53
<i>Qurbonova Iqbol Usmonovna.</i> OILAVIY NIZOLARNING FARZAND RUHIYATIGA TA'SIRI.	57
<i>Абирова Умида Назаровна</i> ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИГИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ҲОЛАТИ	61
<i>Абирова Умида Назаровна</i> ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ МАЪНАВИЙ – МАЪРИФИЙ ҲАМКОРЛИГИ ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК РЕСУРСЛАРИНИНГ ҲОЛАТИ	63



<b>Baxriddinov Nurbek</b> <b>Shodiyev Jasur</b> HOZIRGI ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOY-SIYOSIY ALOQA VOSITALARINING TIPOLOGIYASI (VERBAL BO'LMAGAN)	66
<b>Rajabboyev Botirjon Odil o'g'li</b> <b>Nishonqulov Shohruh Farxodjon o'g'li</b> BANK TIZIMINI INNAVATSION ISLOH QILISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI	69
<b>Bozarova Zumrad Uralovna</b> <b>Jabborov Elbek Eshpo'latovich</b> OILADA OTA-ONALAR VA FARZANDLARNING BURCHLARI	72
<b>Хонимкулов Анвар Рахимкулович</b> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЧАҚИРИҚЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРДА ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	74
<b>Honimqulov Anvar Raximqulovich</b> CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM – PROFESSIONAL ARMIYA YARATISH POYDEVORI	77
<b>Hilola Mo'minova Qobuljon qizi</b> <b>Suhrob Umarov Rustamovich</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYA SIYOSATI	80
<b>Teshaeva Dilrabo Gafurovna</b> IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH	82
<b>Umarova Gulshan Qaxorovna</b> <b>Ruzimuratova Gavxar Shomaxamatovna</b> IT ZAMON TALABI	84
<b>Lapasov Asliddin To'lqin o'g'li</b> EMOJILAR TUSHUNCHASI VA UNING YURIDIK TABIATI	86
<b>Abbasova M</b> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI	88
<b>Ergashev Jamshidbek Elmurod og'li</b> MUSTAQIL YURTNING BARKAMOL YOSHLARI	91
<b>Abdul Basir Nazari</b> <b>Turaev Khumoyiddin Abdugafforovich</b> AVTOTURARGOH BINOSINING TURLARI. ZAMONAVIY LOYIXASINI GRAFIK DASTURLAR YORDAMIDA YARATISHD	93
<b>Norbo'tayeva Saodat Rashidovna</b> <b>Ma'murjonova Dilnoza Ma'murjon qizi</b> KORRUPSIYA VA MILLIY QONUNCHILIK	96
<b>Abdiraxmanov Sardor Normuhamadovich</b> LOYIHALASHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR	98
<b>Шарипов Бахтиёр Мухаммадиевич</b> ТИЖОРAT BANKLARIDA LIKVIDILIK RISKINI BOShQARIshNI TAKOMILLASHTIIRISH	101
<b>Абдуллаев Отабек Насруллаевич</b> <b>Расулмухамедов Мухаммадазиз Мухаммадаминович</b> ИНФОРМАЦИОННАЯ СИСТЕМА ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕСОМ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	104
<b>Абдуллаев Отабек Насруллаевич</b> <b>Расулмухамедов Мухаммадазиз Мухаммадаминович</b> ЦИФРОВАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ	106
<b>Тўхтаев Асилбек</b> <b>Самиев Хамдам</b> ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАМИНЛАШ СОҲАСИДАГИ ЧОРА ТАДБИРЛАР	108
<b>Юлдашев Қаҳрамон Баҳтиёр ўғли</b> ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ АХБОРОТ ТАХЛИЛ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ТАШКИЛИЙ АСОСЛАРИ	110
<b>Умаров Жамиид</b> МАЙДА БЕЗОРИЛИКНИНГ БАРВАҚТ ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	112
<b>Юлдашев Санжарбек Иқболжонович</b> МУЛК ҲУҚУҚИНИ ЧЕКЛАШ ШАКЛИ СИФАТИДА СЕРВИТУТ ҲУҚУҚИ ТУШУНЧАСИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	114

<i>Арзикулов Салохиддин Эшпулатович</i> <i>А.Ш.Хамроев</i> <i>НЕЙРОННЫЕ СЕТИ: ПРИМЕНЕНИЕ СЕГОДНЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ</i>	<b>118</b>
<i>И.Х. Калонов</i> <i>А.Б.Хамидов</i> <i>ДИҚҚАТ ВА УНИНГ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ТУТГАН ЎРНИ</i>	<b>120</b>
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i> <i>Кахаров Салохиддин</i> <i>ПРИМЕНЕНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОПТИМИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА</i>	<b>123</b>
<i>Teshaeva Dilrabo Gafurovna</i> <i>IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH</i>	<b>126</b>

# TARIX

## AMIR TEMURNING SIYOSIY FAOLIYATI

**Annotatsiya.** *Maqolada Amir Timurning qayerda tug'ilgani, yoshligi qanday o'tganligi, siyosiy faoliyati, yurtni qanday boshqarganligi, harbiy yurishlari va Sho'rolar tuzumi davrida Amir Timur shaxsiga qanday baho berilgani haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Amir Temur, Kesh, Xizr, Yasovuriy, Qazag'on, Habib ussiyar, Buyuk amir, Husayn, Movarounnahr*

Amir Temur, Temur, Temurbek (to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul) (1336-yil, 9-aprel, Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani) — 1405-yil, 18-fevral, O'tror sh., Samarqandda dafn etilgan) — o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi.uning zakovati juda ham kuchli edi. U o'ng qo'lda ham chap qo'lda ham bir xil qilichini o'ynatar edi [1].

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan [2].

Siyosiy faoliyatining boshlanishi. Amir Temur ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasovuriy va amir Qazag'on bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'oy Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashadilar. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati 14-asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. 14-asr ning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, amir Qazag'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Xondamirning "Habib ussiyar" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida amir Bayon sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Xo'jandda amir Boyazid jaloir, Balxda Uljoy Bug'a sulduz, Shibirg'onda Muhammad I Xoja Aperdi nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hitori Shodmon hududida amir Husayn va amir Xizr Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar[3].

"Buyuk amir" sifatida saylanishi. 14-asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat

tashkil etishni taqozo qilmoqda edi. Amir Husayndan ko'ra Amir Temur zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham o'z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnaxrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur tarqoq mamlakatni birlashtirishga kirishar ekan, kurashni avvalo ichki g'animlaridan boshlaydi. 1370 y. bahorida Amir Temur amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganda makkalik shariflardan Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora — tabl bilan yalov — bayroq tortiq qiladi. Shubhasiz bu voqea katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur buni yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Balxga yetmasdan O'rpuz mavzeida u amir va no'yonlari bilan kengash o'tkazadi. Ko'pchilikning xohish va ixtiyori bilan, o'sha davr qonun-qoidalariga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish o'g'lon Movarounnahr podsholigi taxtiga o'tqazildi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, unga yo'l-yo'lakay yangi-yangi kuchlar kelib qo'shildi. Shu asnoda amir Husaynni ko'pchilik amirlari tark etdilar. Jangda amir Husayn qo'shinlari yengildi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370 yilning 10 apr.da Balx sh. Amir Temurga taslim bo'ldi. Amir Husayn asir olinib, qatl etildi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur Movarounnahrning chingiziylardan bo'lgan hukmdori Qozonxonning qizi Saroymulk xonimni o'z nikohiga oladi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur "ko'ragon", ya'ni "xonning kuyovi" unvonini oldi [4].

Sho'rolar tuzumi davrida Amir Temur. shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondoshilib, bir yoqlama baho berilib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng bunday qarashlarga barham berildi. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni o'z joyiga qo'yila boshlandi. O'zbekistonda uning faoliyatini o'rganishga va uni ommalashtirishga keng yo'l ochildi. Uning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi. Ko'plab shahar va qishloqlardagi shoh ko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqa uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o'rnatildi, Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etildi (1996), "Amir Temur" ordeni ta'sis etildi (1996) va Xalqaro Amir Temur jamg'armasi tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she'riy hamda nasriy asarlar yaratildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ibn Arabshoh, Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), T, 1992;
2. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T, 1996;
3. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T., 1997;
4. Muhammadjonov A., Temur va temuriylar saltanati (Tarixiy ocherk), T., 1994;





## FONIY QASIDALARIDA ISLOMIY QARASHLAR

**Haqqulova Dilfuza Choriyevna***Buxoro viloyati Shofirkon tumani**15-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Maqolada Alisher Navoiyning forsiy merosida ilohiy-irfoniy qarashlarning mushtarakligi haqida fikr yuritiladi. Qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini Foni qasidalarining matniy-qiyosiy tahlili orqali namoyon etiladi.*

**Kalit so'zlar:** „Devoni Foni“, qur'oniy g'oya, „Ruh ul-quds“ tasavvuf.

Jahon adabiyotshunosligida milliy adabiyotning ilohiyotga ehtiyoji va undan oziqlanishi xususida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, musulmon mamlakatlarida adabiyotning Qur'oni karim va hadisi sharifning adabiyotga ta'siri, so'z san'ati orqali ilohiy va islomiy qarashlarning yoritilishini o'rganish muhim masalalardan sanaladi. Mustaqillikdan keyin, mamlakatimizda jamiyatning diniy-ruhiy asoslari va xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy-axloqiy merosini o'zida mujassam etgan islom madaniyatini o'rganish va uni hayotga tatbiq etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyotiga zamin hozirlagan diniy, ma'naviy-ma'rifiy sarchashmalarni chuqurroq o'rganish hamda dunyoga tanitish bo'yicha tadqiqotlar yuzaga keldi. Binobarin, islom dini va mumtoz adabiyotimizning o'zaro ta'sir mezonlarini, jumladan, Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqinini Alisher Navoiyning ijodini matniy-qiyosiy tahlil qilish orqali amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangandi. Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, irfoniy qarashlarning asarlarga singdirilib yuborilganining guvohi bo'lamiz. Bu qarashlar ba'zi o'rinda yaqqol hadis-u oyatlarni iqtibos qilinishida namoyon bo'lsa, boshqa o'rinda mazmun Qur'onga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. Alisher Navoiy „Muhokamat ul-lug'atayn“da fors tilida bir qancha qasida yozganini aytadi. Hamid Sulaymon qayd qilishicha, „Devoni Foni“ ning uch qo'lyozmasi (Parij Milliy kutubxonasi qo'lyozmasi, 285-raqam va Turkiya kutubxonasi qo'lyozmalari, 1952, 3850-raqamlar) muqaddimasida „Sittai zaruriya“ („Olti zaruriyat“) va „Fusuli arbaa“ („To'rt fasl“) sarlavhali ikki to'plam bo'lib, birinchisi olti, ikkinchisi to'rt qasidani o'z ichiga olgan<sup>1</sup>.

„Sittai zaruriya“ to'plamidagi qasidalarda Navoiyning diniy, falsafiy qarashlari aks etgan. Majmuadagi birinchi qasida „Ruh ul-quds“ („Muqaddas ruh“) deb atalib, ilohiy tavhid: olamning tanholigi, yagona abadiy va azaliy borliq, Yaratganning qudrati, eng kichik zarradan cheksiz koinotgacha uning izmida ekanligi madh etiladi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Zihy ba xomai qudrat musavviri ashyo,*

<sup>1</sup>Хамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5.

*Hazor naqshi ajib har zamon az o' paydo<sup>2</sup>.*

Mazmuni: (Ashyolarga surat beruvchi (Allohning) qudrat qalamiga tasannokim, Har zamon undan minglab ajoyib naqshlar paydo bo'lgay).

Hamdning "xomai qudrat" (qudrat qalami) iborasi bilan boshlanishi bejiz emas. Hadisda keltirilishicha, Muhammad alayhissalomga nozil bo'lgan ilk surada "Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi.O'qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatdi" mazmunidagi oyatlar bor ("Alaq" surasi, 1-3-4-oyatlar). "Musavvir" so'zi ham Allohning go'zal ismlaridan biri bo'lib, dastlabki misradayoq Parvardigorning uch sifati – Ilmi, Qudrati va Yaratuvchanligi hamd etilgan. Ko'rinadiki, shoirning so'z tanlashi asl manba – Qur'oni karim oyatlari asosida bo'lsa ham, qo'llanilishida shoirona mahorat imonli insonning kechinmalari va irfoniy dunyoqarash asoslari bilan uyg'un holda, ajoyib so'z san'ati namunasini vujudga keltirgan. Keyingi baytda Ollohning yaratuvchi qudrat ekanligi hamd etilgan.

*Chi xomaest,ki dar korgohi „kun fayakum’’*

*Nagashta be raqami o' zi qatra to daryo<sup>3</sup>.*

Mazmuni: Ajib qalamdirki, (Haqning), "Bo'li" desa bo'ladigan san'atxonasida qatradin daryogacha uning raqamisiz paydo bo'lmagan. Ushbu bayt mohiyatida iqtibos san'ati asosida "Oli Imron" surasining 47-oyati "...Bir ishni iroda qilsa, "Bo'li" deyishi kifoya, bo'laveradir"; "Yosin" surasining 82-oyatiga "Biror narsani (yaratishni)iroda qilgan vaqtida Uning ishi faqatgina "Bo'li" demoqlikdir. Bas, u (narsa) bo'lur-vujudga kelur" ishora qiladi: "Innama amruhu iza aroda shay'an yaqula lahu kun fa yakun". Irfoniy tasavvurga ko'ra, inson ikki asos jism va ruhdan iborat. Inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, borib taqaladi. Bular haqida Qur'oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. "Vas-safat" surasi 11-oyati ("Biz insonlarning asli-avvali bo'lmish Odam alayhissalomni yopishqoq bir loydan yaratgandirmiz").

*Chu soz kardy zi tarkibi chismi insoni,*

*Zi xok ta'biya soxti ba zebu baho<sup>4</sup>.*

Mazmuni: Insonni tuproqdan yaratding va unga ruh ato etding.Ana shu Ruh esa insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Chunki ruh g'ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag'ishlaydi.

*Ba xoki xismash boroni rahmat afshondy,*

*K-az on muloimat ovard tinatash paydo<sup>5</sup>.*

Mazmuni: Tuproqdan yaralgan jismi ustiga Rahmat yomg'irini yog'dirding, o'shandan uning fe'l-atvorida muloyimlik paydo bo'ldi. Biroq, inson tabiati to'la poklanmadi...

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasi 85-oyatida o'qiymiz: "Va yas'alunaka anirruh qulir ruhu min amri rob" (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so'raydilar. Ayting, "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir"). Ruh ilohiy ma'rifat, hikmat-u donish bilan

<sup>2</sup>Алишер Навоий. Девони Фоний. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003.

<sup>3</sup>Алишер Навоий. Девони Фоний. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003

<sup>4</sup>Алишер Навоий. Девони Фоний. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003

<sup>5</sup>Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003

oziqlanadi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir, komillik belgisi ham pokiza ruhga bog‘liqdir.

*Chu gasht paykarash orosta ba zeboy,  
“Nafaxtu fihi min ruhy” on budash mabdo<sup>6</sup>.*

Ya’ni: Surati go‘zal qiyofada paydo bo‘lgandan so‘ng (insonga), o‘z (dargohingdagi) ruhdan jon ato qilgan mabda’ (mansha’) ham O‘zingsan.

Bu baytdagi “Nafaxtu fihi min ruhy” jumlasini Qur’oni karimning Hijr surasining 29-oyatiga, Sod surasining 72-oyatiga ishoradir. Bu oyatlarning matni shunday: “Fa-iza savvaytuhu va nafaxtu fiyha min ruhi faqa’u lahu sojidiyn” (Hijr surasidagi 29-oyat, Sod surasidagi 72-oyat), ya’ni bas, qachonki uni to‘g‘rilab bo‘lganimda va ichiga O‘z ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz”. Bu bayt orqali Olloh insonni yaratgani va uning buyuk, muqaddas ekanligini, bularning barchasiga faqat yagona Olloh qodirligini ko‘ramiz. Komil Inson insoniyatni boshqaradigan buyuk ruh ekanligi islomiy-irfoniy falsafiy g‘oyalar bilan talqin etilgan. Ulug‘ shoir ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan bu kabi asarlarni bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e’tirof etish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003
2. Қуръони карим ( таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)-., Тошкент ислом университети’нашриёт-матба бирлашмаси,2014
3. Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5

<sup>6</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003, 199-б.



## TEMUR TUZUKLARIDA HARBIY ISH.

**Boboyev Lutfullo Xabibulloyevich***Davlat xavfsizlik xizmati qoshidagi**"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi**1-toifali tarix fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Barchamizga tarixdan ma'lumki, buyuk sarkarda Amir Temur juda ham bilimli va adolatli bo'lgan. Amir Temur hayotini yorituvchi eng muhim asar bu "Temur tuzuklari" hisoblanadi. Ushbu asarda o'zining shaxsiy hayoti, jangovar tayyorgarlik, jangdan oldingi harbiy ish va undan keyingi davr haqida to'xtalgan. Ushbu maqolada aynan Amir Temurning harbiy tayyorgarligi haqida fikr yuritimiz.*

**Kalit so'zlar:** *Temur tuzuklari, qo'rchi, yasol, barong'ur, farj, amir ul- umaro*

"TEMUR TUZUKLARI" - Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar. "Tuzuki Temur" va "Tuzukoti Temur" nomlari bilan atalgan. Amir Temurning "Tuzuklar" muallifi ekanligini e'tirof etadigan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida "Temur tuzuklari"ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashxur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo'lyozmalarning yirik tadqiqotchisi N.D. Mikluxo Maklaylar ham bor. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16—17-asrlarda Hindistonda yozilgan. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildiringa qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o'gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqa xususida gap boradi.

"Temur tuzuklarida" harbiy ishga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyatga ega bo'lib unga alohida urg'u berilgan. Asarda qo'shinni urushga kirish va chiqish tartibi, uni saflash, g'anim qo'shinlarini sindirish tartibi aniq ko'rsatmalar asosida yoritib borilgan. Jumladan Amir Temur qo'shinining tarkibida yuqori lavozimda turuvchi sarkardalar soni uch yuz o'n uch kishidan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuztasi - o'n boshi, yuztasi - yuzboshi, yuztasi mingboshi, qolgan o'n ikki kishi raqamlaridan kelib chiqqan holda askarlarga yo'l boshchilik qilish huquqiga ega bo'ladilar. Misol birinchi amir ming kishiga, ikkinchi amir esa ikki ming kishiga. Bundan tashqari umumiy qo'shinda to'rt

nafar beklarbegi va umumiy qo'mondan etib esa amir ul-umaro etib belgilash tartibini joriy qilinga. Bunda qo'shinning miqdori dushmanning soniga qarab belgilanadi.

Agar qo'shinida o'n kiki ming otliq askar bo'lsa, uning qo'mondoni etib amir ul-umaro etib belgilangan va to'qqiz qismga bo'lingan. Qo'lda bir farj, barong'urda uch farj, javong'orda uch farj, hirovulda bir va qoravulda bir farj tartibida bo'lingan.

Amir Temur amir ul - umaroga urush maydonini tanlashda quyidagi to'rt narsani tanlashda alohida ahamiyat berishni takidlaganlar.

Birinchidan - maydonni suvga yaqin uzoqligiga ahamiyat berish

Ikkinchidan -askar saqlaydigan yerning xavfsizligi

Uchinchidan - g'anim lashkarlaridan teparoqda joylashish, oftobga ro'baro turmaslik.

To'rtinchi - urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim

Asarda qo'shinning janga kirish tartibiga aloxida ko'rsatmalari bilan yoritib berilgan bo'lib, u tizimli tartibda berilgan.

- Urushga kirishdan oldin askarlar bir kun oldin safga tizib, favjlarga bo'lish

- lashkar nazoratchisi xatoga yo'l qo'ysa, darhol uning o'rniga boshqa sarkardani almashtirish

- sardor lashkar nazoratchisi bilan birga dushman sipohini muloxaza etishi va o'ziniki bilan solishtirishi, qurol yarog'ini dushmanniki bilan solishtirish

- dushmanni urush olib borish yo'llarini shoshmasdan, bir zayldami yoki shiddat bilanmi, janga kirishni kuzatish

- dushman urush ochmaguncha janga kirmaslik

- lashkarboshi o'zini va to'qqiz sipoxiy favjini bir tandek ko'rishi

- dastlab jang maydoniga hirovul, uning ketidan barong'ur so'ngra esa javong'urni jo'natish

- bordiyu, lashkarboshi qilich chopishga majbur bo'lsa, eng avvalo o'zini extiyot qilishi lozim zero, lashkarboshini o'limi parokandalikka olib kelishi belgilab qo'yilgan.

Amir Temur qo'shining tarkibiy bo'linmalari o'nlik, yuzlik, minglik va o'n minglik tarkibiy qismdan iborat bo'lib, shartli ravishda ularning boshqaruvi aylboshi, qo'shunboshi, mirihazora va tumanboshi tomonidan boshqarilgan.

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur davlatni boshqarishda ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda bevosita qo'shinga tayangan bo'lib uning oshqaruvi, tuzulishi va jangavor holatiga alohida e'tibor berganligi bevosita "Temur tuzuklari"da o'z ifadasini topgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temur tuzuklari, Toshkent, 1991 yil, 142--bet.
2. Lyusyen Keren. Amir Temur saltanati. Toshkent "Ma'naviyat" 1999 yil 42 bet
3. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. 66-71 betlar

## MAKTAB TARIX XONASI VA UNING TARBIYAVIY TA'LIMDAGI O'RNI

**Qulmonova Dilovar Erkinovna***Navoiy viloyati Nurota tumani**1 - mumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqola maktab tarix fanini o'qitishda sinf xonasining, o'quvchilarni tarbiyalashda va ularning bilimni rivojlantirishdagi ahamiyati. tarix xonasini uskunalar bilan ta'minlash va tarix xonasi-o'qituvchining metodik ish faoliyati sifatida hamda, tarix xonasi sharoitida ishlarni tashkil qilish yuzasidan tavsiyalarga asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Metodik, diafilm, kinofilm, fonozapis, kompleks, effect, interyer, applikasiya, diopozitivlar, inventarizasiya, kartoteka, rubrika, maketlar.*

Maktablardagi tarix xonasi o'quvchilar bilan mashg'ulotlar bazasi bo'lib qolmasdan, o'qituvchining metodik ishlarining ham bazasi hisoblanadi. O'quv-ko'rgazma qo'llanmalari fondi, o'qitishning texnik usullari, kutubxona fondi joylashgan tarix xonasi o'qituvchi xizmatini yana ham yuksaltiradi.

Metodik ijodiyetga sharoit yaratib berib tarix xonasi o'qituvchining tayorgarligiga yuqori talab quyadi. O'qituvchi xonadagi diafilm, kinofilm, fonozapis va hokozalarning mazmuni bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Har tomonlama jihozlangan xonalardagi bor materiallarni darsda kompleks foydalanish masalasi turadi. Bunday xonalar ta'lim usul va natijalariga, o'quvchilarning rivojlanishi va tarbiyasiga ta'sir etadi. Xona o'quvchilarda qiziqish uyg'otadigan, faolligini o'stiradigan o'rin bo'lishi kerak.

Hozirgi tarixiy ta'limni yuksaltirish masalasi turgan bir paytda tarix xonalarining o'ziga xos o'rni bor. Faqat eng zarur, eng zamonaviy diqqatiga sazovor qilish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

Xona bazasi uchta asosiy elementlardan shakllanadi:

- a) maxsus va qurilmalar bilan jihozlash;
- b) zarur apparaturalar;
- c) o'quv qo'llanmalari fondi.

Tarix Xonalarini jihozlash, ta'lim, tarbiya ishlarida katta effekt bo'lishini ta'minlashga qaratilishi kerak. Jahon talablariga javob beradigan tarix xonalarida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini yuksaltiradigan jihozlar talab qilinadi. Pult bilan boshqariladigan texnik o'qitish usullari katta ahamiyata ega. Agar u o'qituvchi stolida o'rnatilsa vaqt tejaladi.

Xonaning old devorida stendlar, montaj, rasmlar qo'yish kerak emas. Faqat portretlar bo'lishi mumkin. Interyerning jihozlanishi o'quvchilarni o'quv jarayenidan shalg'itmasligi kerak. O'rtadagi sinf doskasi qo'zg'olmali bo'lishi mumkin. Oq rangga buyalgan doskaning bir qismini ekran sifatida yoki har xil applikasiyalar uchun foydalanish mumkin. Alohida kinoekran doska tepasiga o'rnatiladi. Karta, jadvallar bilan ishlash uchun doskada ilgichlar o'rnatiladi. Orqadagi devorda maxsus shkaflar qo'iyilishi mumkin. Bunda karta, atlas, kitoblar qo'yiladiva (diopozitivlar, diafilm, lentalar saqlanadi. Derazalarga qarama-qarshi

devorda ekspozitsion qurilmalar o'rnatilgan bo'ladi. Shuningdek xonada inventarizatsiya kitobi bo'lishi kerak. Xona kartotekasi rubrikalar bo'yicha olib boriladi. Masalan: "Karta" rubrikasi yanada rubotkalarga bo'linishi mumkin: "O'rta asrlar tarixi bo'yicha kartalar", "Amir Temur Davlati va har bir kartaning orqa tomoniga uning atamasini va inventarizatsiya kitobidagi nomerini qo'shib yezib qo'iyadi.

Xona apparaturasiga 16 mm kinoprojektor, grafoprojektor, diaproyektor, magnitafon, proigryvatel, televizorlar kiradi. Kutubxona-tarix xonasidagi zaruriy komponentdir. Bunda darsdan tashqari o'qishlar uchun mos ravishda ilmiy-ommobop, badiiy-tarixiy kitoblar yig'ilgan bo'ladi. Ayniqsa, ma'lumotnoma adabiyetlar ahamiyatli. Xona kutubxonasida har xil gazetalar, mahalliy gazetalarning yangi sonlari bo'lishi kerak. Ma'lumotnoma bo'limida tematik materiallar bilan "papka" lar saqlanadi. Masalan "Tarixda yangiliklar", "Bizning kunlarimizning qahramonlari", "Arxeologiya yangiliklari" va boshqa mavzu bo'yicha materiallar tuplanadi. Bularni dars paytida ham ko'rgazmalar tashkil qilish, ahamiyatli sanalarni belgilash va boshqa ishlarda foydalanish mumkin.

Tarix xonalarida auditorial o'qitish usullarining 3 guruhining bo'lishi talab qilinadi:

- 1) diafilm, diapozitiv, grafoprojektor uchun transparantlar;
- 2) dinamik ekran qo'llanmalari- o'quv kino va televideniye;
- 3) radioko'rsatuvlar, tarixiy voqealarning guvohlarining chiqishlari yezilgan magnet plenkalari.

Tarix xonalarida o'qituvchi boshchiligida o'quvchilarning maketlar, modellar tayirlashi amalga oshiriladi. Xona sharoitida ishni tashkil qilish va uning samarali natijasiga erishish o'qituvchining faoliyatiga bog'liq. Tarix xonasida dars o'tishda faqat kinodars bilan cheklanib xatoga yo'l qo'ymaslik kerak. Dars materiallariga qo'shimcha bor imkoniyatlardan foydalanish kerak.

Xonada ishni tashkil qilish o'qituvchiga har xil ma'lumotlardan foydalanishga imkon beradi. Bu yerda har xil o'qitish usullarini qo'llashga imkon tug'iladi. Xona devorlariga o'quvchilarning mustaqil ish kunikmalarini hosil qilishda yordam beradigan instruktiv materiallar joylashtiriladi. Masalan: "Konspektani qanday yezish kerak. Tezislar qanday tuzuladi" va hokoza.

Har tomonlama jihozlangan va ta'minlangan tarix xonasida har xil darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish mumkin. Masalan, tarixiy to'garak, lektoriya, o'lkashunoslik burchagini yoki tarixiy burchlar, muzey tashkil qilish ishlari, disputlar, viktorinalar, kurgazmalar, tarixiy voqea guvohlari bilan uchrashuvlar, tarixiy bulletinlar chiqarish, devoriy gayeta chiqarish, darsdan tashqari o'qishlar tashkil qilish va h k z. Demak, tarix xonalarida o'qitish jarayenida ta'lim-tarbiyaga kompleks yondashuv amalga oshirilishi lozim ekanini tushunib olishimiz kerak.



**ADABIYETLAR:**

1. Apparovich N. Poltorak D.I. *Xona istorii i obuyestvovedeniya v shkole. M., 1982.*
2. Sa'diyev A. *Maktabda tarix o'qitish metodikasi. T., 1988*
3. Zavadye A.S. *Kak ustroit Xona istorii. - "Prepodovaniye istorii v shkole". M., 1978N1*
4. Babanskiy Yu.K. *Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T.. 1990*

**TARIX DARSLARI MAVZULARINING UZVIYLIKI VA DIDAKTIK  
JIHOZLANISHI.****Qulmonova Zulxumor Erkinovna***Navoiy viloyati Nurota tumani**42-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarix darslarining g'oyaviy mazmuni va uning ta'lim tarbiyaviy vazifalarini belgilashda nimalarga e'tibor berish kerak*

**Kalit so'zlar:** *tarixiy voqealar, tarixiy asarlar, metod va vositalar, metod va vositalar.*

Tarix darslarining g'oyaviy mazmunini, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilashda nimalarga e'tibor berish kerak? Avvalo shuni aytish kerakki, tarix darslarining g'oyaviy mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalari tarix programmasida berilgan material mazmuniga qarab belgilanadi. O'qituvchi darsda tarixiy voqealar va ayrim faktlarni bayon qilar ekan o'quvchilar uchun ularni bilishning qanday ahamiyati borligini jiddiy o'ylab ko'rishi, eng muxim va xarakterli tarixiy faktlarni ayniqsa kengroq qilib gapirib va tahlil; qilib berishi, voqealarning mohiyati, uning qonuniyatlari va tarixiy ahamiyatini ochib ko'rsatishi lozim.

Tarix darslarining asosiy mazmunini tashkil etuvchi tarixiy voqeaning mohiyatini, uni keltirib chiqargan sabablarini, uning qonuniyatlari, ahamiyati va natijalarini chuqur o'rganish asosidagina darsning g'oyaviy mazmunini, ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri va aniq belgilash mumkin. O'qituvchi tarix darsining mazmuni, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilashda tarixiy asarlari va davlat hujjatlariga asoslanib ish ko'rishi kerak. Davlatining hujjatlari tarix o'qitishning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Asarlar yuqoridagi namunalarda keltirilganidek, ba'zi mavzularnigina emas, balki butun tarix kursining mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda o'qituvchi uchun asosiy metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, darsda ulardan foydalanish o'qitishning g'oyaviy, ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga yordam beradi. Mavzuni zamonaga bog'lab o'rganish uning mazmunini chuqurroq anglab olishga yordam beradi, mavzuni o'rganishga ko'proq qiziqtiradi, uni aktuallashtiradi, darsning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Tarixni hozirgi zamon bilan bog'lash uchun avvalo, butun kishilik jamiyati tarixini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va almashinib turishi muqarrar ekanligi haqidagi bayon qilib. Tarix darslarining g'oyaviy mazmuni ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda tarix o'quv dasturining uqtirish xati ham katta ahamiyatga egadir. Bu xatda tarix kursining ta'lim-tarbiyadagi roli, vazifalari va mazmuni aniq ko'rsatib berilgan. Shuning uchun ham har bir darsga tayyorlanishda DTS va o'quv dasturining uqtirish xatidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi. Tarixdan metodik qo'llanmalar hamda maxsus metodik adabiyotlar ham katta rol o'ynaydi. O'qituvchi tarix darslarining ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda albatta ulardan foydalanishi kerak. To'g'ri, tarixning hamma bo'limlari bo'yicha ham darslarning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishga yordam beruvchi ko'rsatmani topish qiyin. Shuning uchun bu sohada har bir o'qituvchi shaxsan o'z tajribasi, ijodiga tayanishi kerak

bo'ladi. Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri va aniq belgilab uyg'unlashtirib olib borishning o'zi kifoya qilmaydi. Muhitning metodik vosita darsda ta'limtarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalardan to'g'ri, o'rinli foydalana bilishdir. Tarix o'qitishda ta'lim bilan tarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalar nimalardan iborat? Tarix bilimlarining tarbiyaviy ta'siri shu bilimlarning qay daraja tarixiy faktlarga asoslanganligi va ularni darsda ishonchli hamda emotsional tarzda ochib berilishiga bog'liqdir. O'quvchilar tarixiy faktlarning to'g'riligini tushunib borishlari va faktlar asosida chiqarilgan xulosalar ular uchun ishonchli bo'lmog'i lozim. Shuningdek, o'quvchilar bayon etilgan faktlarning shu jihatdan to'g'riligiga komil ishonch hosil qilishlari ham zarur.

Tarix o'qitishning muhim vazifasi — tarixiy hodisalarga berilgan ilmiy baholarni va o'rganilayotgan material yuzasidan chiqarilgan boshqa xulosalarni o'quvchilarga ishonarli qilib tushuntirib berishdan iboratdir. Ma'nosini yaxshi tushunmasdan yodlab olingan xulosalar o'quvchilar uchun ishonarli bo'lmaydi, tafaqur bilan, emotsional kechinmalari natijasida, tushunib, bi-lib olingan xulosalar ishonarli bo'ladi.

Tarix ilmi o'quvchilarning tarixiy faktlarga, xalqlarning faoliyatiga, ijtimoiy sinflarning namoyandalariga, ijtimoiy ideologiya va shu kabilarga emotsional munosabatini uyg'otadi.

Tarixiy bilimlarni o'zlashtirishning emotsionalligi bilimlarning puxta egallanishida, tarixga qiziqishni oshirishda, tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirishda, bu bilimni o'rganishda, umuman o'quvchilarning faolligini kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. O'qituvchi tarix fanining bugungi kun talablari va o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarixi kursining maqsad, vazifalariga javob beradigan eng muhim tarixiy faktlarni tanlay bilishi, ularni o'quvchilar ongiga jonli va obrazli qilib yetkaza bilishi lozim. O'quvchilar ko'z o'ngida o'tmish va hozirgi zamon voqealari to'g'risida jonli va yorqin tasavvur hosil qila bilish, ularda emotsiya uyg'o-tish, ijtimoiy hayotning yaxlit manzarasini gavdalantirish, bi-limlarni ongli va puxta o'zlashtirishning muhim shartlaridan-dir. Shunga erishish keraqi, har bir ayrim va hatto qisqacha bayon qilingan tarixiy fakt, har bir geografik nom va shaxslar-ning faoliyati ham konkret obrazlar yordamida o'rganiladigan bo'lsin. c o'quvchilar bilimining il-miy va puxta bo'lish shartlaridan biridir. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish tashkiliy formasi uchun tarix o'qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi.

O'zligini anglashga intilgan har bir xalq o'tmishini bilishi zarur. Tarixni o'rganish umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini anglab yetish uchun, barcha xalqlarning umumjahon tarixiy jarayonida qatnashib, jahon madaniyati hazinasiga qay darajada hissa qo'shganligini bilish uchun ham muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. T. O'zbekiston, 2000
2. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.
3. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000.

**O'ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA UNING  
TARAQQIYOT BOSQICHLARI.****Rajabova Sanobar Obidovna***Navoiy viloyat Nurota tumani**5 –umumiy o'rta ta'lim maktabi**tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *O'zbek xalqi davlatchiligi tarixini o'rganishning o'ta muhimligini I.Karimovning quyidagi so'zlaridan bilish mumkin: "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlatdir. Bu mustaqil, demokratik huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir".*

**Kalit so'zlar:** *despotik davlatlari, iqtisodiy, huquqiy normalari, ma'muriy tashkilot, qonun, davlatchilik, erkinlik, fuqaro, siyosiy e'tiqod, demokratik huquqiy.*

Davlat - insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining mahsuli, elatlar, xalqlar va millatlar hayotining ma'lum huquq va qonunga asoslanib tashkil etishning siyosiy shaklidir. U o'z mohiyatiga ko'ra kishilarning talablari va ehtiyojlarini amalga oshirish huquqlarini himoya qilish, amaliyotda barqarorlikni o'rnatish va saqlashga mo'ljallangan, muayyan aholi jamoalari tomonidan tashkil etilgan maxsus vakolatli va qonun-qoida asosida faoliyat ko'rsatadigan vakillar guruhlar majmuasidir. Davlat siyosiy va ma'muriy tashkilot sifatida xalqni uyg'unlashtiradi. Davlat tufayli jamiyatning butun tuzilishi (iqtisodiy, huquqiy normalari, turmushi, urf-odati, texnikasi va bilim darajasi, etikasi, dini, falsafasi, ijtimoiy qarashlari va boshqalar) to'la kuch bilan namoyon bo'ladi. Boshqacharoq, aytilganda, davlat boshqaruvida quyidagi ikkita muhim jihatlar hal etilganligini sezish mumkin. - birinchidan, davlat paydo bo'lishi bilan amaliyot hayotini tashkil etish va uni boshqarishning tarixan dolzarb bo'lgan yangi shakllari qaror topdi. Hokimiyatning vakolatli shakli yuzaga kelib, katta-katta ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun keng xalq ommasini safarbar etishning tashkiliy usullari va vositalari ishlab chiqilib, doimo takomillashtirilib borildi. Davlat doirasida aholining ijtimoiy jihatdan farqlanadigan tarkibiy tuzilishi yuz berdiki, natijada urug', qabilachilik aloqalaridan etnik va sinfiy umumiylikka o'tish ta'minlandi. SHuningdek, davlat mavjudligi tufayli ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ajratib, uning ahamiyatliligi ta'minlandi. Ijtimoiy intizom qaror topib, insonning shaxs sifatida ijtimoiy qiyofasi birinchi o'ringa chiqdi. Demak, davlatning kelib chiqishi nafaqat tarixiy zaruriyat, balki ijtimoiy taraqqiyot omili ham bo'ldi; - ikkinchidan, davlat ibtidoiy jamiyatda mavjud bo'lgan boshqaruvdagi tamoyillarga barham berdi. Oqibatda, butun jamoaning jamiyat hayotida bevosita ishtiroki, boshqaruvda jismoniy zo'ravonligi emas, balki jamoa fikri va obro'si kuchining tan olinishi, iqtisodiy majburlashning yo'qligi va boshqa ko'pgina tomoyillar yo'qolib ketdi. Davlatchilik rivojlanishi bilan siyosiy boshqaruvning murakkab tartiboti maydonga keladi. Bunda, eng avvalo jamiyatning siyosiy sohasida yuzaga keladigan siyosiy tashkilotlar turkumi nazarda tutiladi. Masalan, boshqaruvda hokim yoki



tobeligiga ko'ra farqlanadigan ijtimoiy guruhlarning sinfiy tashkiloti – siyosiy partiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda sinflarning muhim, odatda faol qismi muayyan g'oyalar va tamoyillar asosida uyushgan bo'ladi. Davlat hokimiyatini qo'lga kiritgan partiya boshqaruvda rahbarlik vazifasini bajaradi. Jahonda eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi 4-ming yillik oxiri 3-ming yillik boshida Mesopotamiya va Misrda, birmuncha keyinroq Gang daryosi vodiysida va Old Osiyoda, Egey dengizi havzasida va Xuanxe daryo vohasida vujudga kelgan va rivoj topgan. Qadimgi Sharqda davlatlarning yuzaga kelishi jarayoni juda murakkab kechdi va bir necha yuz yilliklarni o'z ichiga olgan uzoq davrga cho'zildi. CHunki, bu yerda urug'chilik tuzumi qoldiqlari va uning organlari tezda o'z o'rnini yangi jamiyatga bo'shatib bermadi. Ma'lum bo'lishicha, dunyoning barcha hududlaridagi dastlabki davlat tuzilmalari yirik bo'lmagan shahar-davlatlardan iborat bo'lgan. Ularning davlat apparati esa yemiralayotgan urug'chilik tuzumi sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan harbiy dyemokratiya, oqsoqollar kengashi, xalq yig'ilishi, harbiy boshliqlar va ularga yaqin bo'lgan kishilar drujinasidan tashkil topgan. SHahar-davlatlarning mahalliy urug'chilik aristokratiyasi bilan ustunlikni qo'lga kiritish uchun olib borilgan keskin kurashlari natijasida yirikroq davlat birlashmalari yuzaga kyelgan. Despotik Misr, Vaviloniya, Xitoyning TSin' impyeriyasi kabi qadimgi SHarqning despotik davlatlari asosan daryo vohalarida hamda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik o'lkalarida yuzaga kelib, ular asosan bir daryo havzasidagi barcha sug'orish inshootlarini birlashtirish negizida faoliyat boshlash bilan birga boshqaruvni ancha mustahkamroq va uzoqroq davom ettirganlar. Ossuriya va Eron ahmoniylari imperiyasi esa despotik davlatlarning tamomila boshqacha ko'rinishi - harbiy-ma'muriy imperiyalar edi. CHunki, ular bosqinchilik, qurol kuchi yo'li bilan yuzaga kelgan davlatlar hisoblanib, umumiy iqtisodiy negizga ega bo'lmaganlar. Ular rivojlanishi turlicha bo'lgan mamlakatlar va viloyatlarni majburiylik va zo'rlik asosida birlashtirganliklari sababli mustahkam davlat hisoblanishi mumkin emasdi. Qadimgi SHarqda despotik xarakterga ega bo'lmagan davlatlar ham bo'lgan. SHu jumlagi tarixda ma'lum iz qoldirgan Xettlar podsholigi bilan Finikiyaliklar shahar-davlatini kiritish mumkin. Ularda hokimiyat bosh hukmdor va oqsoqollar kengashi o'rtasida taqsimlangandi. O'rta Yer dengizi havzasidagi qadimgi Gretsiya va Rimda shahar davlatlari-polislarning yuzaga kelishi va rivojlanishlari uchun butunlay boshqacha qulay sharoit bo'lgan. Bu yerda polislar dyemokratik (qadimgi Afinada) yoki aristokratik (Qadimgi Rimda) xarakterga ega bo'lishganlar va o'zlarida mulkning shaklini aks ettirganlar. Lekin, antik dunyodagi xo'jalikni rivojlantirish ehtiyoji, iqtisodiy aloqalar takomillashuvi asta-sekinlik bilan davlatlarning yiriklashuvini taqazo etgan. Bu hududda Etoliy, Axey va boshqa shahar - davlatlari ittifoqi bilan birga yirik Ptolemyeylar Misri va Salavkiy davlatlarining yuzaga kelishi, nihoyat O'rta Yer dengizi havzasida yagona Rim impyeriyasining paydo bo'lishi yuqoridagi fikrimizning isbotidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. - T.: SHarq, 1997.
2. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**AL-XORAZMIY YASHAGAN DAVR VA UNING ILMIY FAOLIYATI.****Sotiboldiyeva Shaxnoza Baxromjon qizi***Andijon viloyati Paxtaobod tumani**33-maktab Matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Al-Xorazmiy yashagan davr va uning ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Tayanch iboralar:** *algebra, fan, tenglamalar, matematika, darslar.*

VII asrning birinchi yarmida, **Muhammad (s.a.v.)** payg'ambar vafotidan so'ng, arablar Arabiston yarimi orolidan avvaldan yashab kelganliklari uchun uni butunlay o'zlariga qaratdilar va bir necha o'n yilliklar davomida katta davlatni tuzdilar. Ular Eron podshohligining butun hududini - Fors qo'ltig'idan Kavkazgacha - Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Suriya, Misr, Shimoliy Afrikani egalladilar. Ular Gibraltar orqali Ispaniyani ham egalladilar. So'ngra arablar franklar qirolligiga hujum uyushtirdilar. Arablarning Yevropa bo'ylab yurishi 732 yilda to'xtatildi, bu Puatye jangida sodir bo'ldi va ular mag'lubiyatga uchradilar.

Osiyo bo'ylab arablar Xitoygacha yetib borishdi va 751 yilda Talasdagi jangda xitoy qo'shinlariga katta zarba berdilar. Sharqiy Eron va Afg'onistonni egallab, arablar Shimoliy-G'arbiy Hindistonga bostirib kirdilar. Shunday qilib, VII va VIII asr birinchi yarmida ulkan davlat -poytaxti Damashqda bo'lgan Arab xalifaligi vujudga keldi. Atlantika qirg'oqlaridan Hindiston va Xitoygacha bo'lgan arab xalifaligi qudrati jo'sh urgan davrdagi Rim imperiyasidan ham katta huddudni o'z ichiga olgan edi.

Arab istilosi bo'ysungan xalqlar orasida til va arablar dini -islomning tarqalishiga asos bo'ldi. Bir vaqtning o'zida Arab xalifaligi hududida grek olimlari kelishi munosabati bilan Yaqin va O'rta Sharqqa kirib kelgan antik an'anaga va bo'ysungan xalqlar ilmiy yutuqlariga qator davlatlarga bo'linib ketsada, ularda ilm tili bo'lib qolgan arab tili saqlanib qoldi.

IX-XII asrlarda arab tilli mamlakatlarda fan gullab yashnadi. Xalifalik poytaxti bo'lgan Bag'dod ulkan ilmiy markazga aylandi. Bu yerda Platon, Aristotel, Yevklid, Arximed, Ptolemey asarlarini tarjima qilib va sharhlash bilpan shug'ullanuvchi tarjimonlar va kotiblar, olimlar faoliyat ko'rsatar edi. Ish faqat birovlarning ishlaridan nusxa olishdan iborat bo'lmay, ular bu tadqiqotlarni davom ettirdilar va yangi ishlarni bajardilar, observatoriyalar qurdilar, asboblar yasadilar, mustaqil kuzatishlar olib bordilar. Matematik masalar uchun materialni esa Sharq savdogarlarining keng rivojlangan savdo-sotig'i berar edi. Uzoq sayyohatlar esa astronomiya va geografiya rivojlanishiga, hunarmandchilikning rivojlanishiga, tajribaviy fanning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

786 yildan 809 yilgacha hukmronlik qilgan Xorun al-Rashid tabiiy fanlar va matematika fanlari rivojlanishiga homiylik qildi. Uning davrida Bag'dodda katta kutubxona ochilib, har bir mashhur kishi o'z atrofiga mashhur shoirlar, olimlar, Qur'oni Karimni biluvchilarni to'plashga harakat qilar edi. Ular qanchalik ko'p bo'lsa uning obro'si va

shuhrati oshar edi. Katta shaharlarda machitlar qoshida oliy musulmon maktablari-madrasalar qurildi.

Xorun al-Rashidning o'g'li xalif al-Ma'mun olimlarni o'ziga xos akademiyaga-Donishmandlar uyi deb atalgan ilmiy maskanga yig'di. Bunda yaxshi jihozlangan rasadxona bor edi. Qizig'i shundaki, Vizantiya imperatori bilan tinchlik shartnomasiga al-Ma'mun talabi bilan unga ko'pgina grek qo'lyozmalarni berish ham kiritilgan edi. Ular orasida arablarga Ptolemeyning "Buyuk matematik bunyodkorlik" asari ham tushdi va u arab tiliga tajima qilindi. Arab tarjimalari orqali O'rta asr Yevropasi kafedralari Geronning "Mexanikasi", Filoning "Pnevmatika"si, Aristotel, Ptolemey, Arximed ishlari bilan tanishganlar.

Donishmandlik uyida ishlagan olimlardan biri Al-Xorazmiy edi. Al-Xorazmiyning matematika va astronomiyadagi xizmatlari shunday beqiyoski, uning nomi O'rta asr Yevropasida algoritmus matematik atamasiga aylandi. Al-Xorazmiy birinchi bo'lib, sinuslar jadvalini bergan edi, tangens kiritildi, uning astronomiya bo'yicha jadvalidan keyinchalik Sharq va Yevropa olimlari keng foydalanganlar. Olimga katta shuhrat keltirgan uning matematik asarlari hisoblanadi. Uning arifmetik risolasi Yevropani hind pozision sistemasi nol, arab raqamlari, butun sonlar va kasrlar ustida amallar bilan tanishtirdi.

Al-Xorazmiy algebraik risolasida ikkita maxsus amal kiritgan. Birinchisi-to'ldirish-manfiy sonni tenglamaning bir tomonidan ikkinchisiga o'tkazish bo'lib, undan al-jabrdan algebra so'zi kelib chiqdi. Bir matematik bu qoidani quyidagicha ifodalagan:

Tenglamani yechishda,  
 Agar biror qismida,  
 Farqi yo'q qaysisida,  
 Manfiy had uchrasa,  
 Biz har bir tomonga,  
 Teng had beramiz,  
 Faqat boshqacha ishora bilan,  
 Va musbat natijani topamiz.

Ikkinchi amal - *val -muqobala* - tenglamaning ikkala qismlarida teng hadlarni qisqartirish hisoblanadi.

Al-Xorazmiy risolalari matematika bo'yicha arab tilidan lotin tiliga Yevropada tarjima qilingan birinchi asarlardan edi, XVI asrgacha algebra algebra va muqobala san'ati deb atalgan edi. Sharq matematiklaridan meros bo'lgan chiziqli va kvadrat tenglamalar haqidagi ta'limot Yevropada algebra rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

Ma'lumki Al-Xorazmiy kvadrat tenglamalar nazariyasi bilan shug'ullangan. U  $x^2 + 21 = 10x$  tenglamani yechgan. Siz ham yechib ko'ring va uning yechimini al-Xorazmiy bajargan amallar bilan taqqoslab ko'ring: «Kvadratlar va sonlar ildizlarga teng. Qoida. Ildizlar sonini ikkiga bo'l, 5 hosil bo'ladi. Buni uning tengiga ko'paytir. 25 bo'ladi. Undan 21 ni ayir, 4 qoladi. Undan kvadrat ildiz chiqar, 2 bo'ladi. Buni 5 dan ayir, 3 hosil bo'ladi. Bu sen izlagan ildiz bo'ladi. Bu ildizni ildizlar soni yarmiga qo'sh, 7 bo'ladi. Bu ham ildiz"

**TARIX DARSLARIDA QIZIQARLI O`YINLI  
USULLARDAN FOYDALANISH****Abdurahimova Nodira Akramaliyevna***Namangan viloyati Uychi tumani**37-maktab tarix fani o`qituvchisi***Dexqanov Shuxratjon Adashaliyevich***Namangan viloyati Uychi tumani**16-maktab tarix fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarix fani darslarida o`quvchilarni qiziqarli o`yinli usullardan foydalanish, tarix darslarida o`quvchilar nutqini o`stirish masalalari aytib o`tilgan.*

**Kalit so`z;** *zamin usuli, annagramma, tarixiy voqealar, tarix o`yini anqara jangi, an`naviy usullar,*

O`zbekiston amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini jahon ta`limi standartlariga javob bera oladigan ilg`or tajribalarni ommalashtirish hamda ta`lim tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo`lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o`rta ta`lim maktablari o`qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o`quvchilarning ilm olishga bo`lgan qiziqishlarini ortirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi ta`lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi

Maktablarda o`qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o`zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o`quvchi kishilik jamiyati bosib o`tgan yo`lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o`z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib brogan kurashlari haqidagi asosiy ma`lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslarida o`quvchining hozirgi ijtimoiy –siyosiy jarayonlarni to`g`ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma`lumki, tarix faning asosini ma`lumotlar o`quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko`rinishlar, qiziqarli o`yinli usullar, krosvordlar, guruhlar bilan ishlash, baxs- munozalarolib borishiga bog`liq. Men o`z darslarimda o`quvchining alohida xususiyatlariga e`tibor berishga, ko`proq o`zim yaratgan turli usullardan foydalanishga holda yoritishga harakat qilaman. Sizga taklif etilayotgan .Mavzuga zamin, Tarix o`yinli usullar tarix darslarni qiziqarli va samarali o`tishiga yordam beradi.

**Mavzuga zamin usuli**

Bizga ma`limki o`quvchilar mavzuni o`qituvchi tushuntirib berishi chog`ida va o`zi darslikdan o`qib o`zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o`quvchilar o`zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o`quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayinbo`lmaydi. Shuninguchun ularga turli xil o`yinlar, sahnali ko`rinishlar, baxs-

munozalar orqali darslartashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o`zlashtira olmaydigan o`quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o`tilgan mavzuni mustahkamlash chog`ida, avvalombor , o`quvchilarni darsga o`tilishi, o`quvchilarning yaxshi o`zlashtira olishi eng birinchi navbatda o`qituvchi o`quvchilarni o`ziga jalb qilishi, o`tilgan mavzuni dab- durustdan boshlab, ularga o`tilgan mavzu yuzasidan toshiriqlar berishdan emas, aksincha o`quvchilarni o`tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishga bog`liq

Tarix usulli . Bu usul quyidagi jadval asosida to`ldiriladigan jamoa o`yinli usullaridir. Ya`ni Tarix usulli quyidagi so`zlarning bosh harflaridan olingan bo`lib, T-test savollar, A-anagrammalar, R- raqamlardagi voqealar, I- ikki tarixiy jarayonni solishtirish, X-xulosa kabi qismlardan iborat bo`lib , bu jadvalni guruh bilan birgalikda to`ldirish orqali o`quvchilar mavzuning asosiy mazmuni keltirib chiqarishadi.

Tarix shartlari izoh ball

T. Test savoli. MAVzu bo`yicha 5 ta test savollari yozib qo`yiladi.

Har bir savolga to`g`ri javob uchun 1balldan.To`plagan Ballar qismiga qo`yiladi

A.Annagramma mavzu bo`yicha aagramma beriladi. Anagramma topilib, shu anagrammadagi so`zga ta`rif beriladi. Anagramma uchun 5 ball beriladi

ANQARA GANJI Javob; Anqara jangi. 5ball R.Raqamdagi voqeallar Mavzu bo`yicha tarixiy raqamlardan 5-ta beriladi va bunga o`quvchi shu tarixiy sanada qanday voqea bo`lib o`tganini shu tarixiy sananning to`g`risida yozibqo`yadi. Har bir to`g`ri javob uchun 1 balldan quyiladi. To`plagan ball ballar qismiga qo`uiladi. 1336-yil A.Temur tavvalud topgan yil. 1370-yil A.ATemur Movarounaxr amiri va hakoza 5 ball

Ikki tarihiy jarayonni solishtirish ikki tarihiy shaxsni hayotini taxlil qilish orqali mavzuni yoritish mumkin.

Hozirgi zamon har bir fan o`qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o`rni va roliga har tamomlana qarash vazifasini yuklaydi, Buning uchun o`qituvchi ta`lim-tarbiyaning yangi shakllari , vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o`zi zamonaviy pedagogic texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a`naviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilish hamda ijodkor bo`lmog`I lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent. O`zbekiston.2016
2. Toshtemirova .Saodat Abdurashidovna. Ta`lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida. Uzliksiz ta`lim 2020y
3. 7- 8 sinf Tarix darsliklari

## ИМОМ ТЕРМИЗИЙ

Мадаминов Шокиржон

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси**магистранти*

У кишининг тўлиқ исмлари ва нисбатлари: Муҳаммад ибн Ийсо ибн Савра ибн Мусо ибн аз-Захҳок ас-Сулабий ал-Буғий ат-Термизийдир. Имом Термизийнинг кунялари Абу Ийсо, исмлари Муҳаммад, оталарининг исмлари Ийсо, боболарининг исмлари Савра бўлган. У киши ҳозирги Термиз шаҳридан олти фарсах узоқликда жойлашган Буғ қишлоғида таваллуд топганлари боис нисбатлари Термизий ва Буғий дейилади.

Имом Термизийнинг “ас-Сулабий” нисбати ҳақида эса учта фикр айтилган:

Биринчи фикр: Бани Сулайм қабиласига мансуб бўлганлар шу нисбат билан танилишган. Абдулкарим ас-Самъоний раҳматуллоҳи алайҳнинг “ал-Ансоб” асарида айтилишига қараганда, у арабларнинг қадимги қабилаларидан бирининг номи бўлган. Демак, Имом ат-Термизий аجدодларининг мазкур қабиллага алоқадорлиги бўлиши мумкин. Чунки, айрим араб қабилалари Насаф (Қарши) яқинида истиқомат қилиб қолганлари тарихдан яхши маълум. Эҳтимол, Термиз яқинида ҳам Бани Сулайм қабиласига ўхшаган бир-икки қабилла яшаб қолгандир. Чунки, Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳ ва Имом ан-Насоий раҳматуллоҳи алайҳнинг устозларидан бири, фақиҳ, ишончли муҳаддис Абу Исмоил Муҳаммад ибн Исмоил ибн Муҳаммад ибн Юсуф ас-Сулабий ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳ номли зот ҳам шу ерлик уламолардан бўлган. У зот асосан Бағдодда яшаганлар, 280/893 йили рамазон ойида вафот қилганлар ва Аҳмад ибн Ҳанбал раҳматуллоҳи алайҳнинг мақбараси ёнига дафн қилинганлар. Лекин, араб қабилалари Термиз яқинида эмас, балки Насаф (Қарши) яқинида кўпроқ истиқомат қилганлар.

Иккинчи фикр: (Шу тўғрироқ фикр) Имом ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳнинг ота-боболари мазкур Бани Сулайм деган араб қабиласидагилар билан мавло, яъни дўст тутинган бўлган. Ўрта асрларда бир қабилла билан дўст тутинган одамни ҳам ўша қабиллага нисбатлаш ҳолати мавжуд.

Учинчи фикр: Нарвон ва ҳар хил зиналар ясовчи усталарга ҳам “ас-Сулабий” ёки “ас-Суллабий” нисбаси қўлланилган. Демак, Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳ бобомиз ва унинг ота-боболари нарвон ясовчи дурадгор усталар бўлган, дейишимиз мумкин. Қадимда, барча олим ва таниқли шахсларнинг тирикчилик ўтказувчи ўзларининг касб-ҳунарлари борлиги барчага маълум.

Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳнинг ота-боболари ва ёшлик йиллари тўғрисида маълумотлар кам, фақат манбаларда ота-боболарини асли Марвдан бўлиб,



Термизга кўчиб ўтишган, деб қайд қилинади. Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳнинг ўзи: “Менинг бобом марвлик бўлиб, кейин Термизга кўчиб ўтганлар”, деган эканлар.<sup>7</sup>

У зотнинг туғилган ва вафот этган йили: Имом ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳ ҳижрий 209 йил, мелодий 824 йили санада таваллуд топганлар. Вафотлари эса, 279 ҳижрий сана 13 ражабда бўлган. Бу мелодий 892 йили 9 октябрга тўғри келади.

Имом Термизийнинг илмий сафарлари: Муҳаммад Термизий ёшлик чоғларидан Термиз, Самарқанд, Марв ҳамда Марказий Осиёнинг бошқа шаҳарларида яшаган машҳур аллома ва муҳаддисларнинг асарларини қунт билан ўргана бошладилар. Балх ва Ҳайратон илм аҳллари билан илмий муносабатларнинг ўрнатилишида ҳисса қўшдилар. Илму маърифатга, хусусан, ҳадис илмига бўлган иштиёқ ва муҳаббат у зотни узоқ хорижий мамлакатларга сафарга ундади. У зот фақат ҳадис илми билан кифояланиб қолмасдан, кироат, баён, фикҳ, тарих ва бошқа илм-фан соҳаларидан ҳам сабоқ олиб, жаҳоннинг улуғ алломаси даражасига етдилар. Имом Термизий раҳматуллоҳи алайҳ 20 ёшга етганларида Хуросон шайхларидан Исҳоқ ибн Роҳавайҳ Марвазий ва бошқалардан илм ўрганган бўлсалар, 25-26 ёшларида Ироққа бориб, у ердаги алломалардан дарс олдилар. Ундан сўнг Ҳижозга кетиб, Маккаи мукаррама, Мадийнаи мунавварада туриб, у жойларда кўплаб уламолар, муҳаддислар билан мулоқотда бўлдилар. Улардан таълим олдилар, қизгин илмий баҳс ва мунозарарларда иштирок этдилар.<sup>8</sup>

Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳнинг ўз юртидан илм истаб сафарга чиққан вақтини ҳижрий 240-йил ва мелодий 854 - йилларда бўлгани қайд қилинган.<sup>9</sup>

Хуросоннинг бир неча шаҳарлари, Кўфа, Бағдод, шунингдек, Ироқ, Ҳижоз ва бошқа ўлкаларга сафар қилганлар. Имом аз-Заҳабий раҳимахуллоҳ айтишига қараганда, Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳ Миср ва Шомга бормаганлар, у ерлик муҳаддислардан восита орқали ҳадис ривоят қилганлар.<sup>10</sup>

Имом Термизий раҳматуллоҳи алайҳнинг устозлари:

Муҳаммад ибн Исмоил Абу Абдуллоҳ Бухорий (ҳижрий 256-санада вафот этган). Муслим ибн Ҳажжож (ҳижрий 261-санада вафот этган). Абу Довуд Сулаймон ибн Ашъас ас-Сижистоний (ҳижрий 275-санада вафот этган). Абдуллоҳ ибн Муовия Жумаҳий (ҳижрий 243-санада вафот этган). Али ибн Ҳожар Марвазий (ҳижрий 244-санада вафот этган). Сувайд ибн Наср ибн Сувайд Марвазий (ҳижрий 240-санада вафот этган). Қутайба ибн Саъийд ас-Сақофий Абу Ражо (ҳижрий 240-санада вафот этган). Абу Мусъаб Аҳмад ибн Абу Бакр аз-Зухрий ал-Маданий (ҳижрий 242-санада вафот этган). Муҳаммад ибн Абдулмалик Абу Шавориб (ҳижрий 244-санада вафот этган). Иброҳим ибн Абдуллоҳ ибн Ҳотам Ҳаравий (ҳижрий 244-санада вафот этган). Исмоил ибн Мусо Фазорий ас-Саддий (ҳижрий 245-санада вафот этган).<sup>11</sup>

<sup>7</sup> Жомеъ Ас-Сунан, (сайланма ҳадислар). Абу Исо Муҳаммад ибн Исо ат-Термизий; таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Аминов, М. Исмоилов, Б. Абдуллаев. Мовароуннаҳр, 2018. Б.5-6

<sup>8</sup> Абу Исо Муҳаммад ат-Термизий. Сунани Термизий. Мирзо Кенжабек таржимаси.-Т: “SHARQ”, 2012. Б.6.

<sup>9</sup> Акрам Зиё ал-Умарий. “Турос ат-Термизий ал-илмий”.-Мадина: Мактаба ад-Дор, 1992.-Б. 271.

<sup>10</sup> Шамсуддин аз-Заҳабий. Сияр аълом ан-нубало. 13-жилд.-Байрут: Муассаса ар-Рисола, 1992.-Б. 271.

<sup>11</sup> Мусталаҳул ҳадис, Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Sharq нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011 й. Б.78.

Имом Термизий ҳақида уламоларнинг фикрлари: Улуғ устоз Имом Бухорий ўз шогирди имом Термизийни алқаб, камтаринлик билан: “Сен мендан баҳраманд бўлганингдан ҳам кўра мен сендан кўпроқ баҳраманд бўлдим”, дейди. Бу Термизийга берилган катта баҳо эди. (Ал Мирқот, 1-жилд, 22-бет).

Самъоний “Ал-Ансоб” китобида Термизийни бундай тавсиф этади: “Муноқашасиз, у ўз асрининг имоми бўлиб, турли таснифлар соҳибидир”.

Ибн Ҳалқон ҳам у зотни: “Ҳадис илмида иқтидо этиладиган имомлардан биридир”, деб тавсифлайди. Аллома Тошқўпрулизода “Мифтахус саъода” китобида бундай деган: “Уламоларнинг ҳофиз ва аъламларидан бири эди. Фикҳда қимматли асарлари бор. Ҳадисни имомлардан ташкил топган бир жамоадан эгаллади. Биринчи табақа шайхларини кўрмоққа муяссар бўлди” .

Шогирдларидан яна бирлари: «Имом Бухорий вафотларидан кейин Хуросонда Абу Исо ат-Термизийдек илмда, зехнда, тақвода, зоҳидликда бирор киши топилмас эди», деб айтади.

Имом ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳ жуда ҳам кўплаб китоблар ёзганлар. Уларга қуйидагиларни айтишимиз мумкин: «Ал-Жомийъ ас-Саҳиҳ», бу китоб «Саҳиҳ ат-Термизий» номи билан машҳурдир, «Шамоилу Набавия», «Илалу муфрад», «Илалу фий охири жомийъ», «Китобу зуҳд», «Китобу тарих», «Асмоу саҳоба», «Асмо ва куна», «Китобу фий асари мавкуфа».

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Имом Термизий роҳматуллоҳи алайҳ Аллоҳ таолонинг бизларга берган неъматини бўлган. Чунки, бу каби уламолар доим ҳам чиқавермайди. Бу кишининг ақл заковати, қобилияти, илми борасида юқорида уламоларнинг фикрлари келтириб ўтилди. Шунингдек, бу кишининг шоҳ асари бўлмиш “Ал-Жомеъ ас-сунан” асари ислом оламида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у олти саҳиҳ китоблардан бири саналади. Шундай экан, Имом Термизий ва бу киши каби уламоларнинг ҳаёти ва илмий фаолиятини чуқур ўрганиб, улардан илм ҳосил қилиб, қилган ишларидан ибрат олиб илм йўлида астойдил ҳаракат қилишимиз лозим.

## ИМОМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ

Мадаминов Шокиржон

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

магистранти

Муҳаммад ибн Ийсо ибн Савра ибн Мусо ибн аз-Заҳҳок ас-Суламий ал-Буғий ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳ 209 ҳижрий санада таваллуд топганлар. Бу мелодий 824 йилга тўғри келади. Баъзи ривоятларда ҳижрий 200 йил, мелодий 815 йили ҳам дейилган. Вафотлари эса, 279 ҳижрий сана 13 ражабда бўлган. Бу мелодий 892 йили 9 октябрга тўғри келади.

Имом ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳ жуда ҳам кўплаб китоблар ёзганлар. Уларга қуйидагиларни айтишимиз мумкин: «Ал-Жомий ас-Саҳиҳ», бу китоб «Саҳиҳ ат-Термизий» номи билан машҳурдир, «Шамоилу Набавия», «Илалу муфрад», «Илалу фий охири жомий», «Китобу зуҳд», «Китобу тарих», «Асмоу саҳоба», «Асмо ва куна», «Китобу фий асари мавкуфа».

“Жомеъ ат-Термизий” асари Имом ат-Термизий раҳматуллоҳи алайҳнинг шоҳ асари ҳисобланади. Абу Али Мансур ибн Абдуллоҳ Холидий имом Термизийнинг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобларини сифатлаб: “Кимнинг уйида мана шу китоб бўлса, гўё унинг уйида Набийимиз гапираётгандек бўладилар”, деб айтганлар.<sup>12</sup>

Имом ат-Термизийнинг “Жомеъ ат-Термизий” асари “Сихоҳи Ситта”-(саҳиҳ ҳадисларнинг олти тўплами) қаторида учинчи китоб ҳисобланади. Бу асар “Жомеъ ат-Термизий” (Термизийнинг тўплами), “Сунан ат-Термизий” (Термизий тўплаган суннатлар), “Саҳиҳ ат-Термизий” (Термизийнинг саҳиҳ ҳадислари) ва “Жомеъ ас-саҳиҳ” (Суннатлар тўплами), “Ал-Жомеъ ас-Саҳиҳ” (Саҳиҳ тўплам), “Ал-Жомеъ ал-кабир” (Катта тўплам) деган номлар билан ҳам учрайди.

Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳ асарни 270 ҳижрий йили Қурбон ҳайити куни ёзиб тугатганлар. Бу мелодий 884 йилнинг 9-июнига тўғри келади.<sup>13</sup>

“Жомеъ ас-Сунан” да 3956 та ҳадис келтирилган. Улар 47 та “китоб” деб аталган катта бўлимларга ажратилган. Асар тахминан 2228 та бобга бўлинган.

Имом ат-Термизий роҳимахуллоҳнинг мазкур шоҳ асари бир неча жиҳатлари билан бошқа ҳадис тўпламларидан ажралиб туради:

Биринчидан, “Жомеъ ас-суна” асари фикҳий китоблар бобларига кўра тартиб берилган. Зеро, ҳадис китоблари фикҳ бобларига мувофиқ қилиб ёзилса, уни “ас-Сунан” (Суннатлар) деб аташган. Шунинг учун мазкур асар “Таҳорат” (Поклик) мавзуси билан бошланади.

Иккинчидан, бу асарда Имом ат-Термизийнинг устози Имом Бухорий раҳимахуллоҳ қўллаган услуб- “Жомеъ” йўналишига хос хусусиятлар ҳам мавжуд. “Жомеъ” асарларда илм, одоб-ахлоқ, муайян оятларнинг тафсирлари, ислом ақидаси, дуолар каби турли мавзуларга оид ҳадислар жамланган бўлиши керак. Имом

<sup>12</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мусталаҳул ҳадис. Sharq, 2011.- Б.78

<sup>13</sup> Ақром Зиё ал-Умарий. Турс ат-Термизий ал-илмий.- Мадина: Мактабат ад-Дор, 1991. – Б.15.

Термизийнинг бу асарида, бу қоидага ҳам мукамал тарзда риоя қилинган. Бу асар ўзида “сунан” лик ва “жомеъ”лик хусусиятларининг қамраб олингани боис, уни “Жомеъ ат-Термизий” ва “Сунан ат-Термизий” деб ҳам номланади. Бу эса бошқа ҳадис китобларидан ўзига хослик билан ажралиб туришига сабаб бўлади.

Учинчидан, “Жомеъ ас-сунаннинг иккинчи фазилати шундаки, унда мазҳаб жиҳатлари ҳисобга олинган, ҳар бир ҳадиснинг фикҳий масалаларга тегишли томонларига алоҳида тўхталиб, мазҳаб имомларининг фикр-қарашлари қайд этиб борилган. Имом Аъзам Абу Ҳанифанинг мазҳаби фатволари “Куфа аҳли”нинг фикри ёки Иброҳим ан-Нахабий, Суфён Саврий, Абдуллоҳ ибн ал-Муборак каби шу мазҳаб олимларининг қарашлари сифатида қайд қилиб борилган. Бу ҳадисларнинг фикҳий мазҳаблардаги ўрнини ўрганишда катта аҳамият касб этади. “Жомеъ ат-Термизий”нинг бу жиҳати ҳам бошқа ҳадис тўпламларида учрамайди.<sup>14</sup>

Айтиб кетиш ўринлики, Туркия, Покистон, Ҳиндистон мадрасаларида ва ислом ўқув даргоҳларида ана шу жиҳати эътиборидан ҳадис тўпламларидан энг аввало талабаларга Имом ат-Термизийнинг “Жомеъ ат-Термизий” асари ўқитиб келинади.

Муаллиф ишора қилган ҳадислар аниқланиб, тадқиқ қилиниб, алоҳида илмий изланишлар олиб борилган. Жумладан, яманлик тадқиқотчи Ҳасан ал-Воилий томонидан “Нузҳат ал-албоб фий қовл ат-Термизий “ва фил баб” (ат-Термизийнинг “бу бобда...” деган сўзи борасида ақл эгаларининг қувончи) номли олти жилдлик тадқиқот яратилган. Мазкур тадқиқот 2005 йилда Саудия Арабистонида нашр этилган.

“Жомеъ ат-Термизий”нинг яна бир фойдали жиҳати унда ҳадисшуносликда илк бор янги атама ва истилоҳлар қўлланганидир. Имом ат-Термизий раҳимахуллоҳ айрим ҳадисларни “ҳасан саҳиҳ” ёки “ҳасан ғариб” деб ёки “саҳиҳ ғариб” ёхуд “ҳасан саҳиҳ ғариб” деб атаганлар. Лекин бу бирикмаларни таърифламаганлар. Бу ҳол тадқиқотчиларни айна шунга ўхшаш истилоҳларни тушунтиришга янгидан-янги фикрларни юзага чиқаришга илҳомлантириб келади. Жумладан, биргина “ҳасан-ғариб” атамаси бўйича Абдулборий Ансорий томонидан Мадина Ислом университетиде “Имом ат-Термизийнинг “Жомеъ” сидаги ҳасан ғариб ҳадислар” номли докторлик диссертацияси ҳимоя қилинган.

Абу Исо ат-Термизийнинг бошқа бир муҳим асари "Аш-Шамоил ан-набавийя" ("Пайғамбарнинг алоҳида фазилатлари") деб аталади. Бу асар баъзи манбаларда "Аш-Шамоил фи шамоил ан-набий саллолоху алайҳи васаллам", "Аш-Шамоил Муҳаммадия" номлари билан ҳам келтирилган. Асар Пайғамбар алайҳиссаломнинг шахсий ҳаётлари, у зотнинг суврат ва сийратлари, ажойиб фазилат ва одатларига оид тўрт юзу саккиз ҳадиси шарифни ўзига жамлаган қимматли манбадир. Бу ўринда шуни таъкидлаш керакки, ушбу мавзу яъни Пайғамбар алайҳиссаломнинг фазилатлари, одатлари ҳақидаги ҳадисларни тўплаш билан жуда кўп олимлар,

<sup>14</sup> Термизий, Абу Исо Муҳаммад ибн Исо. Жомеъ ас-сунан. (Сайланма). (Матн) Абу Исо Муҳаммад ибн Исо ат-Термизий, таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Аминов, М. Исмоилов, Б. Абдуллаев. Тошкент: Мовароуннахр, 2018. -Б.16

муҳаддислар шуғулланганлар ва бу хилдаги ҳадислар турли-туман китоблардан ўрин олган. Лекин ат-Термизий асарининг бошқалардан афзаллиги ва қиммати шундаки, муаллиф имкони борича Пайғамбар алайҳиссалом фазилатларига доир барча ҳадисларни мунтазам равишда тўплаб, мантиқан изчил бир ҳолатда тартибга келтирган ва ўзига хос мустақил, яхлит китоб шаклида тасниф қилган.

"Аш-шамоил ан-набавийа" азалдан исломшунос олимлар ва тадқиқотчиларнинг диққатини ўзига жалб қилиб келади. Араб тилида битилган ушбу асарга бир қанча шарҳлар ва хошиялар ҳам ёзилган. Улардан Абдурауф ал-Муновий ал-Мисрийнинг (вафоти 1003 ҳижрий йили) "Шарҳ уш-Шамоил", Али ибн Султон ал-Ҳаравий ал-Қорийнинг (вафоти 119 ҳижрий йили) "Жамъ ул-васоил фи шарҳи аш-Шамоил", Сулаймон ибн Умар ибн Мансур ал-Жумалнинг "Ал-Мавоҳиб ал-Муҳаммадия бишарҳ аш-шамоил ат-Термизия") бу асарнинг бир қўлёзмаси Қоҳирадаги ал-Азҳар кутубхонасида 144 (ҳадис илми) рақами остида сақланмоқда, Муҳаммад ибн Жасус ал-Моликийнинг (вафоти 1182 ҳижрий йили) "Ал-Фавоид ал-жалийла ал-бахийа ала "Аш-Шамоил ал-Муҳаммадийа" (бу асар 1927 йилда нашр қилинган) ва ниҳоят ал-Азҳарнинг собиқ шайхи Иброҳим ал-Божурийнинг (вафоти 1277 ҳижрий йили), "ал-Мавоҳиб ал-Ладуния ала аш-Шамоил ат-Термизия" каби шарҳларни кўрсатиш мумкин.

Ат-Термизийнинг ушбу асарига шарҳ ёзган шайх Иброҳим ал-Божурий: "Имом ат-Термизийнинг "Аш-шамоил ан-набавийа" китоблари ўз бобида яккаю-ягона асардир. Тартиби ва ўз ичига олган мавзулари жиҳатидан ягона бўлиб, нодир китоблар жумласидан ҳисобланур. Унинг овозаси Мағрибу Машрикқа бориб етди",- деб таъкидлайди. Олдинроқ эслатиб ўтганимиздек, асарнинг ҳозир Саудия Арабистонида истиқомат қилувчи ватандошимиз Саййид Маҳмуд Тарозий томонидан бажарилган она тилимизга қилинган мухтасар таржимаси 1990 йили имом ат-Термизийнинг 1200 йиллик юбилейи муносабати билан Тошкентда қайтадан нашр қилиндики, бу ҳол буюк муҳаддиснинг қимматли асарини ўрганишда катта аҳамият касб этиши шубҳасиздир.

Имом ат-Термизийнинг бизгача етиб келган "Ал-Илал фил-ҳадис ("Ҳадислардаги иллатлар ёки нуқсонлар") номли муҳим асари ҳам бўлиб, бу асосан икки мустақил асардан ташкил топган. Улардан бири "Ал-илал ал-Кабир" ёки "Ал-муфрад" номи билан аталиб баъзи олимларнинг фикрича ат-Термизийнинг бу асари бизгача етиб келмаган.

"Ал-Илал"нинг иккинчиси "Ал-Илал ас-сағир" деб аталиб, у муаллифнинг бош асари "Ал-Жомий ас-саҳих"га бевосита алоқадор бўлганлиги сабабли хотима тариқасида ушбу асарнинг охирида келтирилган. Умуман олганда арабча "илал" сўзи "иллат"нинг кўплиги бўлиб, ўзбекча касал, бетоб, хаста, ноқис, иллатли, оғиш каби луғавий маъноларни англатади. Кези келганда шуни таъкидлаш керакки, ҳадис илмида илал масаласи муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бу соҳа ҳадисларда ҳар хил сабабларга кўра ровийлар томонидан содир этилган заифлик, ноаниқлик, ғалат, хато, саҳву янглишларни тадқиқ қилишдек шарафли ва ўта масъулиятли вазифа билан шуғулланади. Кўпгина муҳаддисларнинг ҳадисларга бу жиҳатдан ҳам катта эътибор

бериб, асарлар яратгани бу илмнинг ислом таълимотида ғоятда фойдали ва муҳим аҳамият касб этганидан далолат беради. Иллатли ҳадислар хусусида имом ал-Бухорийнинг устози Али ибн Абдуллоҳ ал-Мадийний, имом Аҳмад ибн Ҳанбал, имом ал-Бухорий, имом Муслим, имом ат-Термизий, Абу Ҳотам ва бошқалар асарлар ёзганлар. Мана шу буюк муҳаддислар орасида ҳам имом ат-Термизийнинг илал тўғрисидаги асарлари ҳадисларнинг сиқаси (тўғрилиги, аниқлиги)ни текширишда муҳим аҳамият касб этади.

“Асмо ас-саҳоба” номли асарни Имом ат-Термизий раҳимаҳуллоҳга нисбат қилинади. Уни Ибн Ҳажар ал-Асқалоний раҳимаҳуллоҳ “Таҳзиб ат-таҳзиб”да эслаб ўтганлар.

Ибн ан-Надим раҳимаҳуллоҳ “Фехрист” асарларида Имом ат-Термизий раҳимаҳуллоҳнинг “Тарих” номли асари бўлганлигини зикр қилганлар. Умуман, тадқиқотчилар “Китоб ат-тафсир”, “Китоб аз-зуҳд”, “Китоб ал-асмо ва-л-куна”, “Рисола фи-л-хилоф ва-л-жадал”, “Китоб ал-Журҳ ва-т-таъдил” ва “ар-Рубоъийёт фи-л-ҳадис” номли асарларни ҳам Имом ат-Термизий раҳимаҳуллоҳга нисбат қиладилар.<sup>15</sup>

---

<sup>15</sup> Термизий, Абу Исо Муҳаммад ибн Исо. Жомеъ ас-сунан. (Сайланма). (Матн) Абу Исо Муҳаммад ибн Исо ат-Термизий, таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ. Аминов, М. Исмоилов, Б. Абдуллаев. Тошкент: Мовароуннаҳр, 2018. -Б.18



**ТЕПАҚЎРҒОН ЁДГОРЛИГИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ  
МУЛОҲАЗАЛАР****Нуридинов.Т.***ҚДПИ Тарих кафедраси катта ўқитувчиси.***Содиқов Х.***ҚДПИ Тарих факультети Тарих йўналиши биринчи курс талабаси.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада республикамизнинг қадимги шаҳарларидан бири бўлган Қўқон шаҳрининг археологик ёдгорлиги Тепақўрғоннинг ўрганилиши масаласи ёритилади.

**Калит сўзлар:** Қўқон шаҳри, Тепақўрғон.

Ўзбекистон мустақилликка эришгандан кейинги ўтган давр мобайнида ўзлигимизни англаш, тарихимизни ўрганиш ва уни ҳаққоний ёритишга катта эътибор берилмоқда. Республикамиз кўҳна шаҳарларининг тарихини ўрганиш ва юртимизнинг бой тарихини дунёга танитиш ишлари кенг кўламда амалга оширилмоқда. Қўқон шаҳри тарихини шу жумладан, археологик ёдгорликларини ўрганиш ва уларни илмий муомалага киритиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Шаҳарнинг ёшини аниқлаш бўйича бир қатор фаразлар илгари сурилганлигига қарамасдан, мазкур масала ўзининг илмий ечимини топгани йўқ. Бу масалани ечишда археологик тадқиқотлар натижалари муҳим аҳамият касб этади.

Бундан ўн йил олдин Қўқон шаҳри ва унинг атрофида мавжуд бўлган ёдгорликларда археологик тадқиқотлар изланишлар уч йўналишда йўлга қўйилди. Шаҳарнинг ёшини аниқлаш мақсадида бир гуруҳ археологлар Қўқон шаҳрида жойлашган Тепақўрғон ёдгорлигида кенг кўламда қазилар ишларини ўтказди.

Қўқон шаҳрининг моддий маданияти тарихида Тепақўрғон ёдгорлиги алоҳида ўрин тутди. Тепақўрғон ёдгорлиги археологик жихатдан ўрганилди ва натижада бу жойдан илк ўрта асрлар (V-VII асрлар)га оид деворлар ва уларга туташ хоналар, йўлаклар очилди. Кейинги қазилар давомида деворларнинг тузилиши тўлиқ ўрганилиб, улар қадимги бинокорлар томонидан маҳаллий ҳудуднинг ўзига хос иқлим шароитларини ҳамда сейсмологик ҳолатни ҳисобга олган ҳолда бунёд этилганлиги маълум бўлди. Ушбу деворларнинг пойдевор қисми 20 сантиметрлик пиширилган лой билан қотирилган ва унинг орасига деворнинг узунаси бўйлаб, ҳар 23 сантиметр ораликда ёғоч қўйилган. Бу ҳолат деворларни бир-бирига янада мустаҳкам боғлаш ва уларнинг зилзилаларга чидамлилигини кучайтириш мақсадида амалга оширилган.

Кейинчалик Тепақўрғонда амалга оширилган қазилар 150 м<sup>2</sup> майдонни қамраб олди. Қазилар ишлари ер сатҳидан 9,5 метр чуқурликка олиб борилди ва қатор қизиқарли маълумотлар қўлга киритилди. Хусусан, юқорида қайд этилган деворлар ва хоналар тагидан янада қадимий даврларга, аниқроғи эрамининг бошларига I аср оид хоналар, маиший ўчоқлар ҳамда сопол пишириш

хумдонларининг қолдиқлари топилди. Худди шундай хоналардан бири ер сатхидан 7 метр чуқурликда қайд этилиб, хона деворлари хом ғишт ва лойдан бунёд этилган. Ушбу хонанинг поли ҳам лой билан сувалган бўлиб, унинг марказида тухумсимон шаклдаги ўчоқ жойлашган. Хонанинг ичкарасидан эрамизнинг бошларига оид юзасига қизил ранг берилган, турли хил маиший сопол идишлар, қозон синиқлари, хумлар ҳамда хонаки ҳайвонларнинг суяк қолдиқлари топилди. Қўлга киритилган сопол идишлар қолдиқлари ўзининг бежирим нақшинкорлиги ва нафислиги билан ажралиб туради. Асосан, кулолчилик чархида ясалган бундай идишлар ишланиш техникаси ва типологик хусусиятларига кўра, шаҳарлик уста-хунармандлар томонидан ишланганлиги кўзга ташланади. Бундан ташқари, қадимги шаҳар маданияти хунармандчилигига хос темир ва мисдан ишланган буюмлар, урчуқлар ҳамда тегирмон тошларининг қолдиқлари ҳам топилди.

Сўнги қазилма ишлари Тепакўрғон ёдгорлигининг шимолий-ғарбий томонида, шартли равишда “арки-аъло” деб номланган қисмида олиб борилди. Бу ердан мудофаа деворининг қолдиқлари аниқланди. Ушбу девор маҳаллий рельефдан келиб чиқиб қурилган бўлиб, унинг бурилиш қисмида диаметри 3,5 метрга етадиган пахса бурж ёрдамида мустаҳкамланганлиги аниқланди.

Хулосаларга кўра, милодий эра бошларида урбанизациялашган қароргоҳ негизида, ҳозирги Тепакўрғон ёдгорлиги ўрнида қадимги шаҳар шаклланган бўлиб, у узлуксиз равишда илк ўрта асрларга қадар ривожланиб келган. Кейинчалик, араблар босқини арафасида шаҳар Тепакўрғондан бошқа жойга кўчганлиги кузатилади. Археологик тадқиқот натижалари Фарғона водийсида, хусусан, Қўқон ҳудудида шаҳарсозлик маданиятининг ривожланиш жараёнларининг асосий жиҳатларини кўрсатиб беради деб ҳисоблаш мумкин. Араблар босқинидан кейинги даврда ижтимоий-сиёсий ҳаётда катта ўзгаришлар рўй берди. Натижада шаҳарнинг маъмурий бошқарув идоралари бошқа ҳудудга кўчирилган бўлиши мумкин. Фикримизча, мазкур ҳудудлардан бири ҳозирги Фурқат туманида жойлашган Қилич пирихон ота манзилгоҳи бўлиши мумкин. Ушбу манзилгоҳнинг вужудга келиши пайғамбар авлодларига бориб тақалади. Тепалик ҳозирги кунда қабристон вазифасини бажармоқда. Унинг баландлиги бир неча ўн метрлигини ҳисобга оладиган бўлсак, ушбу ёдгорлик ўз қаърида бир неча маданий қатламларни сақлаб қолган бўлиши мумкин. Тепаликни археологик жиҳатдан тадқиқ қилиниши ўрта асрлар Қўқон ва унинг атрофи тарихига кўплаб маълумотларни қўлга киритиш имконини берган бўларди. Ривожланган ўрта асрлар даврида минтақанинг маъмурий маркази ҳозирги Қўқон ҳудудига шаҳрига кўчган бўлиши мумкинлиги ҳақида тарихий манбалар, биринчи навбатда араб сайёҳларининг маълумотлари асосида хулоса чиқаришимиз мумкин. Мазкур даврда марказлашган давлатларнинг тараққий этиши натижасида бутун Ўрта Осиёда бўлгани каби Фарғона водийсида ҳам ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт ривожланди. Бу эса ўз навбатида ҳудудда шаҳар маданиятининг ривожланишига олиб келди. Шу даврда ҳозирги Қўқон ҳудуди йирик сиёсий, иқтисодий маданий марказлардан бирига айланган эди, деб хулоса чиқариш имконини беради.

# SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT

## MUSIQA TA'LIMI MUASSASALARI O'QUVCHILARINING MADANIY SALOHIYATI RIVOJLANISHIDA DOSTONCHILIK VA BAXSHICHILIK SAN'ATINING O'RNI.

**Fotima Salixova**

*Toshkent madaniyat va san'at kolleji o'qituvchisi*

Doston o'zbek xalqining qadimgi ma'naviy- madaniy va badiiy merosidir. Doston o'zbek mumtoz musiqasining yirik epik janri bo'lib, o'ziga xos ijro uslublari, ichki qonuniyatlari bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. Dunyodagi ayrim xalqlarida o'zining boy tarixiy katta xajmli sarguzashtlarini hikoya qilish, maqtash "doston" manosi anglatadi.

Doston juda katta va murakkab noyob xazina bo'lib, uning yaratilish va sayqal topishida ajdodlarning juda katta mehnati kqtidori sarf bo'lgan. O'zbek dostonlari qahramonlik, tarixiy, romantik va diniy mavzudagi guruhlariga bo'linib o'rganiladi. Bu esa yosh avlod ongida vatanga bo'lgan mehr, tarixga bo'lgan qiziqishning ortishini ta'minlaydi. Misol tariqasida "Alpomish" dostonini oladigam bo'lsak, sexrli kuchga, kuchli matonatga ega qahramonning jasorati hammaga o'rnak bo'la oladi. Sbu qatorda "Rustamxon", "Go'ro'g'li" dostonlari ham qahramonlik dostonlari uchun yorqin misol bo'la oladi.

Tarixiy dostonlar esa Markaziy Osiyo xalqlarining boshidan o'tkazgan mashaqqatlari, tarixiy voqea hamda tarixiy shaxlarning faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lishimizda asosdir. Dostonchilik san'atida og'zaki epos asarlaridan tashqari mashhur yozuvchilarning asarlari ham ijro etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy hazratlarining "Xayratul abror", "Farxod va Shirin" va "Layli va Majnun" asarlarini keltirish mumkin.

Bunday misollar yosh o'quvchilarning bilimini oshirib, tarixiy va madaniy salohiyatini boyitishda xizmat qiladi. Dostonchilik va baxshichilik san'ati ijrochilari baxshi shoir va yuzboshi deb yuritiladi. Umuman o'zbek dostonchilik san'ati haqida ma'lumot oladigam bo'lsak, Surxondaryo-Qashqadaryo, Samarqand - Buxoro va Xorazm dostonchilik san'ati musiqiy uslublari inobatga olish darkor. Har bir hududning uslubi ijro shakli turlichadir. Dostonlar aslida hajmi jihatidan chegaralanmaydi, ularni soatlab, kunlab, hatto, haftalab ham ijro etish mumkin. Xalq dostonlari ustoz-shogird an'analariga muvofiq olib boriladi va organiladi. Mashhur doston ijrochilari va baxshilar Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'lidek ijodkorlarning katta merosi mavjud. Ular baxshichilik an'analariga ulkan hissa qo'shib, o'zining takrorlanmas maktabini bunyod qilgan. Bu esa hozirgi kun mazkur san'at davomchilariga mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

O'zbek dostonchilik san'ati rivoj tolishida yoshlar ma'naviyatiga meros sifatida abadiy joy egallashida mamlakatimizda ko'plab ko'rik tanlovlar, festivallar va konferensiyalar tashkillashtirilgan. Shu jumladan, har ikki yilda xalqaro miqyosda Termiz shahrida o'tkaziladigan ko'rik tamlov so'zimiz isboti bo'la oladi.

Dostonchilik baxshichilik san'atining kelajak avlod hayotida ma'lum darajada o'quvchilar ma'naviyatiga ijobiy ta'sir qilishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining maxsus qarori ham tasdiqlangan. Unga muvofiq baxshichilik-dostonchilik san'ati yanada rivojlanishi baxshi shoirlar ijodining o'zbek madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, o'quv uslubiy adabiyotlar yaratish baxshichilik doatonchilik san'atini ommaviy axborotvositalari, internet tarmoqladi orqali keng ommaga havola etish, yosh baxshilar doston inrochilari faoliyatini moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash haqidagi masalalar oldinga surilgan. Shu bilan birga bolalar musiqa va san'at maktablari va o'quv muassasalarda baxshichilik dostonchilik yo'nalishi bo'yicha mazsus o'quv sinflarini o'quv dasturlariga kiritish hamda darsliklar tashkillashtirish masalalari muhokama qilinmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, dostonchilik baxshichilik san'ati azaliy merosimiz namunasidir, ushbu san'at haqida o'zbek avlodlari albatta ma'lumotga ega bo'lishi, kelajakda ushbu noyob san'at davomchilariga aylanishi, mazkur san'at rivojiga o'zining hissasini qo'shishi o'zbek madaniyatining yanada takomillashib, rivoj topishida bebaho omil hisoblanishiga shubha yo'q.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.R.S. Abdullayev "O'zbek mumtoz musiqasi" T.2005
2. N.Salomonova "O'zbek musiqa tarixi"
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining rasmiy veb sayti

**JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYANI TARKIB TOPTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA****Kenjayev Azizbek Murodullo o'g'li***Navoiy viloyati Karmana tumani**1-maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

**Annatsiya:** *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyani tarkib toptirishning pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.*

**Kalitso'zlar:** *Jismoniy tarbiya, shaxs kamolati, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, ahloqiy, jismoniy va estetik tarbiya.*

Jismoniy tarbiya – inson hayotining boshidan oxirigacha davom etadigan, organizmni har tomonlama takomillashtiradigan, hayot uchun muhim bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarini yosh davrlariga mos holda o'zgartirib boradigan pedagogik jarayondir.

Pedagogika fanida ta'lim va tarbiya tushunchalari o'zaro bir-biri bilan aloqada bo'lgan, biri ikkinchisini to'ldirib boradigan inson faoliyatining turlari deb hisoblanadi.

Tarbiya ijtimoiy tajribani, insonlar tomonidan to'plangan ijobiy fazilatlarini yosh avlodga o'tkazish, singdirish jarayonidir.

Ta'lim esa insonning aqlini, moddiy borliq haqidagi ma'lumotlarni, jamiyat va tabiat taraqqiyotining qonuniyatlarini, ilm-fan yutuqlari va ularning amaliyotga tadbirini o'rganish jarayonidir.

Jismoniy tarbiya tushunchasiga berilgan ta'rifda ma'lum darajada tarbiyaning ta'lim bilan uzviy bog'liqligi e'tiborga olingan. Biz o'rgangan pedagogik va psixologik adabiyotlarda insonning shaxs sifatidagi kamolotida aqliy va axloqiy tarbiyaga kuchli ahamiyat berilganligi alohida ajralib turgani sezildi. Ammo nazarimizda jismoniy tarbiya ikkinchi darajada turgandek his qilingan bo'lsada, jismoniy tarbiyasiz, aniqrog'i jismoniy tarbiyaning ta'sirisiz, na aqliy va na axloqiy tarbiya mukammal bo'lmasligi e'tirof etilgan.

Jismoniy tarbiya inson organizmini morfologik va funksional jihatlardan takomillashtiradi. Bu degani, tanadagi barcha a'zolari normal rivojlanishi, jumladan bosh miya va oliy nerv sistemasini to'g'ri shakllanishi hamda faoliyat yuritishini ma'lum normaga solishi deb tushunish mumkin.

Bosh miya, oliy nerv sistemasi, qon aylanish tizimlari aqliy va boshqa tarbiya yo'nalishlarining nerv-fiziologik asoslari bo'lishi mumkinligini e'tirof etganda, beixtiyor jismoniy tarbiya insonni komillikka olib boruvchi asosiy tarbiya turi ekanligi tan olinadi.

Jismoniy tarbiya organizmni mukammal rivojlanishini yo'lga qo'yishi bilan birga, tananing sog'lom bo'lishini, har qanday tashqi yuklamaga chidamliligini ham ta'minlaydi. Insondagi irodaviy sifatlar jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganda bir necha baravar ustun bo'lishi olimlar tomonidan isbotlangan.

Jismoniy tarbiya kuch, chaqqonlik, tezkorlik kabi inson uchun hayot yo'lida doimiy kerak bo'ladigan sifatlarni tarkib toptiradi. Bu o'z navbatida mehnat faoliyatini samarali

bo'lishiga hissa qo'shadi. Har qanday boshlagan ishni oxiriga yetkazish, kutilgan natijalarni qo'lga kiritish ko'nikmalari tezroq tarkib topadi.

Jismoniy tarbiya kishilarda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Vatan manfaatlarini himoya qilish, zarur bo'lsa nafaqat kuchini, balki hayotini bag'ishlashga odatlantiradi.

Jismoniy tarbiya ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan hodisadir. U insonning sihat-salomatligini yaxshilaydi, har taraflama rivojlanishini amalga oshiradi. O'zi, millati va xalqi uchun unumli mehnat qilishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin faoliyat yuritishga, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga o'rgatadi. Vatanning shonu-shuhratini dunyoga yoyishga, zarur bo'lsa har qanday g'arazli kuchlardan ehtiyot qilishga, mardonavor himoya qilishga tayyorlaydi.

Qadim zamonlardan beri jismoniy tarbiyaning inson hayotidagi beqiyos o'rni to'g'ri tushunilgan holda, uni qanday qilib samarali bo'lishini ilmiy-pedagogik muammo sifatida o'rganib kelinadi.

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk alommalarimiz jismoniy tarbiya va shaxs kamoloti haqida qimmatli fikrlar bildirganlar.

Ayniqsa Abu Ali ibn Sino inson salomatligini saqlash, tibbiy yordam ko'rsatish haqidagi ta'limotlarini yaratganlarida birinchi o'ringa jismoniy tarbiyani qo'ygan. Uning fikricha xastalikni davolashdan ko'ra oldini olish afzal hisoblanadi. Buning uchun har bir kishi muntazam jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishi kerakligi uqdirilgan.

Abu Nasr Farobiy ham fozil odamlar yashaydigan shahar aholisi kuchli, chaqqon, mehnatsevar, uquvli va sog'lom bo'lishi kerakligini aytgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida ta'rif-tavsif etgan kishilarning ko'pchiligidagi jismoniy sifatlarga yuqori baho bergan. O'zi ham shoh, sarkarda, olim va shoir bo'lishi bilan birga jismoniy mashqlar va chiniqishni o'ta qadrlagan inson ekanligi bayon etilgan.

O'quvchilarni jismoniy tayyorgarlikga yo'llash ishlarida ularning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Pedagog olimlarning fikrlarini tahlil qilib, tadqiqotimizning eksperiment natijalariga tayangan holda biz maktabda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishga yo'naltirishda texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligining rivojlanishi o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy, mehnat, ahloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi birligi asosida ularni milliy mafkuramiz asosida tarbiyalashga majmuaviy yondoshish g'oyalarini amalga oshirishda yordam beradi degan xulosaga keldik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "Bolalar va o'smirlar jismoniy tarbiyasi" O'quv-uslubiy majmua T-2016
2. Internet manbalari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



**JISMONIY TARBIYA HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING MAQSAD,  
VAZIFALARI.****Joniqulov Isomiddin Zoirovich***Navoiy viloyati Xatirchi tumani 23-maktab**jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Jismoniy tarbiya - insonni jismoniy kamolotga erishishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Jismoniy madaniyat jarayonida aqliy, axloqiy, estetik tarbiya va mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya nazariyasi ijtimoiy, tabiiy va pedagogik fanlar bilan bog'liq.*

**Kalit so'zlar.** *Sport fiziologiyasi, sport psixologiyasi, jismoniy mashqlar biomexanikasi, sport turlari, Jismoniy tarbiya nazariyasi.*

Jismoniy tarbiya nazariyasi fan sifatida jismoniy tarbiya, sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash hamda maxsus bilim olishda asosiy fan hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uning mazmunini jismoniy tarbiya nazariyasining asoslari, o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi hamda sport mashg'ulotlari tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya har xil, ya'ni ijtimoiy va tabiiy fanlar tomonidan o'rganiladi. Jumladan, jismoniy tarbiya nazariyasi, sport fiziologiyasi, sport psixologiyasi, jismoniy mashqlar biomexanikasi hamda sport turlarining nazariyasi, uning metodikasi va h.k. Jismoniy tarbiya nazariyasi - inson barkamolligini boshqarishning umumiy qoidalarini, shuningdek, bu qonuniyatlar asosida o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi, metodlarini va ish maqsadlarini aniqlaydi. Jismoniy tarbiya nazariyasining mazmuni jismoniy kamol toptiradigan va Vatanga sadoqat, uning mudofaasiga tayyorlashdagi bilimlarni tashkil etadi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kursi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda maxsus kasb-hunar ta'limining ilmiy fundamentiga kirituvchi kengaytirilgan bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bu - inson jismoniy kamolotini boshqarishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fandır. Ushbu fanni egallash jismoniy tarbiyaning barcha bo'g'inlariga „ tegishli masalalarni hal qilishga to'g'ri yondashish imkonini beradi. Jismoniy kamolot - har tomonlama rivojlanishning va odamda harakat qilishga tayyor turishning tarixiy vujudga kelgan darajasi 7 bo'lib, ishlab chiqarish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sharoitga moslashish imkoniyatini, yuksak ish qobiliyatini va hayotiy muhim funksiyalarining normal o'sishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, har qanday tashqi muhit sharoitida jismoniy va aqliy ish qobiliyatini, katta masshtabdagi harakat ko'nikmalarini va tana shaklini garmonik rivojlantirishdan iborat. Jismoniy tarbiya fanining asosiy maqsadi, o'quvchilarning jismonan sog'lom, baquvvat bo'lishlari bilan birga Vatan mudofaasiga, hayotga va mehnatga tayyorlashdir. Bu maqsad mamlakatimizda kishilarning jismoniy tarbiyasini amalga oshiruvchi hamma muassasa va tashkilotlar uchun yagonadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlar asosida asosiy uchta vazifa hal etiladi. Jumladan, ta'limiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi. Jismoniy tarbiyaning o'ziga xos vazifalari shunday xususiyatlarga egaki, ular insonning harakat faoliyatiga oid tabiiy talablarni

qoniqtiradi. Shu asosda - jismoniy holat hamda sog'liqni mustahkamlash qonuniyatlariga mos ravishda organizmni rivojlantiradi va hayotga zarur bo'lgan jismoniy qobiliyatni ta'minlaydi. Jismoniy tarbiyaning o'ziga xos vazifalari mavjud. Ular quyidagicha farqlanadi: — ta'limiy maxsus vazifalar - umumiy o'rta ta'lim tizimida ko'nikma va malakalar bilan bog'liq bo'lgan bilimni muntazam shakllantirish; — amaliy maxsus vazifalar - amaliy tizimda mehnatga va kasbiy yo'nalishga; — sport vazifasi - yuqori natijalarni ko'rsatish, bor imkoniyatni ishlata bilishga; — reaktiv va sog' lomashtiruvchi, tiklovchi maxsus vazifalar - dam olishda jismoniy mashqlarni ishlata olish, tiklash maqsadida qo'llashga; : jismoniy madaniyatning jamiyatda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan umumiy-madaniy, tarbiyaviy va boshqa ijtimoiy vazifalari shaxsning jismoniy tayyorgarligini, sog'lig'ini qanoatlantirishga qaratilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. O 'zbekiston kelajagi buyuk davlat. - T.: "O'zbekiston", 1992.
2. Mahkamjonov K, SalamovR, Ikramov. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi". - T.: "Iqtisod-moliya", 200
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O'QITISH  
METODLARI.****Kurbanazarova O'g'iloy Bekpulatovna***(TerDu, "Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi" magsstranti)*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada chizmachilik darslarini tashkil qilish va o'qitish metodlari haqida bayon etilgan. Chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi. Maqolada shu haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Chizmachilik, metod, didaktik vositalar, ko'rgazmali qo'llanmalar, zamonaviy texnologiyalar.

Har qanday fanni o'qitish metodikasining asoslari uchta asosiy tarkibiy qismlar: konsepsiya, ta'limning metodik tizimi va ular ta'siri natijalarini baholashdan iborat.

Pedagogikada darslarning har xil *turlari* va o'qituvchining bilimlarni bayon qilishining turli shakllari tahlil qilib berilgan. Masalan, darslar quyidagi turlarga ajratilgan:

- yangi materialni o'rganish darsi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darsi;
- takrorlash-umumlashtirish darsi;
- aralash yoki kombinatsiyalashgan dars.

Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi - *aralash* yoki *kombinatsiyalashgan* darsdir. Bunda o'qituvchining mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan amaliy ishlarni bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu amaliy ishlar o'quvchilarga o'quv adabiyotlaridan foydalanib olingan bilimlarni mustahkamlashga hamda uy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

*Innovatsiya* - inglizcha so'z bo'lib, yangilik kiritish, yangilik ma'nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'quvchi va pedagog

faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. *Interaktiv metodlar* - bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu

metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinni foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi.

Chizmachilik darslari o'zining xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O'rganilgan ma'lumotlarning asosiy qismlari bo'yicha o'quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashiga to'g'ri keladi. Amalda o'quvchi chizmachilik fanini o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rganadi. Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha o'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin o'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqti chegaralangan. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo'llarini ko'rsatish, mavzuning qiyin joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun o'qituvchining darsni tashkil qilishiga ko'p narsa bog'liq.

Chizmachilik darslari maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetlarida o'tiladi.

O'qituvchining diqqat markazida hamisha o'quvchilarda amaliy grafik ish bajarish malakalarini shakllantirish asosiy vazifa ekanligi turishi kerak. Dars turi ham shundan kelib chiqib tanlanishi zarur.

Ta'lim metodlarini tanlashda albatta chizmachilik fanining xususiyatlarini e'tiborga olish kerak. Yangi mavzuni o'rganishda o'quvchilarga «Hammasi tushunarlimi?» yoki «Hamma tushundimi?» qabilidagi savollar bilan murojaat qilish yaramaydi, Chunki, kamdan kam odam o'zining tushunmasligini tan oladi. Shuning uchun «Ushbu kesimni hosil qiluvchi tekislik qanday vaziyatda joylashgan?», «Konus sirtidagi A nuqtaning gorizontaal proyeksiyasi qanday topiladi?», yoki «Pog'onali va siniq qirqimlar qanday hosil qilinadi» kabi aniq savollar bilan murojaat qilish kerak. Ayniqsa o'qituvchi doskada chizma bajarish jarayonida to'xtab, o'quvchilarga «Keyingi yasashlarni qanday bajaramiz?» yoki «Ushbu detal chizmasini bajarishda nechta ko'rinish zarur bo'ladi?» kabi savollarni tashlashi yaxshi samara beradi. Savolning bunday qo'yilishi o'quvchilarni bajarilayotgan ish yechimini topishning faol ishtirokchilariga aylantiradi va ularni o'ylanib, taxminlari ichidan eng to'g'rirog'ini tanlashga o'rgatadi.

Savollarni butun sinfga ham, yoki alohida o'quvchining o'ziga ham berish mumkin. Demak, o'qituvchi dars jarayonida o'zining darsni tushuntirishiga yoki hikoyasiga ortiqcha berilib ketmasligi kerak. O'qituvchi mashg'ulot davomida sinfdagi o'quvchilarning darsga munosabatlarini doimiy nazorat qilishi, o'quvchilar diqqatini jalb qilish qobiliyatini egallagan bo'lishi kerak.

Eng sodda klassifikatsiya bo'yicha dars mashg'ulotlari *og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga* bo'linadi. Chizmachilik darslarining og'zaki ko'rinishiga o'qituvchining ma'ruza-suhbat shaklidagi materialni bayon qilishi, sinf doskasida mavzuga tegishli chizmalarni

bajarishi hamda o'quvchilarning o'quv qo'llanmalari va ma'lumotnomalardan foydalanib mustaqil ishlarini ko'rsatish mumkin.

Dars davomida plakat, o'quv jadvallari, modellar, natural obyektlar, elektron versiyalar kabi o'quv ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish ko'rgazmali metodlarga kiradi. O'quvchilarning eskiz va chizmalarni, olingan bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan turli grafik mashqlarni mustaqil

o'qishlari va bajarishlari amaliy metodlarga kiradi.

Bu metodlarning hammasida ikki tomonlama jarayon: o'qituvchi-o'quvchi muloqoti yetakchi o'rinda turishi kerak. O'qituvchi ta'limning tashkilotchisi sifatida asosiy o'rinda turadi.

Chizmachilikdagi tushunchalarni murakkabligi, aniqlik darajasi yoki mavhumligi va boshqa sifatlari bo'yicha klassifikatsiyalab chiqilsa bu ayniqsa yosh o'qituvchilar uchun katta metodik yordam bo'lar edi. Chizmachilikdagi tushunchalarning ko'pchiligi buning ustiga proyeksiyalash jarayonida yoki chizmani o'qishda ishlatilishiga qarab ma'nosi birmuncha o'zgarib ishlatiladi. Ayrim tushunchalar ma'nosi o'zgarimasdan qo'llaniladi (masalan, kompleks chizmaning bog'lash chiziqlari). Boshqa tushunchalar tasvirdagi vazifasiga qarab ko'p ma'noda ishlatilishi mumkin (proyeksiyalar tekisligi, sirnmetriya tekisligi, kesuvchi tekislik, proyeksiyalovchi tekislik va h.).

Yuqorida chizmachilikda qo'llaniladigan geometrik tushunchalar haqida to'xtalib o'tildi. Proeksion tushunchalarni ham shu shaklda guruhlariga ajratib, tahlil qilib chiqish mumkin. Chizmachilik tushunchalarining ushbu ko'rinishdagi tahlil qilinishi o'quvchilarning ularni dars jarayonida ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. *I. Rahmonov va boshqalar.* "Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalar" metodik qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent 2012.
2. *I. Rahmonov va boshqalar.* "Chizmachilik". "Voriz-nashriyat". Toshkent 2016.

## TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI

**Qulmatova Ozoda Qarshiyevna.**

*Surxondaryo viloyati. Denov tumanidagi*

*81- umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari, o'qitish metodlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanining o'rni va maqsadlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tasviriy san'at, metod, metodika, umumiy metodika, xususiy metodika, amaliy metodika, o'qitish metodlari, namoyish etish, amaliy ish, umumiy o'rta ta'lim maktablari,*

Ma'lumki, milliy maktablarimizda tasviriy san'atni o'qitish ham umumiy ta'lim fanlari qatori yuqoridagi o'qituv uslublaridan foydalanib kelinmoqda. Bu uslublar yaxshi samara bermoqda.

SHunga ko'ra bugungi kunda tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti maktab tasviriy san'ati dasturi asosida uning maqsadi va vazifasini, mazmunini sistemali holda o'rganib, ularni o'qitishning eng samarali uslub va didaktik printsiplarini tanlab, umumlashtirib, bo'lajak rassom-pedagoglarga yetkazib beriladi.

Maktab tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti jahon pedagogikasi va psixologiyasi to'plagan tajribalarini o'zining ilmiy asosi qilib olgan xolda, ularni yig'ib, takomillashtirib kelayotgan ish tajribalaridan unumli foydalanib kelmoqda. SHu asosda o'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha bilim-malaka berishda o'quvchining yoshi, bilimi, iste'dodi, qiziqishini hisobga olgan holda o'quv jarayonini amalga oshirib kelmoqda.

O'qitish metodikasi deganda ta'lim va tarbiyaning maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l va uslublar yig'indisi tushuniladi. Mashg'ulotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish esa o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham bog'liq. SHu bilan birga qisqa va oddiy yo'llar bilan, oddiydan-murakkabga borish printsiplida ma'lum ketma-ketlikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq qilib aytganda, o'qitish metodikasi to'g'ri tanlanganda o'quvchilar ko'zda tutilgan o'quv materialini puxta o'zlashtiradilar va ularda o'zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo'ladi.

**Metodika** so'zining o'zi ikki xil bo'ladi: ular umumiy va xususiy metodika hisoblanadi.

**Umumiy metodika** maktabda olib boriladigan barcha ta'lim-tarbiya ishlariga, **xususiy metodika** esa u yoki bu o'quv predmetiga nisbatan qo'llaniladi. Metodika, ko'pincha pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik, estetika sohasidagi nazariy xulosalarga tayanib ish ko'radi.

**Ko'rgazmali metod** esa kuzatish, namoyish etish kabilardan, amaliy ish esa mashq, rasm ishlash, ijodiy ish, o'yin kabi metodlarga bo'linadi.



O'qituvchilar faoliyatida **“uslub”** degan so'z ham ishlatiladi. **“O'qitish uslubi”** deb biz o'qitish metodlarining ayrim qirralarini tushunamiz. “O'qitish uslublaridan” o'qitish metodi tashkil topadi.

Masalan, **“namoyish etish”** metodi asosida o'qituvchi mashg'ulot o'tkazganda, u ekranga san'at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushiradi. Bu jarayonda o'qituvchi suratdagi biron shaklni yirik qilib ko'rsatishi usul hisoblanadi. SHu o'rinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol-javob o'tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O'qituvchi o'qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u rangshunoslik, perspektiva, yorug'soya, kompozitsiya qonunlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. SHuni qisobga olish lozimki, tasviriy san'atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o'rgatganda yoki tasviriy san'atning u yoki bu faoliyat turini o'qitganda o'qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O'qitish metodikasining tarixi juda uzoqlarga ya'ni kishilar qachon bir-birlariga rasm chizishni o'rgata boshlagan paytlariga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib borgan, davr o'tishi bilan o'qituvchilar, olimlar uning yangidan-yangi qirralarini ochganlar va u mutaxassislar orasida tarqalgan.

SHuni ham qayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bo'lsa-da, uni bir o'qituvchi, ikkinchi o'qituvchidan o'rganib, shundayligicha qo'llayvermaydi. Uni har bir o'qituvchi o'z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olishi lozim. SHunga ko'ra boshqa o'qituvchi qo'llayotgan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o'qituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi ham mumkin.

Mutaxassislar orasida tasviriy san'atni o'qitish metodlariga turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh mutaxassislar o'qitish metodlari yagona tizim, yagona talablarga javob berishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikrlariga qaraganda, har bir metod jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bo'lgan, uni o'zgartirmasdan shundayligicha qo'llash lozim. Ta'lim-tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi, u doimo taraqqiy etadi. Bunda o'qituvchining tajribasi albatta, katta rol o'ynaydi. SHunday ekan, pedagogik amaliyotda sinfdagi shart-sharoitlarni hisobga olib, shakllangan metodika asosida ham, o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalanaverish lozim.

O'qituvchi o'qitish metodikasini ish jarayonida o'z-o'zidan egallayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o'tkazish, ko'p adabiyotlar o'qishi, ilg'or tajribalarni o'rganish hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarishi asosida paydo bo'ladi. SHuningdek, u jamiyat taraqqiyoti davrida shakllangan o'qitish metodlarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etishi va uni zamon ruhiga moslashtirgan holda qayta ishlashi asosida namoyon bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: SHarq, 1997.

2. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent: SHarq, 1999.

**GRAFIK FAOLIYATDA O'QUVCHILARNING FAZOVIY  
TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH.****Ro'ziyeva Sevara Ergash qizi***(TerDu, "Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi" magestranti)*

**Anatatsiya:** *Maqolada grafik faoliyatda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish haqida bayon etilgan. O'qitish jarayonida o'quvchining fazoviy tasavvurini o'stiruvchi biror vositadan foydalanish bu har bir pedagogning vazifasidir. Buni yoddan chiqarmaslik kerak. O'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda mashqlardan to'g'ri foydalanishalbatta ijobiy samara beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Grafik faoliyat, metod, zamonaviy texnologiyalar, fazoviy tasavvur, idrok.*

Fazoviy obrazlarga tayanib ish ko'rish va u asosda turli o'quv-ishlab chiqarish vazifalarini bajarish inson amliy faoliyatining muhim xususiyatidir.

O'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish va u bilan bog'liq bo'lgan malakani oshirish grafik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismidir. Zero, hech bir o'quv fani fazoviy tasavvur va fazoviy farazni chizmachilikday rivojlantirolmaydi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda fazoviy tasavvur, fazoviy faraz, fazoviy tushuncha, fazoviy tafakkur kabi so'zlarni ko'p uchratish mumkin.

Ammo bu so'zlar mazmuniga ko'ra har xil mohiyat kasb etadi, chunki tasavvur tafakkurdan, ko'rish esa tushunchadan keskin farq qiladi. Chizmachilik darslarida bu atamalarni qo'llashda proeksiyani qurish bilan narsaning fazoviy qiyofasini tasavvur etishni tushunamiz. Buyumlar va ularning fazoviy munosabat va xususiyatlarini anglatish bilan bog'liq bo'lgan bu tushunchalar o'quvchilarda tasodifan sodir bo'lmay, balki grafik savodni o'rgatish jarayonida chizmachilik o'qituvchilarining yordami bilan hosil bo'ladi.

Ko'pgina detallarning shakli geometrik jismlarning yig'indisidan yoki ularning ayirmasidan tuzilganligi uchun ularni geometrik tushunchalar bilan aniqlanishi bejiz emas.

O'quvchi buyumning shakli haqida aniq bir fikrga kelishi uchun geometrik jismlar va ularning o'zaro bog'lanishlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Tasavvurning o'zi nima? Psixologik adabiyotlarda tasavvur deb qachonlardir biz qabul qilgan va sezgan hodisalar va narsalarning obrazlari haqidagi bizning ongimizda qayta tiklangan hissiy qiyofalar tushuniladi.

Tasavvur sezgi va idrok bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda ulardan farq qilib, ancha umumlashgan xarakterga egadir.

Ayniqsa, o'quvchilarni grafik tayyorgarligida fazoviy tasavvur bilan bir qatorda fazoviy xayol qila olish xususiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud tasavvurlarimizga asoslanib avval idrok qilingan narsa va hodisalarning qiyofalarini yaratishdan iborat bo'lgan ongimiz faoliyatini xayol deb aytamiz. Inson amaliy faoliyatidagi spetsifik vazifalariga ko'ra hayolni har xil mazmunda izohlash mumkin.

Masalan, grafik faoliyatda narsalarning munosabat va xususiyatlarini fazoda aks ettirish bilan bog'liq jarayonda fazoviy xayol qatnashadi. Shuning uchun ham grafik tasvirlash faoliyatining turli sohalariga xos bo'lgan malakalarni tarkib toptirish hamda rivojlantirishda fazoviy xayolning ahamiyati kattadir. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, fazoviy metrik masalalarni echish bilan bog'liq grafik faoliyatda fazoviy xayol bilan fazoviy tasavvur birgalikda ishtirok etadi.

Yaqin vaqtlarga qadar chizmachilik o'qitish jarayonida rivojlanib boruvchi fazoviy tasavvurni buyumning hajmiy fazoviy belgisi deb hisoblanar edi. Hozir esa narsalarni chizmada tasvirlashda belgili modellardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Bu usullar ilgari amal qilingan qoidalarga jiddiy tuzatishlar kiritishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, bunday o'zgarishlar shartli belgilarda o'z ifodasini topmoqda.

Agar o'quvchi proeksion chizma bilan ish ko'radigan bo'lsa (chizmani o'qish jarayonida), narsani ayrim geometrik jismlarga ajratib, ularning munosabatlari, o'zaro bog'lanishlarini tekshirish natijasida uning ongida narsaning hajmi namoyon bo'ladi.

Psixologik tushuncha deganda ongimizning shunday faoliyati tushuniladiki, bu jarayonda fikrimizni o'zgartiramiz, jamlaymyz va ilgari bizda bo'lmagan yangi fikrga kelamiz. O'quvchi narsaning qiyofasini ko'z oldiga keltirishi uchun undagi geometrik jismlarni tasavvur qila olishi muhim rol o'ynaydi. Chizmadagi hamma proeksiyalarni sintez qilish natijasida detalning fazoviy obrazi hosil bo'ladi. Detalning ayrim elementlarini alohida tasavvur qilish bilan fikran uning butun bir qiyofasi gavdalanadi. Demak, proeksiyani muhokama qilayotganda analiz sintez bilan almashadi. O'quvchi detalning obrazini ko'z oldiga keltirayotganida xayolan proeksiyaga moslab, u yoki bu yoqqa qarab buradi, solishtiradi va aniq xulosaga keladi. Analiz, sintez, solishtirish, xulosa chiqarish, chizmani o'qish murakkab ruhiy tafakkur ekanligini ko'rsatmoqda? O'qituvchi bu ruhiy jarayonga to'g'ri ta'sir qilish uchun dialektikaning rivojlanish qonlarini bilishi kerak.

O'quvchilar chizmachilik matematika darslarida geometrik qismlarning barchasi bilan tanishadilar. O'qituvchi narsalarni tekislikda tasvirlash tushuntirganda o'quvchilar qanday buyumlarni bitta, qandaylarini ikkita yoki uchta proeksiyada tasvirlash kerakligini va jismlar qanday shaklda proeksiyalanishini o'rganib oladilar. Masalan, silindrning bir ko'rinishi to'rtburchak, ikkinchi ko'rinishi aylana, konusning bir ko'rinishi uchburchak, ikkinchisi aylana, kubning uchala ko'rinishi ham kvadrat va hokazo. Bu tushunchalar faqat grafik faoliyatga xos bo'lganligidan ularni grafik tushunchalar deb atash mumkin. Ayniqsa chizmani o'qishda fazoviy tasavvurning ahamiyati beqiyos katta.

#### ADABOYOTLAR:

1. **Rahmonov I., Abdurahmonov A.** Chizmachilikdan ma'lumotnoma. T., «A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi», 2005.
2. **Adilov P., Ashirboyev A va boshqalar.** Chizmachilik (ma'ruzalar matni). T., "TDPU rizografi", 2000-90 bet.

**YOSH VOLEYBOLCHILAR O‘QUV TRENIROVKA  
MASHG‘ULOTLARINI USLUBIY ASOSLARINI O‘RGANISHNING  
AXAMIYATI**

**Turapova Shoxsanam Xolmurod qizi**

*JDPI, Maktagacha va boshlang‘ich ta‘limda  
jismoniy tarbiya yo‘nalishi o‘qituvchisi*

Bugungi kunda o‘tib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash doimo jamiyatimiz oldida turgan dolzarb va asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Har bir insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi hayotning ma‘nosi qobil farzandlar o‘stirish ularni ham jismoniy ham ma‘naviy jixatdan mukammal qilib tarbiyalash, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli kishilar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportga jalb etish jismoniy tarbiya darslarida, darsdan tashqari mashg‘uflarda, maktabdan tashqari muassasalarda bolalar va o‘smirlar sport maktablarida olib borilayotgan trenirovka mashg‘uflari asosiy o‘rinni egallaydi. Trenirovka mashg‘uflari sport turlariga mos xolda olib borilib, pedagogik jarayon sifatida yuqori natijalarga erishishga qaratilgan. Bugungi kunda sport zahiralari tayyorlash ilmiy-uslubiy asoslarga tayangan

holda olib borilmoqda. Farzandlarimizning har tomonlama sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishida joylarda tashkil etilayotgan turli sport musobaqalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar orasida sportga qiziqish, sog‘lom bo‘lishga intilish kuchayib bormoqda. Bolalar sportini rivojlantirish va ularni sport turlariga qaralashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida 2017-2021 yillarda “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish” dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilab berilgan bo‘lib, bu soha mutaxassislari oldiga yanada yangi talablar qo‘yadi.

Yurtimizda bolalar va o‘smirlar sportiga qaratilayotgan jiddiy e‘tibor tufayli, yosh avlodni jismonan yetuk qilib tarbiyalash, salomatligini mustaxkamlash hamda turli miqyosdagi musobaqalarda natijalarga erishishlari uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bularning hammasi bolalar va o‘smirlar sporti nazariyasi va uslubiyati sohasidagi qator muammolarning har tomonlama hal etilishini talab qiladi. Bolalar sportini rivojlantirishning tashkiliy va dasturiy-me‘yoriy asoslari, sportda saralash, harakat kobilyatlarini rivojlantirishning biologik va uslubiy asoslari, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarining taqsimlanishi, mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish, yosh sportchilar tayyorgarligini boshqarishning kompleks nazorati,

yosh sportchilarni tarbiyalash hamda bolalar sporti sohasi mutaxassislarining nazariy tayyorgarligi muammolari shular jumlasidandir.

Biroq, hozirda bolalar va usmirlar sporti rivojlanishining hozirgi bosqichi bir qarashda go'yo xal etilgan masalalarni tanqidiy tahlil qilishni va qayta muxokamadan o'tkazishni, bolalar va o'smirlar mashg'ulot jarayonini hamda ular bilan ishlovchi sport soxasidagi mutaxassislarni tayyorlash ishlarini ilmiy tashkil kilishning yangi kontseptual qoidalarini shakllantirishni talab etadi.

Bugungi kunda bolalar va o'smirlar uchun o'tkaziladigan trenirovka mashg'ulotlarida:

✚ Yosh voleybolchilarning o'quv trenirovka mashg'ulotlarining uslubiy asoslari o'rganilsa;

✚ Yosh voleybolchilarning o'quv trenirovkasi jarayonida jismoniy tayyorgarlik vositalaridan foydalanilsa;

✚ Yosh voleybolchilarning o'quv trenirovka mashg'ulotlarini izchilligini yanada oshirilsa.

Bolalar va o'smirlar ning yosh xususiyatlari inobatga olinsa, o'quv mashg'ulotlari samaradorligi yanada oshgan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sport amaliyotida jismoniy tayyorgarlik texnik va taktik mahoratni yuksak cho'qqilarga olib chiquvchi yagona va hal qiluvchi poydevor bo'lib hizmat qiladi. Binobarin, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash uchun jismoniy sifatlarni erta yoshlikdan, to'garakka endi kelgan bolalar tomonidan tanlangan sport turining o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirish sport trenirovkasining muhim shartlaridan biridir. Buning uchun esa mashqlarni to'g'ri tanlash va amalga joriy etish samaradorligini pedagogik nazorat ostiga olish iste'dodli sport zahiralarni yetishtirishda o'ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shunday ekan, yosh voleybolchilar o'quv trenirovka mashg'ulotlarini ko'proq tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent: "Adolat", 2017. -112 b.;

2. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 3031-sonli Qarori;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iktisodiyot soxalari va tarmokdarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PQ-3151 sonli qarori.

4. [www.google.uz](http://www.google.uz)



# IJTIMOIIY-GUMANITAR

## ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИГИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ҲОЛАТИ

**Абирова Умида Назаровна**

*Низомий номли ТДПУ ўқитувчиси,*

*Республика Маънавият ва Маърифат маркази тадқиқотчиси.*

**Аннотация:** Мақолада Янги Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва коллеж ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштириш йўллари ва тавсиялари берилган, ҳамда ҳамкорликнинг ўрگانилганлик ҳолати ёритилган.

**Таянч тушунчалар:** Таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат, ҳамкорлик.

Ўзбекистонда бугунги кунда барча соҳаларда улкан ислохатлар олиб борилмоқда. Олиб борилаётган ислохатларнинг бош омили инсон, инсон манфаатлари учун ҳисобланади. Шу жумладан таълим–тарбия соҳасида ҳам туб ислохотлар олиб борилмоқда. Шу боис дунё мамлакатлари томонидан Янги Ўзбекистонда ёшларнинг ақлий, маънавий-маърифий ва жисмоний камолоти тараққиёти, уларнинг замон талабларига мос билим олишлари, касб-ҳунар эгаллашлари, иқтидори ва қобилиятларини намоён қилиши ва янада ривожлантириши учун яратилган имкониятлар эътироф этилмоқда.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг замонавий давлатчилигимизнинг тарихида тараққийпарвар ўзгаришлар яратаётган Олий Мажлисга Мурожаатномаларида илгари сурилган инновацион ғоялар мамлакатимизда баркамол авлодни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигини такомиллаштиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Ёшларни ҳамкорликда миллий ва замонавий руҳда тарбиялаб уларга инновацион ғояларни сингдириш бугунги куннинг талаби ҳисобланади.

Ёш авлодни ҳар томонлама соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш борасидаги ишларимизни янги босқичга кўтариш мақсадида “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунни янги таҳрирда қабул қилинди. Шу аснода янгича ёндошувлар ҳаётга фаол жорий этилмоқда<sup>16</sup>.

Тадқиқотимиз объекти хусусиятларидан келиб чиқиб, оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий–педагогик ҳамкорлигида маънавий-маърифий ишларни самарадорлигини ошириш жараёни ва бу жараённинг

мазмуни, шакли ва услублари илмий тадқиқотларда қай даражада акс этгани муҳим аҳамиятга эга. Шу боис тадқиқ қилинаётган муаммони асослаш ва унинг илмий ечимини топиш мақсадида таълим-тарбия жараёнида оила, маҳалла ва таълим



муассасалари ижтимоий-ҳамкорлигида маънавий маърифий ишларнинг педагогик хусусиятларини, жиҳатларини ажратиб олиб таҳлил қилдик. Аввало таҳлил қилишни бу йўналишда амалга оширилган илмий тадқиқотлар, адабиётлар, уларнинг бажарилиши ва амалга оширилишидан келиб чиққан ҳолда тадқиқ этдик.

Оила, маҳалла ва таълим муассасаси ҳамкорлиги самарадорлигини оширишга йўналтирилган илмий изланишлар жаҳоннинг етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасаларида олиб борилмоқда. Жумладан, “Оила, гендер, демография” илмий педагогик марказ (Россия), “Бўлғуси оналар мактаби” (Япония), “Оила ва мактаб” Япон маркази “Хоккайдо”, оилавий муаммолар, оила, мактаб ва жамоатчилик фаолиятини тадқиқ этувчи кўп тармоқли ижтимоий “Оила” маркази (Астрахан), ёшлари оилада, жамиятда замон талабига мувофиқ тарбиялашга қаратилган «ёшларга аҳамият», «ёшлар иши», «ёшлар хизматлари» каби ҳаракат режалари ва тизимли илмий лойиҳалар ишлаб чиқилган (German Institute for International and Security Affairs, German Council on Foreign Relations); ёшларга ўз ҳаётини яхшилаш ва ватан равнақига ўзининг ҳиссасини қўшишга ундайдиган ёшлар ташкилотларининг фаолиятини қўллаб-қувватлашга қаратилган умуммиллий концепцияси ишлаб чиқилган (Centre of scientific investigation of Central Asia, Institute for the study of Religion); таълим муассасаларида ёшлар билан ишлайдиган мутахассис кадрларни тайёрлаш, ватанпарварликни тарғиб этувчи лойиҳаларга педагог, жамоатчилик бирлашмалари ва давлат ташкилотлари вакиллари, таълим муассасалари ва қўшимча таълим марказлари ходимлари, ота-оналар, фаол ёш волонтерларни жалб этган ҳолда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ижтимоий педагогик технологиялари ишлаб чиқилган, оила институтини ижтимоий-социологик жиҳатдан тадқиқ этувчи, ёшларни оилага таёйёрловчи, ёшларда маънавий ахлоқий фазилатларни шакллантирувчи, оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигини кучайтириш чора-тадбирларини амалга оширётган Республика Маънавият ва маърифат маркази (Ўзбекистон), Маҳалла ва оилани ривожлантириш вазирлиги ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқотлар маркази (Ўзбекистон) фаолият олиб бормоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. // 2017 йил 23 декабрь, № 258 (6952) 5-бет.

2. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат.-Т., “Шарқ”, 1998. 320 б. 115-бет.

3. Қ.Қ.Куранбаев. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. Тошкент. 2000. 4 бет.

4. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Т.: “ O’zbekiston”, 2008. – 11-12 бет.

5.Қуронон М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори ... ёзилган диссертация . – Т.: 1998. – 363 б.

6. Убайдуллаева Р. Ата-Мирзаев О. Қуронон М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Т., “Ижтимоий фикр”, 2012, 114-115 бет.

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ АЛЛОМАЛАРИНИНГ МЕРОСИДА МАЪРИФАТ  
АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАЛАРИ****Рахматуллаева Гулнозахон Мавланжановна***АДУ докторанти*

Маълумки, табаррук диёримизда камол топган буюк аллома ва мутафаккирларнинг, улуғ муҳаддислар, фозилу фузалоларнинг номини бутун дунёда яхши билишади. Бобокалонларимиз билан нафақат фахрланиш, балки уларнинг бой маънавий меросини тадқиқ ва тарғиб этиш бурчимиздир. Шу маънода, Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг буюк мутафаккирлар яратган бой маънавий меросдан фойдаланиш ва илмий фаолиятини таълим соҳасида кенг ўрганишга оид кўрсатмалари аллома ва мутафаккиримиз ижодига бўлган эътиборнинг янги босқичи сифатида тарихий аҳамиятга эга.

Ўрта асрлар Шарқ тарихи шундан далолат берадики, маданият ва таълим-тарбия, тиббиёт, адабиёт, санъат ва архитектура соҳаларидаги бекиёс юксалиш, илмий мактабларнинг вужудга келиши, янги-янги истеъдодли авлодлар тўлқинининг пайдо бўлиши ва вояга етиши-буларнинг барчаси биринчи навбатда иқтисодиёт, қишлоқ ва шаҳар хўжалигининг анча жадал ўсиши, ҳунармандлик ва савдо-сотикнинг юксак даражада ривожланиши, йўллар қурилиши, янги қарвон йўлларининг очилиши ва авваламбор нисбий барқарорликнинг таъминланиши билан бевосита боғлиқ бўлган.

Маърифат ҳақида қадимий тарихий меросимиз «Авесто»да ҳам айтиб ўтилади. Унда маърифат оорқали эзгуликнинг намоён бўлиши эзгу ўй, эзгу фикр ва эзгу амалнинг амалга оширувчи кучи сифатида талқин қилинган. Бундан ташқари, уйғониш даврининг Имом Бухорий, Имом Мотуридий, Ҳаким Термизий, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд каби алломалари ўзларининг бекиёс маърифатли асарлари орқали умуминсоний кадриятларни яратишга улкан ҳисса қўшганлар. Хусусан, Ҳаким Термизий “Китоб баян-ал-илм” номли рисоласида маърифатни нур, ёруғликка қиёслаган. Бу даврда яшаган жаҳон тамаддуни ва ислом дини тараққиётига улкан ҳисса қўшган улуғ алломалардан бири Абу Мансур Мотуридийдир.

Ўзбек халқининг маънавий меросида Абу Мансур Мотуридийнинг ўрни ва хизматлари бекиёсдир. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, Имом Бухорий вафот этган йили, яъни милодий 870 йили тарихимиздаги яна бир мумтоз сиймо Имом Мотуридий таваллуд топган экан. Бу воқеа замирида бамисоли Имом Бухорийнинг нурли қаламини Имом Мотуридий олиб, ул зотнинг хайрли ишларини давом эттиришга бел боғлагандек туюлади. X асрда самарқандлик мутафаккир, «Имом ал-Ҳуда» (Ҳидоят йўлининг имоми) деб шуҳрат қозонган Абу Мансур Мотуридий томонидан асос солинган мотуридия таълимоти бутун ислом оламида кенг тарқалган.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов ўзининг “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида муҳим ўрин тутган бу улуғ инсонни “Имом Мотуридий бобомизнинг ўрта асрлардаги ғоят хатарли ва таҳликали бир вазиятда ўз ҳаётини хавф остига қўйиб, авлодларга ибрат

бўладиган маънавий жасорат намунасини кўрсатиб, ислом оламида “Мусулмонларнинг эътиқодини тузатувчи” деган юксак шарафга сазовор бўлгани бу нодир шахснинг улкан ақл-заковати ва матонатидан далолат беради”[1.180 б]. деб таърифлагани ҳам бежиз эмас, албатта. Жаҳон тарихида ўз ўрнига эга Имом Мотуридий бутун инсоният тафаккурига катта таъсир кўрсатган ва ахлоқий маърифат ривожига муносиб ўрин эгаллаган. Унинг ғоя ва қарашлари умуминсоний аҳамиятга эга. Маърифат- маънавиятга олиб келадиган йўл, уни шакллантирувчи воситадир. Маърифат миллат тарихининг ажралмас таркибий қисми ҳисобланади. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан БМТ Бош Ассамблеясининг “Маърифат ва диний бағрикенглик”[3] деб номланган махсус резолюциясини қабул қилиш таклифи ҳам давлатимизни халқаро миқёсда нуфузини янада кўтарди. Бу ҳужжатнинг асосий мақсади – барчанинг таълим олиш ҳуқуқини таъминлашга, саводсизлик ва жаҳолатга барҳам беришга кўмаклашишдан иборат. Ушбу резолюция бағрикенглик ва ўзаро ҳурматни қарор топтириш, диний эркинликни таъминлаш, эътиқод қилувчиларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш, уларнинг камситилишига йўл қўймасликка кўмаклашишга қаратилган. Инсон фаолиятида одоб, хулқ меъёрларининг шаклланиб бориши натижасида хулқ-одоб маданиятига эга бўлади, шу билан бирга ахлоқ-одоб бу қоидага, ҳуқуққа риоя қилишни тақазо этади. Қадим замонларда бошлаб баркамол инсонни шакллантиришнинг асосий мезони сифатида ақлий етуклик, соғлом фикр, юқори истеъдод, ижодкорлик, яхши хулқ, маърифат тарбиясини шакллантириш тушунилади.

“Китоб ат-Тавҳид” (“Аллоҳни ягона деб билиш ҳақидаги китоб”), “Китоб ал-Мақомат”, “Каъбий залолатларининг бошланишини рад қилишга бағишланган китоб”, “Муътазила ғавғолари ва ундан қўрқмаслик ҳақидаги китоб баёни”, “Қуръон таъвили китоби”. Абу Мансур ал-Мотуридийнинг “Шариат асослари”, “Китоб ал-жадал”, “Диалектика ҳақида китоб” каби асарлари ҳам бўлган. Мотуридийнинг мазкур асари тарих жараёнида кўп алломалар асарларига асос солган, улар ижодига туртки бўлган. Шулардан бири Алоуддин Абу Бакр Муҳаммад ибн Аҳмад Самарқандийнинг шарҳидир. У “Шарҳ таъвилот аҳли ас-сунна” деб номланган. “Мотуридия таълимоти илм эгаллаш жараёнида бағрикенглик ғояси асосида инсон ақл-заковатининг ўрни ва аҳамиятига юксак эътибор қаратади. Бу ўз навбатида ушбу таълимотнинг кенг оммалашувида муҳим ўрин тутган. Бундай ғояларга бугунги кунда ҳам инсоният катта эҳтиёж сезмоқда” [2. 498 б] Тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир. Янги таҳдидлар, жумладан, «оммавий маданият» хавфи ва боқимандалик кайфияти пайдо бўлаётган, одоб-ахлоқ, қадриятларнинг йўқолиш хавфи юзага келаётган ҳозирги глобаллашув шароитида бу ғоят муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўқувчиларни бўш вақтларини самарали ўтказиш, уларни китоб мутолаасига жалб қилиш ҳаммамизнинг умумий вазифамиз ҳисобланади. Шундай экан ушбу масалага ҳам жиддий эътибор бериб, китоб фондларини бойитиш, амалий ёрдам бериш мақсадга мувофиқдир. Айни пайтда, мактаб кутубхоналарини ва ахборот-ресурс марказларини миллий ва жаҳон болалар

адабиётлари билан тўлдиришга ҳамда замон қахрамонлари образи очиб берилган ёшларбоп янги асарларга катта эҳтиёж мавжуд.

Бу Мотуридийнинг диний илмлар намояндалари орасида қанчалик машхур бўлганлигидан далолат беради. Мотуридий кўп шогирдлар етиштирди, улар орасида ислом оламига машхур алломалар Абул Ҳасан Рустуғфаний, Исҳоқ ибн Муҳаммад Самарқандий ва Абдул Карим Паздавий, Абу Аҳмад Иёзий каби олимлар бор эди. Шогирдлари ўз устозларининг таълимотини давом эттиришгани натижасида мотуридия таълимоти вужудга келган. Абу Мансур Мотуридий умри давомида фақиҳлар, муҳаддислар билан мулоқотда бўлган ва мунозаралар олиб борган. Мотуридий ўз даврининг исломий илмлари соҳасида энг етук билим соҳиби ҳисобланиб, мусулмон дунёси олимлари томонидан тан олинган ва ҳозирда ҳам турли диний асарларда зўр эҳтиром билан тилга олинади. Мотуридийни улуғлаб “Имом ал-худа” ва “Имом ал-мутакаллимин”, “Ҳидоят йўли имоми ва мутакаллимлар имоми” каби номлар билан ҳам атаганлар. Мустақиллик йилларида бир қатор азиз-авлиёларнинг юбилей саналари нишонланиши ҳам узоқ йиллар мобайнида муқаддас динимизга нисбатан эътибор намунаси дир. Жумладан, 2000 йил ноябрь ойида Имом Абу Мансур ал-Мотуридийнинг 1130 йиллиги нишонланди. Бу каби ишлар юртимизда дин ишларига катта эътибор қаратилаётганининг исботи дир.

Абу Мансур ал-Мотуридий номи тилга олинганда, бутун мусулмон оламида ақидавий ҳақ таълимот сифатида эътироф этилган мотуридий таълимоти кўз олдимизда намоён бўлади. Абу Мансур ал-Мотуридийнинг келажак авлодга қолдириб кетган илмий-маънавий меросини таҳлил қилар эканмиз, у ўз асарлари орқали ўша даврда ислом эътиқодларига зид бўлган турли ақидавий адашган оқим ва тоифалардан муборак динимизни сақлаб қолганига гувоҳ бўламиз.

Хулоса қилиб, шуни айтишимиз мумкин бўладики, бугун биз юксак технологиялар замонида яшаётганимиз билан фахрлансакда, ушбу технологиялар айрим ёвуз кучлар томонидан номақсад ишлатилиши оқибатида ахборот хуружлари кучаётганини эътироф этишимиз лозим.

Шарқ уйғониш даври мутафаккирларининг фикрича, покиза хулқ-атвор, гўзал ахлоқ-одоб, ҳалоллик, илоҳий маърифат - комил инсонлик даражасига етиш манбаидир. Комил инсонларгина миллатнинг ёрқин кўзгуси бўлиши мумкин. Фақат маънавийатли ва маърифатли инсонларгина халқ ва давлат манфаати, равнақи йўлида меҳнат қилишга кодирдирлар. Машхур Шарқ мутафаккири Шайх Азизиддин Насафий комил инсон фазилатлари ҳақида гапириб, унинг юксак ахлоқли, ўзини англаган, дунёвий ва илоҳий билимларни эгаллаган маънавийатли ва маърифатли бўлиши зарурлигини айтади: “Билгилки, Комил инсон деб, шарият, тариқат ва ҳақиқатда етук бўлган одамга нисбатан айтадилар ва агар бу иборани тушунмасанг, бошқа ибора билан айтайин: билгилки, комил инсон шундай инсондирким, унда қуйидаги тўрт нарса камолга еткан бўлсин: яхши сўз, яхши феъл, яхши ахлоқ ва маориф”[4.147 б].

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 180 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2017 й – 498-бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь кунги Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқи. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 20 сентябрь.
4. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996, 147-бет.



**OILAVIY NIZOLARNING FARZAND RUHIYATIGA TA'SIRI.****Qurbonova Iqbol Usmonovna.***Buxoro viloyati, Jondor tumani 27- maktab psixologi.*

Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas'uliyatli vazifa ota-onaga hamda oiladagi kattalarga yuklatilgan. Darhaqiqat, inson shaxsini shakllantirish oila muhitidan boshlanadi. Xususan oila muhitida, bolada insoniy fazilatlar, iroda sifatleri, milliy odatlar, fe'l-atvor, tevarak-atrofga nisbatan munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Ma'lumki, oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog'-omon saqlanib qolgan tuzilmadir.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, idealogik va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan oila-a'zolarining o'zaro moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Oilaviy turmush va oila a'zolarining o'zaro muammolarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M.Komlosi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oilaviy muhit (vaziyat, sharoit) omillarini 4 guruhga ajratadi:

1. Ota-onalarning jamoat faoliyati (ularning siyosiy pozitsiyasi, ishga nisbatan munosabatlari).
2. Oila davrasidagi munosabatlar (ota-onalarning farzandlariga munosabati, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari).
3. Ota-onalarning tarbiyaviy pedagogik faoliyati (ularning pedagogik qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash jarayonida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy metodlari).
4. Oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kun-tartibi, xo'jalik ishlardagi muayyan majburiyati) va boshqalar.

Ularni tahlil qilib oilaviy muhit (vaziyat,sharoit)ni uch kategoriyaga ajratadi: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy. Olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik – bu oiladagi hamjihatlikning hamda ota-onalarning o'z bolalariga g'amxo'rligining samarasidir, degan xulosaga keladi. Agar oilalarning yo'nalishiga qarab bu uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi: ijtimoiy progressiv, taraqqiyparvar yo'lishdagi oila, past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oila.

Birinchi toifaga xos bo'lgan oilalar mamlakatimiz oilalarining ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar milliy, umumbashariy, xalqchil tamoyillardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek, har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Bunday oilalarning voyaga yetayotgan a'zolari ijtimoiy sohaning turli jabhalarida, ishlab chiqarishda, jamoat ishlarida faol ishtirok etadi, ilg'or madaniyatga nisbatan o'zqiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga

bu narsalarga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda osoyishta yo'sinda hal qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallar har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

Ikkinchi toifadagi oilada umumbashariy, milliy yo'nalishi uzil-kesil hal qilinmagan bo'ladi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa-boshqa bir g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurash bosqichida bo'lib, u yoki bu qarashlar, aqidalar ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni aslo anglatmaydi. Balki er-xotinning yoki boshqa voyaga etgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari nuqtai nazarlari ko'pincha ularning xarakter xususiyatidagi tafovut negizida bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi qarama-qarshi yo'nalishli ikki markazga va 2 xil intilishga ega. Faqat burch hissiga, muayyan majburiyat bajarilishiga oila a'zolarini o'zaro birlashtirib turadi xolos. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, o'zaro raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifaga mansub oilalarda ko'pincha meshchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilada barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-ma'ishiy jihatdan ustunlikka erishishga qaratilgan. Voyaga etgan oila a'zolarining, ota-onalarning korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi anashu ko'zlagan maqsadga etish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa ish haqi miqdori bilan o'lchanadi. Ushbu toifa qatoriga yana fanatizm xususiyatli kishilar, ruhoniylar oilalari kiradi. Xoh meshchanlikka og'gan oilada bo'lmasin, xoh ruhoniy oilasida bari-bir eski aqida parastlik munosabatlari qudratli kuchga ega. Jumladan, oila boshlig'ining zo'ravonligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunish, zaif va nimjon a'zolar faolligini poymol qilishga intilish va meshchanliki deali va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi, xuddi shu boisdan bunday ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan ko'p hollarda xudbin, qurqoq, jamiyat taraqqiyoti uchun kam naif tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqadi, chunki «qush-uyasidan ko'rganini qiladi».

Bolani tarbiyalashda avvalo,ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlik va samimiy munosabatga erishish muhim sanaladi. Ota-ona hech qachon tarbiya jarayonini o'z holiga tashlab qo'ymasligi, ayniqsa voyaga yetayotgan bolani o'z holiga tashlab qo'ymaslik lozim.

Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil va ziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi.

Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlash kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir xil bo'lishini ko'rishi kerak. (m., agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg'on gapirish mumkin emasligini eshitsa-yu, lekin ota-ona o'zi sezmaganda holda bu qoidaga rioya qilmasa, bola tarbiyasiga darz ketadi). Har bir ota-ona farzandlarida o'zining davomchilarini ko'radi. Farzandlarini o'zlari xohlaganin son bo'lishlarini xohlaydi.

Oilada bola tarbiyasiga kuchli ta'sir etadigan omil bu ota-onalar o'rtasidagi nizo va janjallardir.

Oilada er va xotin o'rtasidagi sodir bo'ladigan kelishmovchiliklar oila a'zolarining salomatligiga putur etkazadi, bolalar tarbiyasiga ta'sir etadi, bunday oilada sog'lom turmush tarzi shakllanmaydi. Oilada er va xotin o'rtasidagi sodir bo'ladigan kelishmovchiliklarning sabablari quyidagilardan iborat:

1. Hayotda ishning-kasb faoliyatining va oilaning qadr-qimmatini o'lchashda yuzaga keladi, ya'ni ishga mukkasidan ketgan ba'zi erkaklar ayollariga e'tiborsiz bo'lib qoladilar.

2. Oilada yetakchilik mavqeini qo'lga kiritish uchun kurash zaminida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

3. Muhabbatning kamolot yo'li, psixologik xususiyatlarini bilmaslik natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

4. Kelinlarning uy-ro'zg'or ishlarini bajarishga tayyor emasligi, uy bekasini o'rniga qo'ya olmaslik natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

5. Ayolning ruhiy, emotsional holatini erkaklar bilmasligi yoki hisobga olmasligi natijasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar.

6. Erkakni spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi, giyohvand moddalarga o'rganib qolishi tufayli kelib chiqadigan kelishmovchiliklar.

7. U yoki bu shaxsning talabini doimiy ravishda qondirmaslik asosida kelib chiqadigan nizolar.

8. Er yoki xotin tarbiyasidagi, fe'l-atvor va ahloqidagi kamchilik va nuqsonlardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar.

Nizo kelib chiqishining asosiy sababi er-xotinni bir-biriga ko'nika olmasliklaridir. Yuqorida keltiriladigan kelishmovchiliklar tufayli oilaga putur yetadi, oilada nosog'lom muhit vujudga keladi, oqibatda oila a'zolarining sog'ligi yomonlashadi, turli kasalliklar kelib chiqadi.

*AmirTemur «Farzandimni oila qurish masalasini siyosat masalasi darajasida ko'raman», deb bejiz aytmaganlar. Chunki oila deb atalmish ulkan daraxtning ildizlari mustahkam bo'lsa, uning shoxlari baquvvat, beradigan shirin-shakar mevalari ham shunchalik totli bo'ladi.*

*Rizouddin ibn Fahriddinning «Oila» nomli risolasida «Bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat matonat, mehribonlik, chidamlik, shafqatu-sezgirlik bilan bo'lishi kerak», kabi fikrlar yozib qoldirilgan.*

*Ibn sino oilaviy tarbiya to'g'risida to'xtalib, shunday deydi: «Bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak, unga esa bolani qattiqqo'llik va qattiq g'azablanishdan, qo'rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Oilada bolaning ko'z o'ngida ota-onasi o'z obro'siga ega bo'lsalar, tarbiya shunchalik samarali natija beradi».*

Mojaroli vaziyatlarda ota-onalarni birinchi vazifasi – umumiy qarorga kelish, bir-birini ishontirishdir, ota yoki ona biror qarorni qabul qilishdan oldin biri ikkinchi tomonning fikrini hisobga olishi lozim.

Ota-onalarni ikkinchi vazifasi – bola ota-onalarini qarashlarida qarama-qarshilikni ko'rmasligi kerak, muammolarni alohida muhokama qilish zarur.

Bola juda tez aytgan fikrlarni o'zlashtiradi va o'ziga xos holda ulardan foydalanadi.

Ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o'ringa o'zining qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirishni o'ylashi lozim.

Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Bolani qanday bo'lsa, shunday holda qabul qilish kerak.
2. Kattalar bolalar ko'zi bilan muammolarga qarashlari va ularni holatlarini qilishlari kerak.

Ota-onalar farzandlarini, ularni hech narsaga (xunukligi, sho'xligi, epchil emasligiga) qaramasdan yaxshi ko'radilar. Bola qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinadi.

Agar bola ota-onalarni xoxish va istaklariga mos bo'lsa ya'ni yaxshi o'qisa, a'lo xulqli bo'lsa, agarda bola ota-onalarni talabalariga javob bermasa, bunda bolalarni ota-onalar o'zlaridan uzoqlashtiradilar va ularni munosabatlari yomon tomonga o'zgarib boradi.

Bu esa ota-ona va farzandlar o'rtasida sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bola ota-onasining unga mehribonligiga ishonmaydi.

Ayrim oilalarda bola ota-ona tomonidan umuman qabul qilinmaydi. Ular bolaga nisbatan befarq qarashadi vauni o'zlaridan itaradilar (masalan: ota-ona o'zining kundalik yumushlarini farzandi tarbiyasidan ustun qo'yadi). Lekin yaxshi tinch oilalarda ham bolaga nisbatan befarq bo'lish hollari uchraydi (masalan: kutilmagan farzandning tug'ilishi, ona chiroyli lekin qizi xunuk bu esa onani g'ashiga tegadi).

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli-tumandir. Ular orasida keng tarqalgan ota-onalarning haddan tashqari izzatlabligi, hukmronlikka intilishidir. Bolaning har bir qadami nazorat ostiga olinsa, uning xulqidagi mustaqillik yo'qqa chiqariladi. Bolada o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonch yo'qoladi. Ichki istak va intilishi shakllanmasdan itoat qilish talabi boshlab yuboriladi.

Oilaviy tarbiyadagi xatoliklarning yana biri, bolalarning erka bo'lishi, ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq. Bunday holda ota-onalar ba'zan bolalarining imkoniyatlariga etarli baho bermay va ularning ko'pgina ishlarini o'zlari bajarishadi. Natijada bolada mustaqillik, mehnat qilish ishtiyoqi, topshirilgan ishga ma'suliyat hissi rivojlanmaydi. Bola o'z ishini tanlay olmaydi, uni oxirigacha etkaza olmaydi, erksiz bo'lib qoladi.

Ota-ona bir-birini behurmat qilmasligi, obro'sini tushirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo'q vaqtida bartaraf etishlari shart. Bola yomon yoki yaxshi xulqli, fe'l-atvorli bo'lib tug'ilmaydi. Uning o'sib ulg'ayib borishi jarayonida oila muhiti, ota – onaning, kishilarning, atrof – muhitdagi munosabatlarning ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oiladagi totuvlik, hamjihatlik, bu o'zaro hurmat va yordam, shirinsuxanlik, mehnatsevarlik va rostgo'ylik bolaga ijobiy ta'sir qiladi.

**ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИГИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ҲОЛАТИ**

*Абирова Умида Назаровна*

Низомий номли ТДПУ ўқитувчиси,  
Республика Маънавият ва Маърифат маркази тадқиқотчиси.

**Аннотация:** Мақолада Янги Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва коллеж ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштириш йўллари ва тавсиялари берилган, ҳамда ҳамкорликнинг ўрганилганлик ҳолати ёритилган.

**Таянч тушунчалар:** Таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат, ҳамкорлик.

Ўзбекистонда бугунги кунда барча соҳаларда улкан ислоҳатлар олиб борилмоқда. Олиб борилаётган ислоҳатларнинг бош омили инсон, инсон манфаатлари учун ҳисобланади. Шу жумладан таълим–тарбия соҳасида ҳам туб ислоҳотлар олиб борилмоқда. Шу боис дунё мамлакатлари томонидан Янги Ўзбекистонда ёшларнинг ақлий, маънавий-маърифий ва жисмоний камолоти тараққиёти, уларнинг замон талабларига мос билим олишлари, касб-ҳунар эгаллашлари, иқтидори ва қобилиятларини намоён қилиши ва янада ривожлантириши учун яратилган имкониятлар эътироф этилмоқда.

Ёш авлодни ҳар томонлама соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш борасидаги ишларимизни янги босқичга кўтариш мақсадида “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” ги Қонунни янги таҳрирда қабул қилинди. Шу аснода янгича ёндошувлар ҳаётга фаол жорий этилмоқда<sup>17</sup>.

Оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий-педагогик ҳамкорлигида маънавий-маърифий ишларнинг назарий ўрганилганлиги ёритиш жараёнида аввало баркамол авлодни тарбиялашдаги уч омилнинг ижтимоий ҳамкорлиги муҳим аҳамиятга эга. Шу боисдан ҳам муаммони ўрганиш жараёнида аввало ижтимоий ҳамкорлик тушинчасининг мазмун моҳиятини ёритиш мақсадга мувофиқ

Ижтимоий ҳамкорликнинг - мазмун моҳиятини ёритишда муаммонинг ижтимоий педагогик жиҳатларини ёритиш зарурати туғилади. Бу соҳани ўрганган ижтимоий –тарихий, тахлилий манбалардан ҳам кўринадики, ижтимоий ҳамкорлик замирида мураккаб тарзда намоён бўладиган шахс манфаатлари, шахслараро муносабатлар ва ҳар бир инсон фаолиятининг мазмуни ҳамда давлат ва нодавлат ташкилотлари яъни оила, маҳалла ва таълим муассасаларининг биргаликдаги фаолиятини шакллантирувчи, ривожлантирувчи механизм ҳисобланади.

Педагогика фанлари доктори М.Иномова ёшларни оилада маънавий- ахлоқий тарбиялаш хусусида олиб борган докторлик диссертациясида “Оилавий тарбия” педагогик тушунча бўлиб, у ота-оналарнинг ўз ҳаётий фаолиятлари, турмуш тарзлари,



анъаналари ёрдамида бола шахсига сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, эстетик, диний қарашлар, ғоялар ва тасаввурларни шакллантиришни назарда тутиб, бир мақсадга қаратилган ҳолда мунтазам олиб бориладиган изчил маънавий таъсир ўтказиш жараёнини ифодалайди”<sup>18</sup>, деган хулосага келган. Бу эса оилавий тарбиянинг мазмун моҳияти уни педагогик жараён сифатида тадқиқ этишининг кенг имкониятлари мавжудлигини очиб беради.

Маънавий тарбиянинг гендер хусусияти ислом маърифатида ҳам ўз аксини топган. Бу ҳақда Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий Усмонхон Алимов шундай ёзади. “Аёллар ифбатли кийиниши ва ўзларини яхши тутиши лозим. Бу шундан далолат берадики, ўзбек кизларининг миллий тарбия асосида кийинишлари, ўзларини тутишлари ва уларда маънавий ахлоқий фазилатлар шакллантирилса, улар ғарбдан кириб келаётган “оммавий маданият” хуружлари исканжасида қолмайди”<sup>19</sup>.

Сиёсий фанлар доктори, профессор Қ.Қуранбаев ўз тадқиқоти натижаларидан келиб чиқиб, талаба–ёшларда маънавий фазилатларни шакллантиришининг моҳияти уларда халқ, Ватан мафаатлари йўлида фидойилик кўрсатиш кўникмаларини қарор топтириш, ўз имкониятлари ва қобилиятларини рўёбга чиқаришлари учун шарт-шароит яратиш ҳамда энг муҳими ёшларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришдан иборат эканлигини <sup>20</sup> таъкидлайди. Бу эса юқоридаги фазилатларни шакллантиришни ижтимоий педагогик ҳамкорлик вазифаларига айлантиришда қимматли аҳамиятга эга.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- <sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. // 2017 йил 23 декабрь, № 258 (6952) 5-бет.
2. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат.-Т., “Шарқ”, 1998. 320 б. 115-бет.
- <sup>3</sup> Иномова М. О. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий кадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Пед. фанл. докт. ...дисс. – Т.: 1998. - 34 бет.
4. Ҳ.Умаров. Қ.Ҳайдаров, М.Холиқов. Халқ расм-русумлари.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг Самарқанд бўлими, 1991, - 8-бет.
- <sup>5</sup> Алимов У. Фазилатли авлод. Тошкент, “Муҳаррир”, 2019. 42 б.
6. Қ.Қ.Қуранбаев. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. Тошкент. 2000. 4 бет.
7. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Т.: “ O’zbekiston”, 2008. – 11-12 бет.
- 8.Қуроноф М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори ... ёзилган диссертация . – Т.: 1998. – 363 б.



**ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ МАЪНАВИЙ –  
МАЪРИФИЙ ҲАМКОРЛИГИ ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК  
РЕСУРСЛАРИНИНГ ҲОЛАТИ**

*Абирова Умида Назаровна*

*Низомий номли ТДПУ ўқитувчиси,*

*Республика Маънавият ва Маърифат маркази тадқиқотчиси.*

**Аннотация:** *Мақолада Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасаси ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштириш технологиялари ва тавсиялари берилган.*

**Таянч тушунчалар:** *Ёшлар, таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат.*

Шиддат билан глобаллашиб бораётган бугунги давр баркамол авлодни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасаларига бир неча талаб ва вазифаларни юклайди. Мамлакатимизда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигини такомиллаштиришда энг аввало шахс манфаатлари устуворлиги, унинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, масалалардан бири ҳисобланади. Шу боис таълим муассасалари, маҳалла фаоллари, оилалар мамлакатда ёшларнинг ҳар жиҳатдан етук инсон бўлиб етишишлари учун бевосита ва билвосита масъулдирлар. Бироқ, “Оила, маҳалла ва таълим муассасаларида ёшлар тарбияси, чекка ҳудудлар ва маҳаллаларда уюлмаган ёшлар билан мақсадли ғоявий-тарбиявий ишларнинг юзаки тарзда олиб борилаётгани, жиноятчилик, диний экстремизм ва террористик ҳаракатларга адашиб қўшилиб қолиш, миллий кадриятларга эътиборсизлик, эрта турмуш қуриш, оилавий ажралишлар каби салбий ҳолатларнинг олдини олишга қаратилган тарғибот ишларининг аксарият ҳолларда қутилган натижани бермаётгани бу масалаларга жиддий эътиборни талаб этмоқда”<sup>21</sup>.

Айни вақтда Президентимиз Шавкат Мирзиёев ёшлар ўртасида содир этилаётган жиноятчилик масаласи устувор масалалардан бири, хусусан 2017 йилнинг 10 ойи давомида ёшларнинг 22 минг нафари жиноятга қўл урган.

Вазирлар Маҳкамасининг 371-сонли Қарори ижроси амалиётга тадбиқ этилган бўлсада, нега бугунги кунга қадар таълим муассасаларида ўқувчилар давомати кўрсатгичи паст. Ўқувчилар сабабсиз ва мунтазам равишда дарсларга қатнашмайди. Бунга асосий сабаб 371, 175-сонли Қарорларнинг ижро интизоми ҳаққоний ташкил этилмаганлиги эканлиги аниқланди. Касб-ҳунар коллежлари педагоглари бириктирилган ўқувчиларнинг уйларига, маҳалла фуқаролари йиғинларига ўзлари эмас, ўқувчилардан махсус юритилувчи дафтарларини бериб юборади. Натижада

---

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги 2017 йил 28 июль ПҚ-3160 сонли Қарори.


ўқувчиларнинг ўзлари дафтарга муҳр ва имзо қўйдириб келишади. Бу эса ижро интизомининг ўз вақтида ҳаққоний таъминланмаслигига, давомат пастлигига, оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигидаги салбий камчиликларга олиб келмоқда.

- Касб-ҳунар коллежларида ота-оналар йиғилишлари режаси ишлаб чиқилиб педагогик кенгаш қарори билан тасдиқланмаган. Ота-оналар йиғилишлари режаси асосида ташкил этилмайди.

- Таълим муассасаларида ярим йиллик семестр якунларидаги ташкил қилинадиган ота-оналар йиғилишларига гуруҳдаги ўттиз нафар ўқувчилардан 15-20 нафарининг ота-оналар келишади. Улар ҳам аълочи, яхши ўқийдиган, тарбияли ўқувчиларнинг ота-оналари. Ўзлаштиришлари паст, тарбияси муаммоли, носоғлом оила фарзанд оилалардаги ота-оналар йиғилишларига келишмайди.

Ўрганилган 1573та оилани ўрганиш ота оналар томонидан фарзанд тарбиясида назорат остига олиниши зарур бўлган жабҳалар ҳолатини баҳолаш имкониятини берди. Худудлар кесимидаги статистик таҳлил ота оналарнинг ўсмирлар болаларининг дарс тайёрлашини назорат қилишларини асосий вазифа деб билишларини кўрсатди (1 жадвал). Аини вақтда фарзандларининг кимлар билан дўст эканликлари, бўш вақтларини қандай ўтказишлари ва китобхонликка қизиқишларига эътибор етарли эмаслигини кўрсатди.

1 жадвал. Ота оналар томонидан фарзанд тарбиясида назорат остига олиниши зарур бўлган жабҳалар.



Мамлакатимизда амалга оширилаётган Беш муҳим ташаббус доирасидаги ишларнинг тўртинчи йўналиши бевосита ёшларда китобхонлик маданиятини

оширишга қаратилган. Бу талаб ўз ўрнида баркамол авлодни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасаларига бир неча талаб ва вазифаларни юклайди. Бироқ, ушбу йўналишнинг илмий педагогик таъминланмаганлиги туфайли бу борада муайян камчиликлар кузатилди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги 2017 йил 28 июль ПҚ-3160 сонли Қарори.

2. Қуронов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори ... ёзилган диссертация . – Т.: 1998. – 363 б.

3. Алимов У. Фазилатли авлод. Тошкент, “Мухаррир”, 2019. 42 б.

**HOZIRGI ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOIIY-SIYOSIY ALOQA  
VOSITALARINING TIPOLOGIYASI (VERBAL BO'LMAGAN)****Baxriddinov Nurbek***JDPI Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat  
asoslari va huquq ta’limi” yo’nalishi talabasi***Shodiyev Jasur***JDPI Tarix fakulteti “falsafa, tarbiya va  
huquq talimi” kafedrasi o’qituvchisi*

Agar bizning aloqamiz to'liq zulmatda sodir bo'lishini tasavvur qilsak, ya'ni biz so'zlarimiz suhbatdoshdan kelib chiqadigan reaksiya haqida taxmin qilmaymiz, shunda biz to'liq aloqa harakati sodir bo'lganligini ishonch bilan tasdiqlay olmaymiz. Nutq aloqasi hozirgi vaqtda og'zaki xabarni ishlab chiqarish, uzatish va qabul qilish umuman butun aloqa jarayonining bir qismi bo'lgan davlatlar zanjiri sifatida qaraladi. Xabar uzatishda akustik kanal bilan bir qatorda vizual kanal ham ishlatiladi. So'nggi yillarda og'zaki bo'lmagan aloqa vositalariga bo'lgan qiziqishning kuchayishi sababini tushuntiradi, ular orasida aslida og'zaki bo'lmagan (kinesik) vositalar, fonatsiya va grafik vositalar mavjud. Kinesik vositalar, o'z navbatida, odatda yuz ifodalari, imo-ishoralar, qarash xatti-harakatlari, o'zini tutish, taktil aloqa va proksemika deb nomlanadi. Og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar sohasidagi tadqiqotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda og'zaki bo'lmagan vositalarning yagona tipologiyasi mavjud emas.

Bundan tashqari, ushbu vositalar funktsional xususiyatlarga ega va ushbu xususiyatlarni anglash uchun turli xil yondashuvlar og'zaki bo'lmagan vositalarni tasniflashda ularning kommunikativ rolini aniqlash uchun zarur bo'lgan hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan yondashuvlarning farqlarini aniqlaydi. I.N. Gorelov muloqotning og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlarini jismoniy tabiati bo'yicha fonatsion, mimik-gestural, pantomimik va aralash turlarga ajratadi.

Masalan, indikativ ma'nolar imo-ishoralar, tasviriy ma'nolar - imo-ishoralar va pantomimada, turtki, savol, tasdiq va inkor ma'nolari - turli xil belgilar bilan, shu jumladan aralash, modal ma'nolar - fonologik vositalar yordamida amalga oshiriladi, ammo ba'zilar imo-ishoralar va taqlid komplekslari, murakkab ma'nolar, shu jumladan ko'rsatmalar yoki tavsiflar modallik ifodasi bilan birgalikda - aralash vositalar yordamida. Og'zaki bo'lmagan belgi ishora qiluvchi va belgili o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatiga xos ekanligidan kelib chiqib, A.V. Dementyev (1985) Charlz Pirs tomonidan belgilarning uch muddatli tasnifiga asoslangan Kinem tasnifini taklif qildi, u belgilarning uch turini ajratib ko'rsatdi: belgilar-belgilar, belgilar-indekslar va belgilar-ikonalar.

Ushbu tasnifga ko'ra kinemalarni indekslarga (belgi qo'yilgan va ko'rsatuvchi o'rtasida tabiiy bog'lanish bilan xarakterlanadigan beixtiyor kinemalar yoki haqiqiy yaqinlik bo'yicha birlashma bilan tavsiflanadi), piktogramma (o'xshashlik bo'yicha birlashmalarga asoslangan o'zboshimchalik kinemalari) va belgilarga (o'zboshimchalik kinemalari) ajratish mumkin. belgili va belgili orasidagi shartli bog'lanish bilan).

Tanlangan kichik guruhlarda qo'shimcha farqlash ham mumkin. Shunday qilib, indeks kinemalarini alomatlar (avtonom ma'noga ega bo'lgan indekslar, shu jumladan aytilishdan ajralib turadigan ko'rsatkichlar, simptomatik, masalan, rang o'zgarishi) va kinesik paralinguistika (konjugat gapdan alohida ahamiyatga ega bo'lmagan indekslar) ga bo'lish mumkin. , masalan, ritm sinovi). Ikonik kinemalar orasida indikativ va obrazli kinemalar ajralib turadi. Belgilagich va belgining shartli aloqasi bilan tavsiflangan kinemaga kelsak, ularni P. Ekmandan keyin "emblemalar" - ekvivalent so'z yoki iboralar bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan og'zaki bo'lmagan signallar deb belgilash afzaldir.

Timsolning ma'nosi nafaqat parallel og'zaki harakat bilan amalga oshiriladi, balki uni to'liq o'rnini bosishi ham mumkin. Shuning uchun emblemalar asosan kommunikatorlar bir-biri bilan gaplasha olmaydigan yoki istamaydigan holatlarda qo'llaniladi. Timsollar orasida ramzlarni (ibtidoiy ikoniklik bilan ajralib turadigan timsollar) va an'anaviylarni (mutlaqo shartli bog'langan timsollarni, masalan, boshning ijobiy harakati) ajratish mumkin. Semantika nuqtai nazaridan G.Kreidlin imo-ishoralarning ikkita asosiy turini ajratib turadi: kommunikativ va simptomatik imo-ishoralalar.

Kommunikativ imo-ishoralarga imo-ishora qiluvchi shaxs atayin manzilga etkazadigan ma'lumotni etkazadigan imo-ishoralalar kiradi. Tabiatiga ko'ra, bular faqat dialogik imo-ishoralardir. Ular orasida imo-stimullovchi va imo-reaktsiyalar ham mavjud. Kommunikativ imo-ishoralalar orasida 1) deiktik imo-ishoralalar mavjud - ularning semantikasida aloqa ishtirokchilarining ko'rsatmalarini yoki ma'lum bir vaziyatga tegishli joyni o'z ichiga olgan; 2) odob-axloq imo-ishoralari - imo-ishora kiritilgan jamoaning tuzilishi yoki yuzaga keladigan vaziyat turi to'g'risida ma'lumot beruvchi element sifatida aniq, aniq belgilangan vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Har bir odob-axloq imo-ishorasi muayyan nutq harakatining paralinguistik korrelyati. Bundan tashqari, nutq odob-axloq qoidalarining ta'rifi ko'pincha uni amalga oshirishning mumkin bo'lmagan lisoniy usullari to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Odob-axloq imo-ishoralariga salomlashish va xayrlashish holatida qilingan xushmuomalalik imo-ishoralari kiradi. Semptomatik imo-ishoralalar ma'ruzachining hissiy holatini ko'rsatadi. G. Kreidlin tomonidan aniqlangan ikkita imo-ishora turiga yana bitta tur, ya'ni marosim imo-ishoralari qo'shilishi kerak.

Ritual imo-ishoralalar qat'iy belgilangan xulq-atvor qoidalariga rioya qilishni talab qiladigan aniq, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda amalga oshiriladi. Ushbu imo-ishora guruhlari semantikasi bo'yicha odob-axloq imo-ishoralariga yaqin, ammo bajarilish shartliligi va ushbu imo-ishoralalar bajariladigan vaziyatlar juda aniq bo'lganligi sababli ularni alohida semantik tur sifatida ko'rsatish kerak. Qiymat bo'yicha tasniflash O.V. Dono, A.A.ning tahliliga asoslanib. Kanapadze, E.V. Krasilnikova va Chanysheva, belgi paraverbal va belgi para-lingvistik vositalar bilan ifodalanadi.

Paraverbal vositalar, o'z navbatida, ramziy (marosim, shartli) va tasviriy (mavzu, ritmik, indikativ) bo'linadi; indikativ paralangage vositalari guruhida ekspresiv (modal va emotsional) komponentlar mavjud. Ko'rib turganingizdek, paraverbal dorilarning ushbu tasnifi ham C. Peirce tasnifiga asoslangan. Xorijiy tilshunoslar imo-ishoralarni tasniflash

muammosiga o'tgan asrning boshlarida murojaat qilishdi. V.Vundt imo-ishoralarni shakl va ma'no munosabati asosida tasniflashni taklif qildi.

U barcha imo-ishoralarni uch guruhga ajratdi. Birinchi guruhga imo-ishoralalar (die hinweisenden Gebarden) kiradi, ular turli shakllarda fazoviy yoki vaqtinchalik ma'noni aks ettiradi. Ikkinchi guruh - rasmlı imo-ishoralalar. Ular, bir tomondan, ob'ekt yoki hodisani to'liq aks ettiradigan taqlid imo-ishoralarni birlashtirsa, ikkinchi tomondan, alohida o'zboshimchalik bilan tanlangan xususiyat yoki xususiyatni aks ettiruvchi imo-ishoralarni aks ettiradi ob'ekt yoki hodisalar.

Ramziy harakatlar - bu og'zaki xabarni tasvirlash, so'zni takrorlash yoki almashtirish uchun ishlatiladigan belgilar. Ko'rib turganingizdek, ikkala tasnif ramziy imo-ishoralalar va imo-ishoralarni ajratib olishga asoslangan bo'lib, ularning ma'nosini faqat ma'lum bir aloqa holati bilan bog'liq holda qabul qilishi mumkin. Bundan tashqari, imo-ishoralarning semantik xarakteristikasi ta'kidlangan bo'lib, uni og'zaki xabardan ajratib olib ko'rib bo'lmaydi va u orqali oydinlashadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Дементьев А.В. Способы и средства вербального отражения кинесики: (на материале современного англ. яз.) / Мос. гос.пед.ин-т иностр. яз. им. М. Тореза. - М., 1985. - 38с.
4. Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. - М.: Н аука, 1980. - 104 с.
5. Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Я рцева.- 2-е изд. - М.: Больш ая Российская энциклопедия, 1998. - 685 с.: ил.



**BANK TIZIMINI INNAVATSION ISLOH QILISH SHAROITIDA TIJORAT  
BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNING  
ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

**Rajabboyev Botirjon Odil o'g'li**

*Qoqon davlat universiteti*

*Iqtisodiyot yo'nalishi*

**Nishonqulov Shohruh Farxodjon o'g'li**

*Qoqon davlat universiteti*

*Iqtisodiyot yo'nalishi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, bank tizimida qay tarzda transformatsiya jarayoni olib borish kerak va qaysi choralar orqali inavatsion tizimni rivojlantirish kerakligi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Transformatsiya, innavatsion loyihalar, tijorat banklari, sector, kreditlash, ssenariylar.*

Bugungi kunda davlat banklaridan tashqari tijorat banklari ham tobora ko'payib bormoqda. Bank o'zi nima? Bank faoliyati qanday yuritiladi? Keling avval bu savollarga javob qidirib ko'rsak. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul-mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi. Ba'zi adabiyotlarda bank - bu korxonada deb ham izoh beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxonada sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Demak bundan ko'rinib turibdiki, bank bu pul oldi soddasi bilan shug'ullanuvchi yaxlit bir tizim. Nafaqat oldi-soddasi, balki pul saqlash va ko'paytirish vazifalari ham bor. Albatta davlat banklari ham tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi. Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in sifatida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukmron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi. So'ngi yillarda, "Mudis", "Standartand and Purs", "Fitch reytings" kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini barqaror deb baholamoqda. Lekin, yaxshilab e'tibor beradigan bo'lsak bu tizim mukammal emasligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, innavatsion tizimni shakillantirish yoki bu tizimni butkul yangilash orqali bank tizimini isloh qilishimiz mumkin bo'ladi. Bu degani albatta chet el bank tizimini jopriy qilish orqali amalga oshirildi. Bu jarayonlarni yaxlit so'z bilan "Transformatsiya" so'zi bilan atashimiz mumkin. Bu degani hozirgi vaqtda joriy bo'lib turgan tizimni butkul yangilash, tubdan isloh qilish deganini anglatadi. Chet el banklarini ustun tarafi, kredit va online tizimning yaxshi

shakillanganidi. Xorijda, odiygina Rossiyan misol qilib oladigan bo'lsak, u yerda kredit foizlari juda past, hatto 3% lisi ham mavjud. Bu esa pul aylanishini juda osonlashtiradi va bank jamg'armasida juda katta zahira saqlanishiga olib keladi. Endi online tizimni ko'rib chiqadigan bo'lsak, hatto, kredit olish va boshqa turli xil to'lovlar ham to'liq online tizimga o'tkazilgan. Bu esa haridorlarga juda qulayliklar tug'diradi va hatto, karantin sharoitida ham ish to'xtab qolmasligi va tibbiy hafsizlikka ham rioya qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Endi transformatsiyalash jarayoniga yondashadigan bo'lsak, 2020-yil 10- dekabrda Markaziy bankda Moliya vazirligi bilan hamkorlikda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki vakillari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida tomonlar O'zbekiston bank tizimini rivojlantirish istiqbollari muhokama qilib, tijorat banklarini, xususan, "Asaka" bank va "Aloqabank"ni transformatsiyalash jarayoniga alohida e'tibor qaratdilar. Hozirda mazkur banklarda o'tkazilgan tahlillar natijalariga asoslanib, YETTB banklarni transformatsiyalash bo'yicha ssenariylar ishlab chiqishi qayd etildi. Uchrashuvda YETTB Markaziy bankning tijorat banklari kapitallashuvini oshirish, yanada ishonchli o'sishiga erishish va iqtisodiyotning real sektorini kreditlash sifatini yaxshilash, shu jumladan, banklar kapitali tarkibiga xorijiy yangi investorlarni jalb etishga qaratilgan strategiyasini qo'llab-quvvatlashi ta'kidlandi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati YETTBga O'zbekiston bank tizimida har tomonlama keng ko'lamlil hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi, deb xabar beradi markaziy bank matbuot xizmati.

Uchrashuv yakunida tomonlar davlat ulushi mavjud banklarni xususiylashtirishga tayyorlash va transformatsiyalash yo'nalishida samarali hamkorlik qilishga ishonch bildirdilar. Yuqorida aytib o'tilgan uchrashuvni tahlil qilsak, bu transformatsiyalash jarayoni O'zbekiston banklariga juda katta yutuq olib keladi. Yevropa taraqqiyot va Tiklanish bankiga to'xtaladigan bo'lsak, 1990-yilda 42 a'zo mamlakat hukumatlari tomonidan 10 mlrd. ekyu mablag' bilan tashkil etilgan. 1991-yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar (davlat mulki va korxonalarini xususiylashtirish hamda monopoliyadan chiqarish; tadbirkorlikni rivojlantirish; islab chiqarish, xizmat ko'rsatish va moliya sektorlariga investitsiyalarni jalb etish; kapital bozorini shakllantirish va boshqa)ga moliyaviy yordam ko'rsatadi va ularning jahon iqtisodiy ham jamiyatiga tezroq qo'shilishiga ko'maklashadi.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki O'zbekistonda moliyaviy sektor va bank infratuzilmasini rivojlantirish, energetika majmui, turizmni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tabiiy resurslarni uzlashtirish, paxtani qayta ishlash va engil sanoatning boshqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish kabi etti yo'nalishda faoliyat yuritadi.

Keltirilgan malumotlarni tahlil qilib chiqsak va bu transformatsiyalash jarayoni keltiradigan foydalarni sanaydigan bo'lsak, birinchi navbatda, kreditlar foizini qisqarishi masalasi hal bo'ladi, ikkinchi navbatda esa, o'zbekiston banklari ham chet el banklari singari halqaro jahon bozoriga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi, uchinchi esa o'z valyutamiz ya'ni so'mni qadrsizlanishini kamiytiradi, to'rtinchisi esa iqtisodiyotni o'sishiga katta hissa qo'shadi, bular transformatsiyalashning eng asosiy ijobiy tomonlari.

**Xulosa.**

Yuqorida keltirilgan malumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, agar O'zbekiston banklari bu xorij banklari bilan hamkorlik qilib transformatsiya jarayonini muvofaqiyatli yo'lga qo'yvosa, albatta bu banklar qatoriga tez orada chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi va xalqimiz, jamiyatimiz manfaatiga yanada katta hissa qo'shgan bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. [https://uba.uz/uz/press\\_center/publications/3049/38249/](https://uba.uz/uz/press_center/publications/3049/38249/)
2. <https://yuz.uz/uz/news/ettb--ozbekiston-banklarini-transformatsiyalash-jarayoni-ishtirokchisi>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa\\_Tiklanish\\_va\\_Taraqqiyot\\_Banki](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Tiklanish_va_Taraqqiyot_Banki)

## OILADA OTA-ONALAR VA FARZANDLARNING BURCHLARI

Bozarova Zumrad Uralovna

Jabborov Elbek Eshpo'latovich

*Qashqadaryo akademik litsey o'qituvchilari*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada oilada ota-onalar va farzandlarning burchlari haqida soʻz yuritilgan. Har bir oilada tarbiyalanib voyaga yetuvchi farzandning kelajakda qanday inson boʻlib yetishishi birinchi navbatda ota-ona tarbiyasi va ma'naviyatiga bogʻliqdir.*

**Kalit soʻzlar:** *oila, ota-ona, farzand, burch, odob-axloq, yaxshilik, huquq.*

Oila muqaddasdir. Oila mustahkamligini, uning kelajagini ta'minlovchilar esa farzandlardir. Oila qurishning asosiy maqsadlardan biri nasl davomiyligini ta'minlash, zurriyot qoldirish, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish hamda uning kamolini ko'rishdan iboratdir. Har bir oilada tarbiyalanib voyaga yetuvchi farzandning kelajakda qanday inson boʻlib yetishishi birinchi navbatda ota-ona tarbiyasi va ma'naviyatiga bogʻliqdir.

Ota-onalar esa birinchi navbatda ishlarini farzand tarbiyasidan boshlamoqlari zarur. Chunki, tarbiya, odob-axloq kelajakda va har doim barcha yaxshiliklarning boshlanishidir. Ota-ona farzandlarining hayotda har tomonlama go'zal va kamchiliklardan xoli yashashlarini istashadi. Farzandlarini shu maqsadga yetkazish yo'llarini axtarib yashashadi. Shu maqsadda yo'lda to'g'anoq bo'ladigan barcha to'siqlarni yengib o'tishga intiladi. Afsuki, ba'zi oilalarda bolaning risoladagidek inson bo'lib yetishuvida moddiy ne'matlarning o'rnini yuqori baholab, tarbiyaning ahamiyatini unitib qo'yishadi.

Mutafakkirlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy manbalarda farzand tarbiyasi qachondan boshlanishi kerakligi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Erkak kishi uylanar ekan avvalo hayoli, odobli, soliha qizni tanlashi kerak bo'ladi. Xuddi shunday, qiz bola ham turmushga chiqayotganda kuyov bolaning yaxshi fazilatlariga ega ekaniga qanoat hosil qilishi lozim. Chunki tanlangan inson kelajakda farzandlarning onasi yoki otasi bo'ladi.

Rizouddin ibn Faxruddinning «Oila» asarida odob-axloq, oila va nikoh, oiladagi o'zaro munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi, bola tarbiyasidagi ayolning roli, ayollarning umumiy vazifasi, uylantirishda ota-onaning vazifalari xususida g'oyatda ibratli maslahatlar va yo'l-yo'riqlar berilgan. Olim mazkur asarda uylanish va xotinlar vazifasi borasida quyidagilarni ta'kidlaydi: «... uylanish masalasini islom shariati buyuk narsalardan deb bilib, oila tuzishni mamlakat tashkil qilish qadar kerakli hisoblab, bu borada bir qancha nizomlar ham chiqqanligi ma'lum. Oila uchun chiqqan nizomlarni, bir kunmas bir kun kelib, vaqti yetganda amal etuvchilar o'z oilalarini ko'rkam ravishda tuzar va nihoyat, ushbu kichkina mamlakatni idora qila olurlar.

Binobarin, bizga meros qolgan manbalarda bola tarbiyasining uch bosqichda amalga oshishi haqida ma'lumotlar ham qoldirilgan. Birinchisi – munosib jufti halol tanlash, ikkinchisi – homila davridagi parvarish, uchinchisi – farzand dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya. Turmush qurayotganda odobli va salohiyatli juft tanlash

muhimdir. Farzand tarbiyasidagi eng muhim bo'lgan bu bosqich to'g'ri asosda amalga oshsa, keyingi bosqichlar ham ijobiy natija berishiga zamin yaratiladi.

Bola tug'ilishidan avval ota-onalar o'zlari namuna bo'lishlari uchun turli illatlardan saqlanmoqlari, ruhiyatlarini pok tutishga urinmoqlari zarur. Bu haqida Abdulla Avloniy aytadi: «Tarbiya qilguvchilar tabib kabidirki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir». Bu gaplar zamirida yuksak tajriba samarasi o'laroq, tarbiyani tarbiyachi o'zidan boshlamog'i zarurligi tushuniladi. Zero, bola eshitganlaridan ko'ra ko'proq ko'rganlariga ergashadi. Farzand tarbiyasining homiladorlik davri ham muhim ahamiyatli davrdir. Bu bosqichda ayolga tashqi jihatdan va o'zi tomonidan katta e'tibor qaratish talab etiladi. Oilada bola tug'ilguniga qadar ayolga har tomonlama moddiy-ma'naviy sharoit yaratib berilishi kerak. Farzandning sog'lom tug'ilishi uchun ayolni har qanday yoqimsiz holatlardan, barcha og'ir jismoniy vazifalarni bajarishdan saqlash lozim. Har bir oilada ayolning homiladorlik vaqtida unga kerakli bo'lgan barcha yaxshi sharoitlarni yaratish lozim. Shunday holatdagina tug'ilajak farzandimizni har xil kasalliklardan va ruhiy jihatdan asragan bo'lamiz.

Buyuk kishilarning ota-onalari farzandlari tug'ilishidan avval ona qornida qanday tarbiya berganliklarini bilish biz uchun zarurdir. Rivoyatlarga ko'ra, Sobit ismli yigit bir tishlam olmani iznsiz yeb qo'yib, egasidan rozilik olish uchun chekkan mashaqqati – taqvodorligi tufayli Imomi A'zam Abu Hanifadek ulug' olimning otasi bo'ldi. Bu voqeada katta hikmat va oliy ibrat bor.

Inson ma'naviyati va aqliy imkoniyati uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilanadi. Har bir holatda insonning go'zal tarbiyasi uning eng beqiyos boyligi hisoblansa, noto'g'ri tarbiya esa uning baxtsizligi va halokatidir. Shuning uchun to'g'ri tarbiya berish maqsadida maktab tarbiyasidan avval oila tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Tarbiya borasida Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» kitobida bunday keltiradi: «Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomoni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin, insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar».

Oilada farzand tarbiyasida ota-onaning o'zaro muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan «ma'naviy kasal» insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasi avvalo bu - har birimizning konstitutsion burchimiz, deb qarshlari lozim. Zero, Konstitutsiyamizda ham ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, degan majburiyatimiz bor. Shunday ekan, biz ota-onalar barchamizning birinchi navbatdagi eng muhim ishimiz farzand tarbiyasi ekanligi unitmasligimiz lozim. Bu borada Payg'ambarimiz (alayhissalom): «Birorta ota o'z farzandiga odob-axloqdan afzalroq meros berolmaydi», deb marhamat qilganlar. Yana bir hadisda aytilishicha, xushxulqlik va muloyimlik hamma ne'matlarning yaxshirog'i va sifatlarning go'zalrog'idir.

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРДА ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

**Хонимкулов Анвар Рахимкулович**

*ТДПУ Ҳарбий таълим факултети катта уқитувчиси*

**Аннотация:** *мазкур мақолада олий таълим муассасаларида “Чақириққача ҳарбий таълим” йўналиши ўқув дастурлари, ишчи режалари, “Ҳарбий ватанпарварлик асослари” ва бошқа шу йўналишларга тааллуқли ўқув фанлари мазмунини такомиллаштириши талабаларда ватанпарварлик даражасини оширишга хизмат қилиши айтиб ўтилади.*

**Калит сўзлар:** *5111500 – Чақириққача ҳарбий таълим йўналиши, “Ҳарбий тарих” ўқув фани, ватанпарварлик, ички ва ташқи таҳдидлар, мафкуравий иммунитет*

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февралдаги 140-сон қарори асосида шакллантирилган “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш” Концепциясида: “...миллий армиямизга жисмонан бақувват ва маънан етук ёшлар зарурлиги, ҳарбий хизмат ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун муқаддас бурч экани ҳақидаги тушунчани ҳамда бу борадаги назарий-амалий кўникмаларни мустаҳкамлаш; ёшларда ён атрофимиз ва жаҳонда рўй бераётган сиёсий-ижтимоий жараёнларга миллий манфаатларимиздан келиб чиққан ҳолда ёндашиш кўникмаларини, турли ички ва ташқи таҳдидларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш; ҳар қандай мураккаб вазиятларда тезкор ва мустақил қарор қабул қилиш, замонавий ҳарбий-техника воситаларидан самарали фойдаланиш малакасига эга ёшларни тарбиялаш зарур”<sup>22</sup> эканлиги алоҳида таъкидланади. Шу жиҳатдан олганда, педагогикада “ватанпарварлик” категорияси мамлакатнинг муқоффа қудратини белгилайдиган ва ўсувчан бирликда олинган иқтисодий, илмий-техникавий, маънавий-сиёсий ва ҳарбий потенциалига асосланган тушунча сифатида талқин қилинади. Бинобарин, талабаларда ватанпарварлик даражаси кўрсаткичларини педагогик таҳлил қилиш, баҳолаш, квалиметрик ўлчаш механизмларини илмий асосда ташкил қилиш, такомиллаштириш, тестология параметрларини аниқлаш бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлган ижтимоий-педагогик жараёндир.

Олий таълим муассасаларида тайёрланаётган бўлажак чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларини Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий йўналишини самарали омили сифатида белгиланади.

<sup>22</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февралдаги 140-сон қарори асосида шакллантирилган “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш” Концепцияси -Т.; 2018.www.lex.uz ; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.02.2018 м., 09/18/140/0816-сон.



ОТМларда ўқитиладиган “Ҳарбий қонунчилик асослари”, “Офицер ҳарбий раҳбар этикаси”, “Тактик тайёргарлик”, “Ҳарбий тайёргарлик”, “Ҳарбий топография” каби ўқув фанлари ўқитилади. 1 курс талабалари учун жами ўқув режа асосида “Чақирикқача ҳарбий таълим йўналиши”да таҳсил олаётган 1-босқич талабалари учун мутахассисликка хос фанлар 516 соатни, 2 курсда 516 соатни ташкил қилади. Шундан келиб чиқиб, ОТМ талабаларида ватанпарварлик даражаси кўрсаткичларини педагогик таҳлил қилиш ва баҳолаш моделини амалиётга татбиқ этиш учун: 5111500 – Чақирикқача ҳарбий таълим йўналишида 2,3,4,5,6-семестрлар мобайнида ўқитиладиган ва 298 умумий ўқув соатини ташкил қиладиган “Тактик тайёргарлик” ўқув фанида талабаларга тажрибавий дарслар, дарсдан ташқари машғулотлар ташкил этилди. Тажрибавий дарслар ўқув режа асосида қуйидаги мавзуларда инновацион ва интерфаол методлар воситасида ўтказилди. Дарсларда “Ўзбекистон Республикаси Мудофаа доктринасини мазмуни ва моҳияти. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларини қурилишининг сифат босқичлари”, “Мотоўқчи батальонининг тузилиши, қурол-аслаҳа ва жанговар техникалари”, “Эҳтимолий душман пиёда батальонининг тузилиши ва қуролланиши”, “Замонавий умумқўшин жангининг моҳияти, уни ўзига хос хусусиятлари ва унга қўйилган талаблари” каби мавзулар тадқиқот доирасида ташкил этилди.

“Чақирикқача ҳарбий таълим” йўналишида таҳсил олаётган талабаларга “Ҳарбий тарих” ўқув фани уларни ҳарбий раҳбар мутахассислиги бўйича тайёрлашда буюк саркардалар Амир Темур, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Жалолиддин Мангуберди ва бошқа ҳарбий намоёндаларнинг урушлари тарихи, уруш стратегияси ва тактикаси ҳақида маълумотлар бериш, бўлажак Ватан ҳимоячиси бўлган ёшларга Қуролли Кучлар сафидаги ҳарбий хизмат бўйича билим, кўникма ва малакани шакллантиришга хизмат қилади.

“Чақирикқача ҳарбий тайёргарлик” ижтимоий –гуманитар фанларнинг моҳият-мазмуни талаба – ёшларнинг сиёсий савиясининг ўсишига, дунёқарашини шакллантиришга, ўтмишда бўлган ва ҳозирги кунда бўлаётган халқаро сиёсий воқеаларни тўғри баҳолашга, жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий, маданий тараққиёти муаммоларига онгли муносабатда бўлишга ўргатиши аниқ бўлганлиги боис, 24 талаба ёшларнинг таълим ва билимларга бўлган иштиёқини кучайтиришга, мустақил дунёқараш, миллий ифтихор ва умуминсоний қадр-қиммат туйғусини шакллантиришда катта аҳамият касб этиши тажрибавий дарслар асосида тасдиқланди.

Ҳарбий ватанпарварлик – ижтимоий-педагогик категория бўлиб, ҳар бир фуқаронинг ўз она юрти маданияти, моддий ва маънавий мероси ва қўлга киритган муваффақиятидан ғурурланиш, миллий ифтихор ҳиссидир. Шу юртга, фуқаролигига, анъаналарига, тилига бўлган садоқатлилик ва даҳлдорлик туйғусидир. Ўзга миллатлар олдида ўз Ватанинг қадрланишини ва халқининг эъзозланиши учун ҳарбий соҳада намоён этадиган ҳаттиҳаракат, истак, хоҳиш. Бинобарин, талабаларда ўз халқига садоқатлилик, унинг истикболи, манфаати йўлида фидойилик кўрсатиш,

Ватан сарҳадларини ҳимоя қилиш ва шунга шай туриш каби сифатларни камол топтириш муҳим аҳамиятга эга.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Узоқов А.М. Талабаларда ҳарбий ватанпарварлик туйғуларини ривожлантириш орқали уларни ҳуқуқбузарликка ундовчи мотивлардан халос этиш.// Вояга етмаганлар ўртасида жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларни бартараф этишнинг ижтимоий педагогик ва ҳуқуқий асослари. Республика илмий амалий анжумани. Тошкент 2019, 135-136.

2. Узоқов А.М. Олий таълим муассасалари талабаларининг ватанпарварлик даражасини баҳолаш мезонлари. // “Академик лицей, касбхунар коллеж ва умумтаълим муассасаларида чақириққа қадар бошланғич тайёргарликнинг долзарб муаммолари” ва “Чақириққача ёшларга йўналтирилган ахборот- психалогик хуружлар ҳамда маънавий таҳдидлар”. Илмий амалий конференция. Тошкент 2019

3. Узоқов А.М. Таҳсил олувчиларда ватанга даҳлдорлик туйғусини шакллантириш. // “Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий анжуман. Чирчиқ 2019

4. Узоқов А.М. Ҳарбий кўрик-танловлар асосида вояга етмаганларни тарбиялаш. //”Вояга етмаганлар орасида жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни аниқлаш ва бартараф этиш: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани.-Тошкент,2017.

5. Узоқов А.М.Подготовка студентов к основным военно-прикладным навыкам на учебных и тренировочных занятиях по допризывной подготовке.// “Глобаллашув шароитида ватанпарварлик тарбиясининг маънавий маърифий технологиялари” республика илмий амалий конференция. Тошкент 2019

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM – PROFESSIONAL ARMIYA  
YARATISH POYDEVORI**

**Honimqulov Anvar Raximqulovich**

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat  
pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Chaqiriqqacha va chaqiruv yoshidagi yoshlarni ta'lim-tarbiyasi bo'yicha vazifalarni to'laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o'zishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini yetishtirish asosi bo'lib xizmat qilishi haqida bayon qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, vatanparvarlik, armiya, harbiy xizmat*

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari o'sib kelayotgan avlodni jismoniy, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik va davlat mudofaasi hamda mehnatiga shay holda turish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlashning asosiy vazifalari boshlang'ich harbiy bilimlar, jismoniy tayyorgarlik, o'z Vatanning harbiy tarixini, ramzlarini o'rganish, jangchi va vatanparvar fuqaroni shakllantirishni qamrab oladi. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi» kursining vazifasi yoshlarga ta'lim jarayonida quyidagilarni o'rgatishdan iborat:

- o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilish;

- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shinlarning vazifalarini;

- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa haqida» «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to'g'risida»gi Qarorini, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi asosiy qoidalarini;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rganishni va anglashni;

- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishishni;

- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma'nau mustahkam bo'lishni;

- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirishni;

- yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi

qo'shinlaming jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. Chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi o'smirlar bilan ishlash ko'p qirrali va o'ziga xos jarayondir. Chunki ularning barchasida ham hayotga o'z qarashlari, xarakteri va an'analari barqarorlashmagan. Yoshlarimiz kuch-quvvatga, g'ayrat shijoatga to'la va ularda o'zini namoyon etish hissi juda kuchlidir, biroq buni jamiyat yoki jamoa foydasiga yo'naltirishni hamma yoshlar ham uddalay olavermaydi. Shuning uchun bunday yoshlarning yonida doimo ularning qalblariga ezgu an'analarni, axloqiy tamoyillarni, vatanparvarlik va insoniylik tuyg'ularini singdirib boradigan sadoqatli va vafodor do'sti, yaqin maslahatchisi, mohir ustoz bo'lgani ma'qul deb hisoblanadi. Vataniga muhabbatsiz, yurt himoyachisi bo'lishdek kasbga faxr tuyg'usiz, o'z tarixi va ajdodlar an'alarini hurmatlamaydigan tarbiya bilan kuchli armiya va barqaror davlat qurib bo'lmaydi. Chaqiriqqacha va chaqiruv yoshidagi yoshlarni ta'lim-tarbiyasi bo'yicha vazifalarni to'laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o'zishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini yetishtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni umumiy harbiy majburiyatning mohiyatini ochib beradi, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, haqiqiy harbiy xizmatga chaqirish va uni o'tash tartibini, Qurolli Kuchlarni to'ldirish tamoyillarini va armiya uchun rezervlar tayyorlash tartibini aniqlab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Vatanni himoya qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi va shu maqsadda Qurolli Kuchlar tuzilganligi va «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonun asosida O'zbekiston fuqarolarini davlat mudofaasi bo'yicha majburiyatlari aytib o'tilgan. Unda Vatanni himoya qilish har bir O'zbekiston fuqarosining qonuniy burchi ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Konstitutsiyaning ushbu qoidalari va talablaridan kelib chiqqan xolda, bugungi kunda yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsad yo'lida, O'zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi qonuni asosida o'rta maxsus o'quv yurtlari dasturiga kiritilgan chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani xizmat qilishi kerak.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkillash chaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturi talablariga muvofiq amalga oshiriladi va uni to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlashi kerak. O'quv yurti direktori quyidagilarni belgilaydi:

– Chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini boshlanishi va uning yakunini;

–O'quvchilarni avtomatdan jangovar patronlar bilan o'q otishga tayyorgarligi va HVT bo'yicha tadbirlarni o'tkazish muddatlari;

– Chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini boshlanishiga bag'ishlangan buyruq mazmunini;

– Chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga me'yoriy va rejalashtiruv xujjatlarini ishlab chiqishga ko'rsatmalar beradi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'quv predmeti sifatida o'quvchilarni, ya'ni bo'lajak chaqiriluvchilarni yosh askar kursi xajmidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga, ularning harbiy – vatanparvarlik tarbiyasini maqsadga

yo'naltirilgan xolda olib borishga, o'quvchi yoshlarda yuksak siyosiy ongini, Vatan himoyasi muqaddas ekanligini ongli ravishda tushunishni, e'tiqodli, matonatli va jasur Vatan himoyachilarini tarbiyalashga imkon yaratadi.

Bu vazifalarni bajarish o'quv yurtlari, ayniqsa u yerda faoliyat yuritayotgan chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarlari zimmasidadir. Chunki ular «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi qonuni asosida o'quvchi yoshlarni chaqiriqqacha harbiy ta'lim va harbiy - vatanparvarlik tarbiyasini maqsadga yo'naltirilgan holda olib boradilar. Shu bilan birga o'quv yurtlarining pedagogik jamoalari o'quvchi yoshlarni chaqiriqqacha harbiy ta'lim va jismoniy tarbiyasining sifati va samaradorligini doimo oshirishga harakat qilishlari kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Akbarov, Sh.Tilavoldiyev. "Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi"dan uslubiy tavsiya. "Farg'ona." 2005-yil
2. CHQBT dasturi. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 21 oktyabrdagi 396-buyrug'i bilan tasdiqlangan.
3. Uzoqov A.M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining vatanparvarlik darajasini baholash mezonlari. // "Akademik litsey, kasbhunar kollej va umumta'lim muassasalarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlikning dolzarb muammolari" va "Chaqiriqqacha yoshlarga yo'naltirilgan axborot- psixalogik xurujlar hamda ma'naviy tahdidlar". Ilmiy amaliy konferensiya. Toshkent 2019

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYA SIYOSATI

**Hilola Mo'minova Qobuljon qizi***Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mehanzatsiyalash muhandislari instituti talabasi***Ilmiy Rahbar: Suhrob Umarov Rustamovich***IFD Professor, Toshkent irrigatsiya va qishloq  
xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada aholi salomatligini saqlash uchun yurtimizda tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibor va bu yo'nalishning rivoji uchun olib borilayotgan say harakatlar ya'ni kiritilayotgan xorijiy va mahalliy investitsiyalar, shuning barobarida ko'zga tashlanishi mumkin bo'lgan qator kamchiliklar tog'risida muallifning taklif va xulosalari va sohada amalga oshirilayotgan ishlarga shaxsiy fikr-mulohazalari keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tibbiyot, Pandemiya sharoiti, xorijiy investitsiyalar, Prezident Murojaatnomasi.*

**Kirish.** XXI-asr texnologiya asri sifatida tarixga muhrlanayotgan bir vaqtda aynan tibbiyot sohasida ro'y bergan inqilobiy vaziyatlar bu boradagi fikrimizni tamom ila o'zgartirib yubordi. Bu sohaning rivojlanishida butun dunyo tibbiyot olimlarining hissasi katta bo'lishi bilan bir qatorda, davlatlar aro olib borilayotgan faol investitsion harakatlarning ham o'rni beqiyosdir. Chunki aynan xorijiy investitsiyalarni bu sohaga jalb qilinishi natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning tibbiyot sohasidagi imkoniyatlari ham ortib bormoqda. Buning natijasida mamlakat aholisining salomatligini saqlash uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ham tobora yaxshilanib bormoqda. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. So'ngi yillarda O'zbekiston ham shunday davlatlar qatorida bo'lib Investitsion Jozibador mamlakat sifatida butun dunyoda etirof etilmoqda.

Yuqorida aytib otilganidek tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibor juda katta va bunda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan yurtimizda ham tibbiyot rivoji uchun ko'plab ishlar amalga oshirilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida qator farmonlari aytib o'tilgan edi. Ammo 2020-yil mart oyida yurtimizga kirib kelgan "Kورونا virus" kasalligi tufayli axolining salomatligi havf ostida qolishi natijasida ya'ni kasallikni davolash uchun malakali kadrlarning yetishmagani, kerakli



tibbiy asbob-uskunalarining kamligi, dori-darmon yetkazib berishdagi kamchiliklar va barcha bemorlarni davolash uchun kasalxonalarining yetarli darajada bo'lmagani sababli bu sohani tubdan isloh qilishga to'g'ri keldi va aynan Pandemiya sharoitida bor e'tibor shu sohaning rivoji uchun qaratildi. Buning natijasida keyingi 3yil davomida sog'liqni saqlash sohasini isloh etish bo'yicha 170dan ortiq normativ hujjatlar qabul qilinib, Prezidentimiz farmoni bilan 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kontsepsiyasi ham tasdiqlandi. Unga muvofiq xususiy tibbiyot muassasalari shugullanishi mumkin bo'lgan tibbiy ihtisosliklar 50tadan 126tagacha ko'paydi, xorijiy tibbiyot uskunalarini olib kirayotgan tadbirkorlar va inverstolar uchun umumiy qiymati 200million AQSH dollari miqdorida imtiyozli kreditlar liniyasi ochildi. Bundan tashqari tibbiyot sohasidagi yangi OTM muassasalari va xorijiy mamlakatlar universitetlari filliyallari tashkil etilishi to'grisida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Tibbiy sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish to'g'risidagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida aytib o'tilgan. Ushbu qaror doirasida endilikda investorlar o'zlariga qulay bo'lgan muhitda, o'zlari istagan tibbiyot muassasasiga investitsiya kiritishi mumkin bo'ladi. Bu borada Qo'shni Davlatlarda ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda jumladan Janubiy Qozoqiston tibbiyot akademiyasida Toshkent davlat stomotologiya instituti bilan birgalikda qo'shma fakultet o'z faoliyatini boshladi va infratuzulmani yanada yaxshilash hamda qo'shimcha laboratoriyalar tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida qator amaliy ishlar rejalashtirildi. Yana shuni takidlashim joizki tibbiyot sohasining rivoji va unga jalb qilinadigan fail investitsiyalarning ko'lamini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida qator taklif va tavsiyalar berib o'tdi hamda ushbu sohaga ko'proq e'tibor berilishi va yuqoridagi qarorlar ijrosining taminlanishining bisboti tariqasida "2021-Yoshlarni qo'llab quvvaylash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili deb e'lon qildi.

**Xulosa.** Xulosa va taklif o'rnida shuni aytyshim mukinki Tibbiyot sohasining jadallik bilan rivojlanishi uchun xususiy sog'lomlashtirish muassasalarining sonini yanada kengaytirish va mutahasislarimizning malakasini yanada oshirish maqsadida chet elga o'qish uchun yuborish yoki turli xil davlat mukofotlari va stipendiyalarini tasis etilishi va buning uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yuqoridagi muammoli vaziyatni biroz bo'lsada yumshatilishiga va sohaning rivojlanishiga zamin yaratadi deb o'ylayman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B. Mamatov, D. Xujamkulov, O.Nurbekov investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish, Toshkent Iqtisod-Moliya» 2014
2. D.YU. XUJAMKULOV, D.A. ISMAILOV INVESTITSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH O'quv qo'llanma, Toshkent – 2019
3. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

**IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK  
O'YINLARDAN FOYDALANISH****Teshaeva Dilrabo Gafurovna***Buxoro viloyati G'ijduvon tumani**43-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

Mustaqillikdan keyin ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada anchagina ishlar ham amalga oshirildi. O'quvchilarimiz ham endi ancha zukko, topqir va qiziquvchan yoshlarga aylanib borishmoqda. Bu esa o'z navbatida pedagoglarni yanada o'z ustilarida ishlash va malakalarini oshirishga turtki bo'lmoqda. Bugunning bolasi uchun eski uslubdagi darslar oddiy va quruq darslar bo'lib tuyulishining sababi shundaki, ular texnika taraqqiy etib borayotgan

zamon bilan hamnafas yashashmoqda va fikrlashmoqda.

Bugungi kunda yoshlardagi bu o'zgarish va yangiliklarga bo'lgan qiziqish o'qituvchidan dars jarayoniga texnologik yondashuvni va dars jarayonida turli xil o'yin va metodlardan foydalanishni talab etmoqda. Ko'plab o'qituvchilarimiz hatto har bir darsini texnika vositalari va turli xil mavzuga oid o'yinlarni darsga olib kirgan holda tashkillashtirmoqdalar.

Maktab ta'limini rivojlantirishni asosiy nuqtasi sifatida maktab o'quvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish ularni jamiyatda faol ishlash, o'z taqdirini belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'z – o'zini ro'yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'zlashtirishda maktab o'quvchilari egallashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va matakalarga Davlat tomonidan qo'yiladigan talablar bayon qilinadi. Respublikamizning kelajagini barpo qiluvchi yosh avlodga hozirgi zamon fanining yangiliklarini, uning murakkab qirralarini o'rgatish bilan bir qatorda tarixiy merosimizni o'rganganga imkoniyat tug'dirilishi lozim. Iqtisodiy bilim asoslari fani Davlat ta'lim standartining me'yor ko'rsatkichlari dinamik xarakterda bo'lib, ta'lim jarayonining takomillashuvi, fan va texnika yutuqlarining natijalari bilan to'ldirilib boriladi. O'rta umumta'lim maktabining bitiruvchisi 8-9-sinflarda "Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o'rgangandan so'ng, quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- iqtisodiy resurslarning ehtiyojlarga nisbatan cheklanganligi muammosi, imkoniyatlar ichidan birini yoki bir nechtasini tanlashga olib kelishini tushunib yetish;

- tanlovning muqobil qiymatini aniqlay olish va uni tanlov natijasini baholashda qo'llay olish;

- iqtisodiy qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish va uning omillarini tavsiflash;

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash

hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etadi

Ta'lim sohasida Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy –texnika taraqqiyoti davrida erkin demokratik jamiyatga moslashgan, Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol, ma'navan yetuk, barkamol, har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsad yo'lida amalga oshirish uchun ta'lim tarbiya jarayonida hozirgi zamon ta'lablariga mos keluvchi yangi, turli didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Iqtisodiy bilim asoslari darslarida mavzularini o'qitishda innovatsiyon texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagi didaktik o'yinlar tavsiya etiladi. "Sherigini top", "Idrok xaritasi", "Zinnama zina", "Geometrik domino", "Tushunchalar tahlili", "Baliq skeleti", va hokoza didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini ortirishimiz ularni fikrlash qobiliyatini o'stirishimiz mumkin. O'tilgan mavzularni mustahkamlashda uchun "Aqliy hujum", "Tezkor savol javob", "Ha, yoq" oyinidan foydalanishimiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak "ha yoq" oyini, bu o'yin o'quvchini tez va to'g'ri fikrlashga o'rgatadi. Bundan tashqari hozirgi globallashtirish zamonida AKTdan foydalantirish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatni globallashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar yangi tushimchalar haqida rasmiy bilimlarni to'plamasdan, balki ularni tushunib olishlari juda muhim. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitish yanada samarali bolishi uchun o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar AKTni ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag'batlantirishlari zarur.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan, ya'ni noa'niq muommoli vaziyatlar vujudga kelganda qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni o'quvchi ongiga singdirib tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limning sifat bosqichi davrida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishga joriy etish davr talabi bo'lib, bu nafaqat ta'lim samarasini oshirishgacha balki iqtisodiyotimizni rivojlanishiga ijobiy samara beradi.

O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda fanga oid bilim, konikma, va malakalarining dars jarayonlarida singdirish bilan birgalikda ularni kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim bu esa o'z ijobiy samarasini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'affarova T. Maktabda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent-2017.

## IT ZAMON TALABI

**Umarova Gulshan Qaxorovna***Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi***Ruzimuratova Gavxar Shomaxamatovna***Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqoladan shularni shularni bilib olish mumkinki, bunda hozirgi zamon talablariga ko'ra IT soha yani axborot texnologiyalarini oshirish maqsadida O'zbekistonda bu sohaning rivojlanishi uning yonalishlari va shunga asoslanib olingan qonunga o'zgartirishlar kiritgani haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *IT soha, yo'nalishlari, One Million Uzbek Coders*

IT — ingliz tilidan olingan «**Information Technology**» so'zlarining qisqartmasi bo'lib, o'zbek tilida «Axborot texnologiyalari» deb yuritiladi. Shunday bo'lsa ham, biz bu so'zni IT ko'rinishida talaffuz qilamiz va ishlatamiz.

**Information Technology** bu — axborotni hosil qilish, uni yig'ish, tarqatish, saqlash, qayta ishlash, himoyalash kabi vazifalarni bajaruvchi hisoblash texnikasidir. Hozirgu kunda hisoblash texnikasi vazifasini kompyuter bajarmoqda, shunday ekan IT so'zi ishlatilganda asosan kompyuter texnologiyasi tushuniladi.

2020 yil nafaqat butun dunyoni qaysidir ma'noda larzaga solgan tarixiy voqealari, balki bugungi kunga qadar sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan rivojlanish jarayonlari bilan esda qolarli bo'ldi. Misol tariqasida, Ilon Mask raketani ishga tushirib kosmosga ikkita kosmonavtni uchirishga va ularni butun va sog'-salomat yerga qo'nishiga erishdi, 5G antennalarini kosmosda ishga tushirdi, buning natijasida yaqin kelajakda butun dunyo bo'ylab yuqori tezlikdagi Internet paydo bo'ladi. Rivojlanish O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Mamlakatimizda IT sohasi faol rivojlana boshladi, bu esa o'z navbatida IT mutaxassislari, IT kompaniyalar va mutaxassisliklari bo'yicha o'qitiladigan kurslarga bo'lgan katta talab ko'rinishida o'z samarasini beryapti.

Bugungi kunda deyarli barcha hududlarda va O'zbekiston poytaxtida joylashgan IT markazlar tufayli, har bir inson qancha yoshi va qayerdaligidan qat'iy nazar, kelajak kasblarini o'rganish imkoniyatiga ega.

Hali bilmaganlar uchun IT markazlar - bu raqamli texnologiyalarni o'rganishingiz mumkin bo'lgan aholining barcha qatlamlari uchun yaratilgan o'quv markazlari. IT markazlarda quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish mumkin:

- Kompyuter savodxonligi;
- Chuqurlashtirilgan MS Office;
- Veb dasturlash tillari;
- Grafika va dizayn asoslari;
- Mobil ilovalarni yaratish;

- Python dasturlash tili;
- Arduino va LEGO Mindstorms asosida ishlaydigan mobil robotlar;
- ESPORTS: CS: GO, Dota2, FIFA20.

One Million Uzbek Coders - yana-da qulay dasturlash kurslarining navbatdagi manbai yurtimizda joriy qilindi. Ularning shu darajada qulayliklari borki, darslar o‘zbek va ingliz tillarida mutlaqo bepul tarzda o‘tiladi. OMUC - bu yaxshi o‘qituvchilarni qidirishga vaqtini yo‘qotilmasdan dasturlashni o‘rganishni istagan odamlar uchun yaratilgan onlayn platforma. OMUC 4 yo‘nalish bo‘yicha kurslarni o‘z ichiga oladi: Android (Google bilan hamkorlikda), Front-end development, Full-stack development va Data Analysis.

“One Million Uzbek Coders” loyihasi mahalliy IT ta’limni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston aholisiga soha mutaxassisliklarini o‘zbek tilida arzon va sifatli o‘qitish imkonini beradi.

**Xulosa:** Bu maqoladan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora tadbirlar davlat organlari va shu kabi tashkilotlarining malakali IT-mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadida nafaqat O‘zbekistonda balki, chet davlatlarda ham bu kabi ishlar olib borilmoqda va davlatlar o‘rtasida shu sohani kuchaytirish maqsadida o‘zaro hamkorlik aloqalarini yanada oshirishmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.uz.m.wikipedia.org
- 2.www.lex.uz
- 3.www.fayllar.org
- 4.www.texnomen.uz
- 5.www.m.xabar.uz

## EMOJILAR TUSHUNCHASI VA UNING YURIDIK TABIATI

**Lapasov Asliddin To'liq o'g'li***Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

Bugungi kunda tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlar orasida virtual olamda sodir bo'layotgan munosabatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Virtual olamda huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi, bekor bo'lishi insonlar o'rtasida, inson va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt o'rtasida ham sodir bo'lmoqda. Tabiiyki, bu munosabatlardan kelib chiqadigan masalalar qaysidir huquq sohasi yoki huquq tarmog'i bilan tartibga solish zaruratini vujudga keltiradi. Bugungi kunda insonlar virtual olamda o'zaro munosabatlarga kirishayotganlarida o'zlarining erki-irodalarini so'zlar bilan emas balki muayyan belgilar orqali ya'ni emojilar bilan ifodalash holatlari ham kuzatilmoqda. Bu jarayonda keyinchalik shaxsning o'z erkini aynan shu munosabatni, shu ma'noni nazarda tutgan yoki tutmaganlik masalasi hamon javobsiz qolmoqda. Shu bois ham so'zlar yozilmaganligi, shaxsning ovozi, gapi ifoda etilmaganligi hamda o'zining xatti-harakatlari ko'rsatilmaganligi va buning o'rniga turli xil ko'rinishni ifodalaydigan inson erki-irodasini ko'rsatuvchi emojilarni huquqiy tartibga solish lozim deb hisoblaymiz. Buning asosiy sababi shundaki, emojilarni qabul qilgan insonlarda qarama qarshi tarafning ya'ni uni jo'natuvchining biror holatga rozi yoki rozi emasligi tushunilishi mumkin.

Emojilar - bu tilimizning o'ziga xos xususiyati. Ular so'zlarning yolg'iz o'zi qila olmaydigan hissiyotlarni yetkazish uchun ishlatiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra dunyoda bir kunda 41 milliarddan ziyod elektron xabar yuboriladi va 6 milliarddan ortiq xabarlar emojilar orqali almashiladi. Miltillovchi yoki jilmaygan yuz kabi emojilardan gapning ma'nosiga jumla ma'nosini qo'shib uning ma'nosini to'liq o'zgartirish uchun foydalanish mumkin. Bularning barchasi shuni anglatadiki, emojilar daliliy ma'noga ega va ularni biror bir jarayonga huquqiy baho berayotganda e'tiborsiz qoldirilishi yoki chiqarib tashlanishi aslo mumkin emas. Bugungi kunda emojilar bilan bog'liq eng yirik muammo bu ularning standart ma'nosi yoki ta'riflarining yo'qligidir. Buning natijasida, zud zallarida ular bilan bog'liq holatlar ba'zi qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda.<sup>23</sup>

Huquq sohasidagi ba'zi olimlar emojilar shunchaki belgilar ekanligi va ular hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligini ta'kidlashadi. Ammo, dunyo olimlarining akasriyati ularning huquqiy oqibati mavjudligi va ularni tartibga solish lozim degan to'xtanga kelishmoqda. Sababi ular Amerika Qo'shma Shtatlarining Koliforniya universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan asoslashga harakat qilishadi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, inson miyyasi inson yuzini ko'rganda qanday reaksiya bildirsa, emojilarni ham ko'rganda ham xuddi shunday reaksiya bildirar ekan. Bu shuni ko'rsatadiki, emojilar judyam kuchli ta'sir kuchiga ega ekan. Albatta, emojilar inson hissiyotlarini oson va tez suhbatdoshga yetkazish uchun ajoyib vosita hisoblanadi, Ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro

<sup>23</sup> OpenLearn Free Educational Course: A brief history of communication: hieroglyphics to emojis, <https://www.open.edu/languages/brief-history-hieroglyphics-emojis/content-section-4> "The birth of writing."



suhbatga kirishayotgan suhbatdoshlar shunchaki yozish orqali ularda qanday hissiyotlar kechayotganligini va ular nima demoqchi ekanligini bilish judayam qiyin. Mana shunday vaziyatda emojilar insonlar o`rtasidagi muloqatni osonlashtirdi.<sup>24</sup>

Xorijiy mamlakatlarda emojilar bilan bog`liq vaziyatlar judayam ko`p uchramoqda. AQSH ning taniqli huquqshunos olimlaridan biri Eric Goldman emojilar bilan bog`liq huquqiy vaziyatlar asr boshiga qaraganda sezilarli o`sgani va uni o`z vaqtida hal qilinmasa keyichalik ko`plab tushunmovchiliklarga olib kelishini ta`kidlaydi. Emojilar bilan bog`liq holatlar Amerikadagi sud zallarida 2000-yillar boshlarida 4 yoki 5 ta holatda kuztilgan bo`lsa, bu holatlar birgina 2018-yilning o`zida 84 holatda emojilar bilan bog`liq ishlar sud zalilarida muhokama qilingan. Ko`rinib turibdiki, bu holatlar kunda kunga oshib bormoqda buning asosiy sababi shundaki, bugungi kunda dunyo bo`ylab insonlar o`rtasida bir kunda 41 milliarddan ortiq elektron xabarlar almashiladi va shulardan 6 milliarddan ortig`i emojilar orqali almashiladi. Ko`rinib turibdiki, bu judayam kata ko`rsatkich hisoblanadi va ular bilan bog`liq huquqiy muammolarning ham vujudga kelishi tabiiy hol.<sup>25</sup>

Hozirda emojilar huquq sohasining ko`plab tarqalmoqda. Ayniqsa, emojilar shartnomaviy munosabatlarga o`zining ta`sirini o`tkazmoqda. Shartnomalar tomonlarning istak va xohishlariga qarab, og`zaki, yozma va boshqa bir qancha usullarda tuzilishi mumkin. Axborot texnologiyalarning rivojlanishi oqibatida hozirda shartnomalar ijtimoiy tarmoqlarda ham tuzilmoqda. Bu shartnomalar taraflarning xohshiga qarab o`zaro yozishmalarda yoki bo`lmasam email pochta orqali ham bo`lishi mumkin. O`zaro yozishmalar yoki email pochta orqali tuzilgan shartnomalarda emojilarning o`rni qandayligi, ular shartnomalarda insonlarning kelishuvda nazarda tutilgan shartlarga rozi yoki rozi emas ekanliklarini ko`rsata oladimi yoki yo`qmi kabi savollar barcha uchun qiziqarli bo`lishi tabiiy albatta. Bu savollarga ya`ni emojilar shartnoma huquqida qanaday ahamiyatga ega ekanligini bir necha misollar orqali ko`rishimiz mumkin.

Shu sababli ham dunyoning ko`plab rivojlangan mamlakatlarida emojilar bilan bog`liq vaziyatga turlicha yechimlar taklif qilinmoqda. Masalan, Amerikaning Kaliforniya universiteti "Dictionary of Emojis" ya`ni emojilar lug`atini yaratish kerak deya taklif berayotgan bo`lsa, Yevropaning ayrim mamlakatlarida "Law of Emojis" ya`ni emojilarni tartibga soladigan alohida qonun qabul qilish kerak ekanligini ta`kidlashmoqda.<sup>26</sup>

Xulosa o`rnida shuni alohida ta`kidlash kerakki, emojilar insonlarning erki-irodasi bilan bevosita bog`liq va ularning niyat va maqsadlarini ko`rsata oladigan vosita hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ma`lumotlarning barchasini inobatga olgan holda emojilar huquqiy jihatdan tartibga solinish zarur degan xulosga keldik.

<sup>24</sup> Emoji, part 1: in the beginning, <http://shadycharacters.co.uk/2018/08/emoji-part-1-in-the-beginning/>

<sup>25</sup> John G. Browning and Gwendolyn Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. 34 (October 2015).

<sup>26</sup> Kirley and McMahon, The Emoji Factor: Humanizing the Emerging Law of Digital Speech, 85 Tenn. L. Rev

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI****Abbasova M.***Ipak yo‘li Turizm xalqaro universiteti**Turizm iqtisodiyoti va boshqaruvi yo‘nalishi talabasi*

Bugungi kunda turizm jahondagi muhim iqtisodiy tarmoqlardan biriga aylandi. Bu o‘tgan yili sayyohlar oqimining ko‘payishida ham namoyon bo‘ldi.

O‘tgan davr mobaynida turizm sohasining qonunchilik asosini mustahkamlash, sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish doirasida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi hamda 30 ta normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan 22 tasi qabul qilindi vazirda amalga oshirilmogda. 2019 yilda O‘zbekistonga 6 mln 748 ming 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan. Ularning 51,3 foizini 31-35 yoshdagi kishilar tashkil qiladi. Eng ko‘p tashrif buyurgan sayyohlar MDH mamlakatlaridan kelishgan. Taqqoslash uchun, 2018 yilda O‘zbekistonga 5 mln 346 ming 200 nafar sayyoh kelgandi.

Hozirda turoperatorlik va mehmonxona faoliyatini sertifikatlashning tasdiqlangan yangi nizomi bo‘yicha o‘tgan davr mobaynida jami 652 ta turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari, ya’ni 450 ta mehmonxona va 358 ta turoperatorlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar sertifikatlangan bo‘lsa, turizm faoliyati subyektlarini litsenziyalashning yangi nizomi asosida jami 300 ga yaqin tadbirkorlik subyektlariga turoperatorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar taqdim qilindi.

Hozirgacha Turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish Respublika markazi tomonidan 1060 nafar mutaxassis: 298 nafari qayta tayyorlandi, 292 nafari malakasi oshirildi, 470 nafari seminar va master-klasslarda ishtirok etishdi.

Hududiy dasturlarda belgilangan Buxoro va Samarqand shaharlarida “Qadimiy Buxoro” va “Samarqand Siti” turizm zonalarini tashkil qilish, umumiy hisobda 450 taga yaqin loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, 50 ta madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish, 50 tadan ortiq mehmonxonalar qurish va qayta tiklash, 100 taga yaqin umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi obyektlarni barpo etish bo‘yicha ishlar olib borildi.

Bundan tashqari, o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatini mamlakatimizning turizm salohiyati to‘g‘risida xabardor qilish maqsadida 20 dan ortiq davlatning OAV vakillarining O‘zbekistonga tashriflari tashkillashtirilib, ularning tashriflari natijasida 1250 dan ortiq informatsion materiallar bosma va elektron OAV nashrlarida joylashtirildi. Bugunga qadar 920 dan ortiq xorijiy bosma va elektron OAV nashrlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan bir qatorda, turizm sohasiga taalluqli bo‘lgan barcha masalalar bo‘yicha tezkor va aniq ma’lumot olish, turizm sohasi subyektlari va sayyohlar so‘rovlarini to‘laqonli qabul qilish maqsadida 2017 yil 4 dekabrda Qo‘mitaning uzluksiz 24 soat faoliyat yuritadigan “Call Center” (ma’lumot markazi) ishga tushirildi.

O‘zbekiston 7000 dan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklari borligi sababli dunyodagi 10ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari esa YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Jahon tarixidagi eng muhim madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ta noyob hodisa – Buyuk ipak yo‘li aynan ana shu shaharlar va madaniyatlar markazlari orqali o‘tgan.

Turizm rivoji nafaqat mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi ortishi, aholi bandligini ta‘minlash va daromadlari o‘sishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Hozirda dunyo bo‘yicha turizm sohasida 195 milliondan ziyod kishi, ya‘ni, dunyodagi jami band aholining qariyb 8 foizi ishlaydi. Bu esa yangi barqaror hamda yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rinlari yaratish borasida turizm imkoniyatlari ancha yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Turizm aholi bandligini ta‘minlash, ayni paytda, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbaiga aylanmoqda. Bugunga kelib mamlakatimizda mehmonxona xo‘jaligi yanada taraqqiy etmoqda. Xususan, 500 dan ortiq turli mulkchilik shaklidagi mehmonxona va joylashtirish ob‘ektlari faoliyat ko‘rsatayapti. Keyingi 6 yilda 200 dan ortiq o‘rta va kichik xususiy mehmonxonalar ishga tushgan.

Ammo shunga qaramay, xususan, mamlakatimizning bir qator mintaqalarida turizm infratuzilmasini izchil rivojlantirishga etarli e‘tiborqaratilmayapti. Turizmning ta‘lim, ilmfan, ekologiya, sport-sog‘lomlashtirish kabi yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratish zarur. Ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari sifatini zamonaviy talablar darajasida oshirish, sayohatchilarni jalb etishning zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish, milliy turizm industriyasiga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasidagi ishlarni takomillashtirish talab etiladi.

Ta‘kidlash kerakki, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, servis va xizmat ko‘rsatishning rivojlanishi ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochilishiga zamin yaratadi.

Turizm sohasida yangi ish o‘rinlari tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘sishi aholini ish bilan ta‘minlashga oid davlat va hududiy dasturlarning ijro etilishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun turizm sohasida band bo‘lganlar uchun ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlash va ijtimoiy himoyani ta‘minlash maqsadida ularning hisobini olib borish ijro hokimiyati idoralarining muhim vazifasi bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, turizm xizmati ko‘rsatish sohasida statistik hisobot tizimini takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish zarur. Chunki amaldagi statistika tizimi chet ellik sayyohlarga xizmatlar ko‘rsatish evaziga keladigan daromadlarni to‘liq hisobga olish imkonini bermaydi.

Mamlakatimizda sayyohlar oqimining asosiy qismi turistik markazlar — Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga to‘g‘ri kelmoqda. Vaholanki, yurtimizning bir qator boshqa mintaqalarida ham turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Bu ichki turizmni rivojlantirish sohasida rejalashtirish va marketing masalalariga tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Ichki turizmni rivojlantirish yalpi ichki mahsulotda uning ulushi oshishi natijasida bandlikka oid muammolarning hal qilinishiga xizmat qilsa, ma‘naviy-mafkuraviy jihatdan fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning yurtimizdagi tarixiy maskanlar, boy

madaniy meros obidalari bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda vatanparvarlik tuygʻusini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Shu oʻrinda bolalar, yoshlar, nogironlar va kam taʼminlangan, ijtimoiy yordamga muhtoj aholi turizmi, yaʼni, ularning ekskursiyalari uchun shart-sharoit masalasini jiddiy oʻylab koʻrish talab etiladi. Ichki turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarur, debhisoblayman.

Mamlakatda turizmni rivojlantirishga doir muhim vazifalardan yana biri sayyohlik sohasida xizmat koʻrsatish boʻyicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning 3 ta oliy oʻquv yurti hamda 9 ta kasb-hunar kollejida soha mutaxassislari tayyorlanmoqda. Muammo shundan iboratki, yurtimizning turizmni rivojlantirish imkoniyatlariga ega boʻlgan qator hududlarida sayyohlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha kadrlarga ehtiyoj katta boʻlgan bir vaqtda, ayrim xududlarda turizm infratuzilmasi rivojlanmagani sabab sohaga tayyorlanayotgan mutaxassislar boshqa sohalarda ishlashga majbur boʻlmoqda.

Yuqoridagilarni eʼtiborga olib, turizm sohasidagi gid va ekskursiya olib boruvchilar faoliyati hamda malakasiga nisbatan talab va meʼyorlar masalasini qatʼiy koʻrib chiqish, shuningdek, sohaga kadrlar tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini takomillashtirish zarur.

«Turizm toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini takomillashtirish jarayonida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish talablarini hisobga olgan holda, turizm sohasida innovatsion siyosatni shakllantirish, turizm faoliyatiga oid hisobotlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, malakaviy talablar va xodimlar kvalifikatsiyasi, xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalalarining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan meʼyorlar kiritilishini maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz iqtisodiyotning barcha sohalari qatorida turizm sohasida ham eʼtiborni susaytirgan emas va mana shu eʼtiborni soʻndirmagan holda ushbu sohadagi maʼlum bir kamchiliklar bartaraf etilsa, oʻylaymanki, mamlakatimizning turistik salohiyati boshqa rivojlangan mamlakatlardan aslo farq qilmaydi.

## MUSTAQIL YURTNING BARKAMOL YOSHLARI

**Ergashev Jamshidbek Elmurod og'li***Talaba. Toshkent Davlat pedagogika**Universiteti Xarbiy Ta'lim fakulteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimizdagi yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va ulardan samarali fydalanib yuksak marralarga erishayotgan yoshlar va kelajak bunyodkorlari haqida so'z yuritdim.*

**Kalit so'z:** *Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ta'lim tarbiya, farzandlarimiz bizdanda kuchli....*

Таъкидлаш лозимки, давлатимиз раҳбари ва ҳукуматимиз томонидан ички ишлар органлари фаолиятига жиддий эътибор берилаётгани туфайли тизимда қайта ўзгаришлар рўй бермоқда. Ходимларимиз самарали хизмат қилиши учун зарур шарт-шароитлар яратиб берилмоқда. Жумладан, Муҳтарам Президентимиз ташаббуси билан бевосита аҳоли ўртасида фаолият олиб борадиган профилактика инспекторлари ўз ҳудудларида хизмат уйлари билан таъминланди. Эндиликда улар илгаригидек туман маркази ёки шаҳарда яшаб, ўн беш-йигирма чақирим наридаги хизмат ҳудудига қатнаётгани йўқ.

Жиноятчиликка қарши курашишда унинг олдини олиш муҳим саналади. Шу боис ички ишлар органларида профилактик тадбирларга кенг ўрин берилляпти. Айниқса, ҳафтанинг ҳар пайшанба куни «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куни» деб эълон қилиниши жойларда профилактик тадбирлар самарадорлигини янада ошириш, аҳоли билан ички ишлар органлари ҳамда бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идораларнинг ҳамкорлигини кучайтириш, ўзаро очиқ мулоқот ва учрашувларни кўпайтириш имконини берди.

Амалга оширилаётган ислохотлар натижасида янада такомиллашиб бораётган ҳуқуқбузарликлар профилактикаси миллий тизими ва унда барча давлат органлари ҳамда уларнинг фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлигини кучайтириш борасида амалга оширилаётган ишлар жамиятда тинчлик ва осойишталикни



таъминлашда, жиноятчиликни жиловлашда, унинг айрим турлари ва уларнинг оқибатларини камайтиришда муҳим аҳамият касб этади.

Президентимизнинг ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича бешта муҳим ташаббуси ижроси бўйича кўплаб эътиборга молик ишлар амалга оширилмоқда. Бу, ўз навбатида, ёшлар ва вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда, жиноятчиликнинг камайишида катта аҳамият касб этмоқда.

Зеро, Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, «инсонни тарбиялаш учун бутун жамият ҳаракат қилиши, авваламбор, жиний ҳолатларни туғдирадиган сабаб ва омилларни ҳаётимиздан бартараф этишимиз керак. Барчамиз биргаликда шу ишга ҳисса қўшишимиз керак».

Умуман олганда, ҳозирги кунда мамлакатимиз ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида кенг қамровли амалий ишлар олиб борилмоқда. Келгусида ҳам жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасидаги фаолиятимизни асло сусайтирмай, юртимизда тинчлик ва осойишталикни сақлашда дадил ҳаракат қилиш лозим.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномасида таъкидланганидек, “жаҳонда шиддат билан ўзгараётган нотинч ва мураккаб вазият, турли можаролар жонажон Ватанимиз хавфсизлигини, эл-юртимизнинг осойишта ҳаётини таъминлаш ҳамда мавжуд таҳдид ва хатарларга муносиб жавоб беришга доим тайёр туришимизни тақозо этмоқда”.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, ушбу йўналишдаги фаолият самарадорлигини оширишимиз учун, *биринчидан*, ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид ҳамкорликнинг ҳуқуқий базасини кучайтириш; *иккинчидан*, ўзаро ҳамкорликка доир профилактик чора-тадбирларнинг таъсирчанлиги, узвийлиги, комплекслигини таъминлаш; *учинчидан*, ҳамкорликни аниқ мақсадга йўналтириб, ушбу йўналишдаги вазифаларни субъектларнинг куч ва имкониятларини инobatга олган ҳолда тақсимлаш; *тўртинчидан*, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи орган ва муассасаларнинг ўзаро ҳамкорлигини самарали ташкил этишга қаратилган дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш; *бешинчидан*, Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган «Обод ва хавфсиз маҳалла»тамойилини амалиётга жорий этишга доир чора-тадбирларни тизимли равишда амалга ошириш талаб этилади.

**МАЙДА БЕЗОРИЛИКНИНГ БАРВАҚТ ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ.****Умаров Жамшид***ИИБ Академияси 3-ўқув курси курсанти*

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда суд-ҳуқуқ тизимида олиб борилаётган ислохатлар натижасида маъмурий ҳудудларда жамоат тартиби ва ҳавфсизликни, ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олишни таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашни узлуксиз амалга ошириш имкониятига эга булган, ҳалқимизнинг маънавияти ва миллий қадриятларига асосланган янги тизим - ички ишлар органларининг таянч пунктларига асос солинди. Таянч пунктлари фаолиятининг ҳуқуқий, ташкилий-методик, моддий-техник ва кадрларга оид асослари, уларни бошқаришнинг ўзига хос тизими шаклланди. Бунинг натижасида таянч пунктлари аҳоли турар жойларида тинчлик ва осойишталикни, ҳуқуқ-тартибот ва жамоат ҳавфсизлигини таъминловчи асосий масканга айланиб, уларда ички ишлар органлари соҳавий хизматларининг узаро, давлат органлари ва муассасалари, жамоатчилик тузилмалари билан узвий ҳамкорлиги юлга қуйилмоқда. Профилактика инспекторларини уй-жой, хизмат хоналари ва автомашиналар билан таъминлаш масалалари ҳал қилиб берилмоқда. Жамоат тартибини сақлаш ва ҳуқуқбузарликнинг барвақт олдини олиш борасидаги саъй-ҳаракатлар, аввало, кенг жамоатчиликнинг иштироки билан 2018 йилда умумий жиноятчиликнинг 36 фоизга камайишига эришилди. 3 минг 205 та ёки 35 фоиздан зиёд маҳаллада эса биронта ҳам жиноят содир этилмади .

Шуниндек профилактика инспектори ҳудуддаги тезкор вазият асосида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларни умумий профилактикасини амалга ошириш, давлат ва жамият мулкани сақлаш, жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликни ташкил этиш айниқса ички ишлар органларининг бошқа хизматлари билан ҳамкорликни ташкил этиш энг аввало мазкур ҳудуддаги жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар ҳавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг барвақт олдини олишда муҳим аҳамият касб этади. Бу ишларни бевосита таянч пунктида фаолият олби борувчи профилактика инспектори ташкиллаштиради

Профилактика инспекторлари ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишни ҳамда ҳудудида истиқомат қиладиган фуқароларнинг, ҳудуда жойлашган корхона, ташкилот муассасалар ходимларининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини ҳамда ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, корхона, ташкилот ва муассасалар ходимларининг навбатчилик жадвали асосида маъсул ходимларнинг навбатчилигини ташкил этишни таъминлайди, назорат қилади, ушбу объектларда содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликлар, жумладан давлат мулкани талон-тарож қилинишини олдини олиш, террористик-қўпоровчилик, босқинчилик ва шунга ўхшаш жиноятларнинг олдини олиш бўйича чора-тадбирлар белгилайди.

Бугунги кунда юзага келётган хавф-хатар ва таҳдидлар, аввало, халқаро терроризм, диний экстремизм, ноқонуний миграция, одам савдоси, ёшлар ўртасида халқимизга ёт ғоялар тарқалишининг тобора кучайиб бораётганлиги ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш орқали ҳуқуқбузурликларни барвақт олдини олиш фаолиятининг бўйича янги вазифаларни кўймоқда.

**Шунга кўра профилактика инспекторларининг ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишни такомиллаштиришда қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим:**

– Жиноятчилик устидан ижтимоий-ҳуқуқий назоратни амалга ошириш соҳасининг устивор йуналиши ҳисобланган ҳуқуқбузарликлар, шу жумладан жиноятларнинг олдини олиш субъектларининг бу соҳадаги фаолиятини тартибга солувчи, шу жумладан улар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш;

– Маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканларидаишига раҳбарлик қилиш маъсулияти юклатилган профилактика катта инспекторлари лавозимида ички ишлар органларида камида уч йил ишлаган, ташкилотчилик, ташаббускорлик, кенг фикрлилик қобилиятига, ҳуқуқшунослик ва педагогик-психологик билимларга эга булган ходимларни тайинлаш мақсадга мувофиқ

– Маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканларида профилактика (катта) инспекторлари билан доимий ҳамкорликда фаолият юритувчи субъектларнинг махсус дастур асосида ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикасини амалга ошириш, ҳудудда жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишдаги ҳамкорлигини такомиллаштириш лозим;

– Маҳалла ҳудудида жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикасини амалга ошириш, у ерда истикомат қилувчи фуқароларнинг тинч ва осойишта ҳаёт кечиришлари учун шарт-шароитларни яратишга, уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишга, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда ички ишлар органлари билан бир вақтда фуқароларни ўзини-ўзи бошқариш органларининг ҳам маъсулиятини янада ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Майда безориликларини олдини олишда унинг йўналишларидан ташқари ҳамкорликда иш олиб боришимиз энг яхши усул ва барвақт олдини олишда катта йордам беради десак муболаға болмайди.

**МУЛК ҲУҚУҚИНИ ЧЕКЛАШ ШАКЛИ СИФАТИДА СЕРВИТУТ  
ҲУҚУҚИ ТУШУНЧАСИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ****Юлдашев Санжарбек Иқболжонович***Тошкент давлат юридик университети**бизнес ҳуқуқи йўналиши магистранти*

Бозор муносабатларига ўтиш ва мулкнинг барча шакллари тенглигини тан олиш, янги ашёвий ҳуқуқларнинг вужудга келишига сабаб бўлди. Сервитут шундай янги ашёвий ҳуқуқлардан биридир. Сервитут латинча «servire» – хизмат кўрсатиш сўзидан келиб чиққан. Сервитутнинг моҳияти шундан иборатки, битта ер участкасининг афзалликлари ёки камчиликлари қўшни ҳисобига қондирилади, яъни манфаатдор субъектларга (қўшни ер участкаси мулкдорларига) ўзганинг кўчмас мулкидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи берилади.<sup>28</sup>

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 165-моддасида сервитутлар мулкдор бўлмаган шахсларнинг ашёвий ҳуқуқлари қаторида санаб ўтилган. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 173-моддасида эса сервитут ҳуқуқига таъриф берилган бўлиб, унга кўра “Кўчмас мулк (ер участкаси, бошқа кўчмас мулк) эгаси қўшни ер участкасининг эгасидан, зарур ҳолларда эса – бошқа ер участкасининг эгасидан ҳам ўзганинг ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш (сервитут) ҳуқуқини беришни талаб қилишга ҳақлидир”<sup>29</sup>. Ушбу норма мазмунини таҳлил қиладиган бўлсак, сервитут ерга нисбатан ашёвий ҳуқуқлар доирасига кириши билан чегараланишини кўришимиз мумкин. Буни ушбу нормани ерга нисбатан бошқа ашёвий ҳуқуқлар билан бирга Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг “Мулк ҳуқуқи ва бошқа ашёвий ҳуқуқлар” деб номланган II-Бўлимда жойлаштирилганлиги ҳам кўрсатиб турибди. Х.Раҳмонкулов ҳам худди шундай фикр билдириб, қуйидагиларни таъкидлайди: “Шарҳланаётган модданинг 1-қисми билан ер участкасига нисбатан ашёвий ҳуқуқнинг мустақил тури ўрнатилган, яъни ўзганинг ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи (сервитут)”<sup>30</sup>.

Сервитутнинг шунга ўхшаш таърифи Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 30-моддаси 1-қисмида ҳам берилган бўлиб, унга кўра, “Ўзганинг ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи (сервитут) — қўшни бўлган бир ёки бир неча ер участкаларидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқидир”<sup>31</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Шаҳарсозлик кодексининг 81-моддасига кўра, “Шаҳарсозлик фаолиятини амалга оширишда сервитутлар шаҳарсозлик фаолияти субъектларининг манфаатлари шаҳарсозлик фаолияти объектларини қуриш, реконструкция қилиш, таъмирлаш ва уларнинг бут сақланишини таъминлаш бўйича

<sup>28</sup> Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. (Профессионал (малакали) шарҳлар). – Т.: Vektor-Press», 2010. 437-бет.

<sup>29</sup> <https://www.lex.uz/docs/111189#153852>

<sup>30</sup> Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. (Профессионал (малакали) шарҳлар). – Т.: Vektor-Press», 2010. 437-бет.

<sup>31</sup> <https://lex.uz/docs/152653#153315>

бошқа эҳтиёжлар учун ўзга ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқисиз таъминланиши мумкин бўлмаган тақдирда белгиланади.

Шаҳарсозлик фаолиятини амалга оширишда ер участкаларига доир сервитутлар ва ер участкаларига бўлган ҳуқуқларни сақлаш вазифалари ер участкаларининг мулкдорлари, эгалари ва бундай участкалардан фойдаланувчиларнинг мажбуриятларини ҳамда уларнинг ҳуқуқлари чекланишини ўз ичига олади ва шаҳарсозлик ҳужжатлари ҳамда қуриш қоидалари асосида белгиланади.”<sup>32</sup>

Қонун ҳужжатларида сервитут ҳуқуқига берилган таърифларни таҳлил қилар эканмиз, сервитутни фақатгина ер участкаси билан боғлиқ ҳолда тушунча берилганини кўришимиз мумкин. Бизнинг фикримизча сервитут ҳуқуқи бир мунча кенгрок тавсифланиши ҳамда у фақатгина ер участкасигагина эмас, балки кўчмас мулкнинг бошқа турларига (масалан, бино, иншоот ва ҳ.к.) ҳам қўлланилиши назарда тутилиши лозим.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, сервитут ҳуқуқига қуйидагича таъриф беришни лозим топдик: “Сервитут ҳуқуқи – бу сервитут муносабати субъектининг (мулкдор ёки бошқа ашёвий ҳуқуқ эгасининг) ўзга ер участкаси, бино ва иншоотлардан унинг мулкдорини қонуний ҳуқуқ ва манфаатларига зарар етказмасдан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқидир”.

Бугунги замонавий цивилистикага назар ташлайдиган бўлсак, кўчмас мулк объекларига нисбатан икки турдаги сервитут ва шунга мос равишда турли мазмунга эга бўлган сервитут ҳуқуқи эътироф этилаётганлигини кўришимиз мумкин. Булар оммавий ва хусусий сервитутлардир.<sup>33</sup>

Таъкидлаш жоизки, ушбу масалани батафсилроқ ўрганиш учун миллий фуқаролик ҳуқуқимизда оммавий сервитут назарда тутилмаганлигини (ушбу соҳада ҳуқуқий бўлиқ мавжудлигини) ҳамда “оммавий сервитут” сервитутнинг асосий хусусиятларига мос келиш ёки келмаслигини ҳал қилиш лозим бўлади.

Биринчидан, хусусий сервитут ва оммавий сервитутни ўрнатиш тартиби бир-биридан фарқ қилади. Хусусий сервитут уни белгилашни талаб қилаётган шахс билан ўзга ер участкасининг эгаси ўртасидаги битимга мувофиқ белгиланади, шунингдек, суд қарори билан ҳам белгиланиши мумкин. Давлат, жамият, маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органлари ва аҳолининг манфаатларини таъминлаш учун бевосита қонун ва бошқа норматив ҳуқуқий актлар билан оммавий сервитут ўрнатилиши мумкин.

Иккинчидан, оммавий сервитутда кўчмас мулкдан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқига эга бўлган аниқ субъект бўлмайди, балки субъектлар доираси бўлади. Хусусий сервитутда эса фойдаланиш ҳуқуқини тақдим этувчи ва ундан фойдаланувчи аниқ белгиланган бўлади.

Учинчидан, сервитутни ўрнатилишидаги манфаатдорликка назар ташлайдиган бўлсак, оммавий сервитут муайян ер участкаси мулкдори манфаатлари учун эмас, балки жамоат манфаатлари учун ўрнатилади.

<sup>32</sup> <https://lex.uz/docs/5307951#5311128>

<sup>33</sup> Қаранг: Слепенко Ю.Н. Сервитутное право: основания возникновения и проблемы защиты // Дисс. ... канд. юрид. наук. –М., 2015. –С. 25-34.

Тўртинчидан, хусусий сервитутдан фарқли равишда, оммавий сервитут ўрнатилганда манфаатдор шахсларнинг талабига кўра сервитут ўрнатилган ер участкаси утказилган зарар қопланган ҳолда олиб қўйилиши мумкин. Оммавий сервитутнинг ўзига хослиги шундаки, жамоатчилик фикри ва эшитувлари натижасида ўрнатилиши мумкин.

Юқоридаги таҳлилдан хулоса қилиш мумкинки, оммавий сервитут рим хусусий ҳуқуқидаги сервитут билан ҳеч қандай умумийликка эга эмас. Оммавий сервитутлар аҳолини, маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органлари ва давлат манфаатларини таъминлаш учун жорий қилинган<sup>34</sup>.

Давлатнинг ишлаб чиқариш, савдо-сотик фаолиятида интенсив иштироки оммавий сервитутларни вужудга келишининг сабабларидан бири бўлиб, бунда давлат мустақил хўжалик субъекти сифатида номоён бўлади<sup>35</sup>. Оммавий-ҳуқуқий ташкилотлар манфаатида электр энергия тармоқлари, алоқа тизими, газ ва нефт қувурлари, йўллар, жамоат бинолари ва иншоотлари қуриш, транспорт алоқаси тизимларини яратиш учун хусусий мулк мажбурий тартибда олиб қўйилиши ёки мажбурий сервитут белгиланиши мумкин. Бунда, сервитут белгиланган объектдан мулкдорларининг оммавий манфаатларга зарар етказишга олиб келувчи тарзда эркин эксплуатация қилиш тақиқланади. Бундай субъектлар томонидан қурилиш ва бошқа ҳар қандай ишлар маъмурий рухсат олингандан сўнг амалга оширилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг нормалари сервитут сифатида ер участкасига нисбатан мулк ҳуқуқини чекламасдан туриб қўшни ер участкаси мулкдорининг эҳтиёжларини қондириш мумкин бўлмаган ҳолатда ўрнатиладиган мажбуриятларни назарда тутди. Бироқ қонунчиликда эҳтиёжлар рўйхати очик қолиб кетган, яъни қўшни ер участкаси эгасининг айнан қайдай эҳтиёжлари учун сервитут белгиланши белгиланмаган.

Хусусий сервитут ўрнатиш тартиби фуқаролик қонунчилиги билан тартибга солинади. Сервитут уни ўрнатишни талаб қилаётган шахс билан қўшни ер участкаси мулкдори ўртасида ўзаро келишувга эришилганда ўрнатилиши мумкин. Тарафлар ўртасидаги келишув кўчмас мулкка нисбатан ҳуқуқни давлат рўйхатидан ўтказишни назарда тутувчи тартиб асосида рўйхатдан ўтказилади. Агарда тарафлар ўртасида келишувга эришилмаса низо суд тартибида ҳал қилинади. Бунда судга сервитут талаб қилаётган шахс мурожаат қилади.

Оммавий сервитутнинг ўзига хос жиҳати шундаки, бу сервитут амалий жиҳатдан мулкдорнинг ҳошиш-иродасига умуман боғлиқ бўлмайди. Бу эса унинг императив хусусиятга эга эканлигини англатади.

Шундай қилиб, сервитут ўрнатиш тартиби тўғрисидаги қоидалар, уни ўрнатишдан манфаатдор ваколатли субъектлар, шунингдек, аниқ оммавий манфаатларнинг мавжудлиги ва ер участкасини зарарни қопламасдан олиб қўйиш

<sup>34</sup> Қаранг: Казанцев В., Коршунов Н. Возрождение сервитутного права в России // Российская юстиция. 1997. №5. С. 22; Щенникова Л.В. Вещные права в гражданском праве России. М., 1996. С. 50 - 52; Малеина М.Н. Публичные сервитуты // Законодательство. 2004. №4. С. 8-16; Копцев А.Н. Сервитуты в римском праве и современном российском законодательстве // Нотариус. 2006. №2.

<sup>35</sup> Гражданское и торговое право капиталистических государств. М., 1993. С. 217 - 218.



имкониятининг йўқлиги – оммавий сервитут ўрнатишнинг асосий талаблари бўлиб ҳисобланади.

Шундай қилиб, оммавий сервитутлар Рим хусусий ҳуқуқида пайдо бўлган анъанавий сервитутнинг юридик конструкциясидан тубдан фарқ қилади. Шу сабабли оммавий сервитут хусусий-ҳуқуқий муносабатлар чегарасидан чиқиб кетади.

Юқорида билдирилган фикрларни ва таҳлилларни инобатга олган ҳолда қуйидагича хулоса қилиш мумкин, сервитут тушунчасини турлича талқин қилиниши ва мулк ҳуқуқини чеклашнинг бошқа шакллари билан аралашиб кетишини олдини олиш мақсадида “оммавий сервитут” тушунчасини фуқаролик ҳуқуқи ва бошқа ҳуқуқ соҳаларида умуман қўлламаслик керак ҳамда “оммавий сервитут” тушунчаси ўрнига “оммавий манфаатлар учун ашёвий ҳуқуқларни чеклаш” тушунчасини қўллаш мақсадга мувофиқ.

## НЕЙРОННЫЕ СЕТИ: ПРИМЕНЕНИЕ СЕГОДНЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Арзикулов Салохиддин Эшпулатович ,  
магистр группы 302-19, программный инжиниринг.

arziqulovsalohiddin@gmail.com

Ташкентский университет информационных  
технологий имени Мухаммада аль-Хорезми.

Научный руководитель: А.Ш.Хамроев

**Аннотация:** в статье рассматриваются направления, в которых на данный момент развиваются нейронные сети, сферы деятельности, где они уже активно применяются. Так же рассматриваются возможности, которые данные сети открывают в будущем.

**Ключевые слова:** Нейронная сеть, искусственный интеллект, поисковые системы, Google, Яндекс.

На сегодняшний момент искусственный интеллект прочно вошел в нашу жизнь и помогает в решении большого числа задач. Одно из самых перспективных направлений искусственного интеллекта, приближающего будущее из фантастических фильмов, являются нейронные сети. Уже сейчас они активно используются в бизнесе, особенно в маркетинговой работе, применяются в сфере безопасности, развлечения и других областях. Исследованиями в этой области занимаются все самые передовые компании, например, такие как Microsoft и Google, что способствует появлению все новых открытий в этой области чуть ли не каждый день.

Искусственные нейронные сети построены по принципу биологических, конечно, с рядом допущений, в них действует огромное количество простых процессов со множеством связей. Подобно человеческому мозгу эти сети способны обучаться. Для искусственных нейронных сетей под обучением понимается процесс настройки архитектуры сети (структуры связей между нейронами) и весов синаптических связей (влияющих на сигналы коэффициентов) для эффективного решения поставленной задачи. Обычно обучение нейронной сети осуществляется на некоторой выборке. По ходу обучения сеть начинает все лучше выполнять поставленные задачи, реагировать на поставленные команды.

Поиск информации, распознавание изображений. Осенью 2016 года Яндекс запустил новый алгоритм поиска Палех на основе нейронных сетей, у Google аналогом служит «Колибри» и RankBrain. Данные алгоритмы способствуют более точному поиску. Палех анализирует заголовки страниц и распознает их смысл, в скором времени так будет со всем текстом.

Распознавание изображений – данный вид деятельности давно освоен нейронными сетями, взять хотя бы самые популярные поисковые системы, такие как Яндекс и Google, в которых реализован поиск по картинкам. Загружая или кликая мышкой на картинке, выбрав задачу поиска похожих изображений, пользователь дает команду нейросети, с которой она успешно справляется и выдает аналоги, она же просматривая тысячи картинок в сети делает себе заметки, что бы потом определить что изображено на новом загруженном фото, помочь человеку найти определенные картинки, сделать теги. Но технологии шагнули еще дальше: нашумевший стартап FindFace, который использует нейронную сеть, через которую пропустили миллионы фотографий лиц, она выявила закономерности и теперь может выдавать фото похожих друг на друга людей. Эту разработку в 2015 году на международном конкурсе по распознаванию лиц признали лучшей, она обошла даже технологию распознавания от Гугл. А в 2016 году нейронные сети научились видеть сквозь замыленность. Точность распознавания составила от 80 до 90 процентов в случае с обработанными изображениями на YouTube и 50-

75 процентов при анализе тщательно запикселированными с помощью фоторедакторов картинками. Теперь прибегать к замыливанию лица, что бы оставить человека инкогнито становится невозможным.

Нейросети пишут уникальные тексты для сайтов, еще не профессиональные, но уже очень добротные, для некоторых новостных агентств ИИ пишут новости. Более того, они создают научные статьи. В рамках эксперимента в нейронную сеть была загружена целая база научных статей, проанализировав которую сеть сама написала несколько десятков, разослала их в ряд научных журналы, где некоторые даже были опубликованы. Этот факт может говорить как о халатности редакторов этих журналов, так и о высоком качестве статей, написанных сетью.

**ДИҚҚАТ ВА УНИНГ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИ  
ФАОЛИЯТИДА ТУТГАН ЎРНИ**

*ИИВ Академияси катта ўқитувчиси*

**И.Х. Калонов**

*323-гуруҳ курсанти*

**А.Б.Хамидов**

**Аннотация:** *Ушбу мақолада диққатнинг ички ишлар органлари ходимлари фаолиятидаги тутган аҳамияти, турлари, ҳамда диққатга тегишли касбий кузатувчанликнинг ўрни ва унинг самарадорлигини ошириши йўлларининг мазмуни очиб беришга ҳаракат қилинди.*

**Таянч тушунчалар:** *Диққат, ихтиёрий диққат, ихтиёрсиз диққат, ихтиёрий диққатдан кейинги диққат, диққатни жамлаш принциплари.*

Диққат киши фаолиятнинг барча турлари, энг аввало, меҳнат ва ўқув фаолияти самарадорлигининг муҳим ва зарур шартидир. Билиш жараёнлари кечишининг энг муҳим хусусияти унинг танланганлиги, йўналтирилганлигидан иборатдир. Теварак-атрофдаги кўплаб таъсирлар орасидан киши ҳамиша ниманидир идрок этади, ниманидир фараз қилади, нима ҳақидадир фикр юритади, ўйлайди. Онгининг бу хоссаси диққат каби хусусият билан ўзаро боғлиқ. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий фаолиятида билиш жараёнларининг аҳамияти беқиёсдир. Биз қуйида билиш жараёнларига ва унинг ички ишлар идоралари фаолиятидаги ўрнига тўхталамиз.

Диққат индивиднинг ҳиссий, ақлий ёки ҳаракатлантирувчи фаоллиги даражасининг оширилишини тақозо этадиган тарзда онгининг йўналтирилганлиги ва бир нарсага қаратилганлигидир.

Эътиборни маълум объектга қаратиш учун иродавий куч-ғайрат сарфлаш зарурати юзага келганда, бинобарин, қийинчиликлар пайдо бўлганида, билишга оид қизиқиш сусайганида ва шунингдек, тўсиқлар мавжуд бўлган кезларда диққат аниқ-равшан намоён бўлади.

Касбий диққат яхши шаклланган ихтиёрий диққатнинг анланганлиги ва керагича бошқариш имкониятининг мавжудлиги билан ажралиб турувчи ва нима, қачон, қаерда ҳамда нимага диққатни қаратиш кераклигини белгилаб берувчи жараён ҳисобланади. Касбий диққатнинг яхши ривожланганлиги унинг мақсадли ва моҳирона йўналтирилганлиги билан белгиланади. Диққатни бир жойга жамлаш ва уни тўғри йўналтиришда қуйидаги омилларни ҳисобга олиш зарур:

- иш жараёнига хос ва мос шароитни яратиш, яъни иш жойини саранжомлаш, ёруғликка қулай жойлашиб олиш;
- муайян вазифани бажариш учун психологик тайёргарлик кўриш;
- ақлий тайёргарлик, зарур адабиётлардан фойдаланиш, тажриба орттириш,

аклий фаолият юритиш учун қулай вақтларни ҳисобга олиш (тонги соат 5 дан 11 гача, кундузги соат 16 дан кечки 20–24 гача аклий фаолият унумдорлиги юқорилигини кузатиш мумкин).

Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий фаолиятида диққатнинг асосий хусусиятлари (тақсимланиши, тарқоқлиги, барқарорлиги, тез ўрин алмашиши) ҳам ўзиша хос аҳамият касб этиши, яъни содир бўлган воқеа-ҳодисаларнинг зарур томонларини ўрганиш ва аниқлик киритишда, жиноятчи шахснинг психик ҳолатини кузатишда қўл келишини англаб етиш лозим. Масалан, диққатнинг ҳажми 7–12 та объектни тўлиқ камрайди, барқарорлиги 10–12 дақиқа тўлиқ сакланади, бир сония ичида диққатни 3–4 мартаба кўчириш мумкин.

Шундай экан, ички ишлар идоралари ходимлари ўз хизмат фаолиятида касбий диққатни юзага келтириш учун қуйидаги усуллардан фойдаланишлари зарур:

– объектни кузатиш жараёнида жиноятчининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиш ва жиноятчи ўринда ўзини тасаввур қилиши;

– объектни кузатиш жараёнида диққатни тўғри тақсимлаш ва тез кўчира билиш кўникмасини шакллантириш усулларидан фойдаланиш;

– давомли машқ қилиш ёрдамида диққат марказида 2–7 тадан, 8–15 тагача бўлган объектни ушлаб туриш;

– диққатни бир объектдан иккинчисига кўчиришда ҳар бир сониядан унумли фойдаланиш;

– диққат доирасининг торайишини ҳисобга олиш, яъни ахборот қанчалик муҳим бўлмасин, бир объектга боғланиб қолмаслик;

– умумий кузатув объектида, шароитни ўрганиш мақсадида, диққатни тенг тақсимлаш орқали объектни қисмларга бўлиб кузатиш.

Диққат жараёни, ўз навбатида, кузатувчанлик фаолияти билан уйғун шаклланади. Кузатиш ички ишлар идоралари ходимларининг касбий фаолиятида ўзига хос аҳамият касб этади. У оператив қизиқиш уйғотган шахсларнинг жинойий фаолиятини фош этишда, уларнинг алоқаларини, шахсий хислатларини ўрганишда, тергов жараёнига тегишли маълумотларни тўплашда намоён бўлади.

Кузатиш деганда, маълум бир мақсадли режани амалга ошириш учун нарса ва ҳодисани онгда атайлаб идрок этиш тушунилади.

Касбий кузатиш эса ички ишлар идоралари ходимларининг оператив хизмат вазифаларини амалга оширишида муҳим воқеа ва ҳодисаларни мақсадга мувофиқ тарзда идрок этиш жараёнидир.

Касбий кузатувчанлик ходимнинг шахсий хусусияти эмас, балки табиий хусусиятига айланиб, фаолиятнинг барча турларида намоён бўлишида, кузатувчанлигининг олий даражага чиққанида намоён бўлади.

Касбий кузатишда кўзга тушган барча нарса идрок этилмайди, балки энг муҳим, зарур, хизмат фаолияти учун аҳамиятга молик бўлган объект (нарсa, предмет)лар идрок этилади. Бу, одатда, кузатиш асосини ташкил қиладиган мақсадлар, вазифалар, режалар билан боғлиқ бўлади.

Касбий кузатувчанлик самарадорлиги эса албатта психологик механизмлар, қонуниятлар ва омиллар билан белгиланади. Яъни улар намоён бўлиш хусусиятларига кўра объектив, шароитга хос ва субъектив гуруҳларга бўлинади.

Касбий кузатиш жараёнини амалга оширишда субъектив омилларга муҳим вазифа юклатилади.

Объектив ва шароитга хос омиллар кузатилаётган шахс, объект ва улар ўртасида мавжуд шароит хусусиятларини қамраб олади.

Субъектив томон жиной гуруҳ аъзоларининг хатти-ҳаракатларини яшириш ниятида амалга оширадиган ниқобли (яширин) ҳаракатлари, яъни жинойт содир этилган жойда из қолдирмаслик, далил-исботларни топишни қийинлаштириш, дастлабки суриштирув ишларини олиб боришда англашилмовчиликларга шароит яратиш кабиларда намоён бўлади.

Бугунги кунда Ички ишлар органлари ходимлари фаолиятини камчиликларсиз, бир маъромда олиб бориш, Ички ишлар органлари ходимлари фаолиятини янада самарали ва нуқсонларсиз ташкил этиш, ходимларда юзага келадиган диққатнинг тарқоқлиги билан боғлиқ муаммоларнинг олдини олиш мақсадида уларга Ички ишлар органлари хизмат фаолиятини психологик тامينлаш гуруҳи инспекторлари томонидан психологик хизмат кўрсатиш долзарб аҳамиятга эгадир.



## ПРИМЕНЕНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОПТИМИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

**Хамидова Нигора Тулкуновна,**  
*старший преподаватель кафедры*  
*«Общее языкознание», ТГПУ имени Низами*  
**Кахаров Салохиддин,**  
*студент факультета ДВО, ТГПУ имени Низами*

В свете событий последних месяцев перед преподавателями высших образовательных учреждений встала задача организации собственной педагогической деятельности с максимально продуктивным привлечением современных компьютерных и интернет-технологий. Мы столкнулись с ситуацией, когда выполнение профессиональных задач зависит от возможности преподавателей использовать мультимедийные технологии и вообще умения комфортно существовать в пространстве интернета.

Понятно, что современная молодежь – это представители «цифрового поколения». Однако многие наши студенты только начинают входить в этот «цифровой» мир, что обусловлено как их материальными возможностями, так и уровнем их школьной подготовки в области компьютерных технологий. Тем не менее, уже никто не отрицает, что без подобных навыков и преподаватели, и студенты не смогут успешно выполнять свои профессиональные задачи и функции

Тем не менее, этот формат становится не «просто формой образовательного процесса, но и важным средством интенсификации педагогической деятельности, позволяющим выходить за рамки аудиторной работы и гармонично «вливать» дистанционное онлайн-обучение в традиционный учебный процесс».

Понятно, что дистанционный формат общения на уровне преподаватель – студент не заменяет традиционную форму обучения, общения преподавателя и студентов на занятиях, а является дополнением, которое помогает организовать самостоятельную работу студентов по закреплению знаний, полученных в аудитории.

При внедрении в учебный процесс электронных технологий мы видим огромные возможности электронных ресурсов, но, с другой стороны, нет отдельного методического ресурса для их продуктивного использования. Далее, сложилась противоречие между высокой квалификацией педагогических кадров и недостаточным уровнем сформированности информационной грамотности; между множеством методических и дидактических принципов обучения и их отсутствием применительно к организации цифровой образовательной среды.

В современном образовательном пространстве информационная грамотность преподавателя становится неотъемлемой частью его профиограммы. Развитие цифровых технологий и интернет-пространства позволило создать новые форматы получения знаний - дистанционный, онлайн, с применением электронных образовательных ресурсов. Успешность реализации таких форм обучения во многом

будет зависеть от информационной культуры преподавателя, под которой следует понимать совокупность информационного мировоззрения и системы знаний и умений, обеспечивающих целенаправленную самостоятельную деятельность по оптимальному удовлетворению индивидуальных информационных потребностей с использованием как традиционных, так и новых информационных педагогических технологий. При реализации онлайн-обучения преподавателю следует уметь:

- применять интерактивные функции видеомессенджеров; - работать с веб-площадками для проведения вебинаров ;

- использовать интерактивный электронный раздаточный материал в режиме реального времени (презентации, страницы учебников, аудио- и видеоматериалы, ссылки на интернет-ресурсы).

Этими составляющими информационной грамотности достаточно трудно овладеть без специального обучения, в связи с чем можно говорить о необходимости комплексной методической поддержки преподавателей вуза, с одной стороны, в целях совершенствования их профессиональных компетенций, с другой - для популяризации современных цифровых образовательных средств обучения.

Каковы методические возможности современных компьютерных технологий в онлайн-обучении?

Новый цифровой формат обучения реализуется при использовании электронного раздаточного материала. Это могут быть презентации, страницы учебников, аудио- и видеоматериалы, ссылки на интернет-ресурсы. Электронный раздаточный материал может представлять например, учебный тренажер, в котором слайды презентаций выстроены по следующему принципу: объяснение, тренинг, самостоятельная работа. Особое место в онлайн-обучении занимают электронные учебники. Электронные учебники, с одной стороны, системно представляют языковой материал, с другой - обеспечивают его представление с помощью мультимедиа: фото, видео, графики, анимации, звука, что позволяет студентам приблизиться к моделированию языковой среды (вернее, типовых ситуаций общения).

Электронный учебник обеспечивает:

- обучение на основе аудиовизуальной информации для понимания устной речи, звучащей в нормальном темпе, интонационно и графически маркированной;

- моделирование искусственной речевой среды с заранее запрограммированной структурой, в которой происходит общение и адаптация к ней;

- управление процессом обучения путем создания проблемных ситуаций с помощью видеоряда и указаний условий и способов их решения;

- включение в процесс спонтанного говорения, решения речевых и поведенческих задач; - варьирование способов презентации материала и его изучения.

Таким образом, можно отметить, что информационная грамотность позволяет реализовывать педагогический процесс на основе применения современных электронных средств, интенсифицирующих учебную деятельность, в гармоничном

сочетании с традиционными способами обучения. Однако реализация этих планов невозможна без совместных усилий триады – ВУЗ, преподаватель, студент.

#### ЛИТЕРАТУРА:

1. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants Part 1 // On the Horizon. - 2001. - Vol. 9, № 5.
2. Demidova A. V., Slyusarenko V. A., Shapranova N. N. Professional Competences Of A Foreign Language Teacher In Multimedia Educational Environment // Future Academy. The European Proceedings of The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences, 18th PCSF 2018 Professional Culture of the Specialist of the Future. - 2018. - Vol. LI. - pp. 1584-1592.
3. Т. А. Д Дьякова, С. А. Дерябина. Роль и место информационной культуры преподавателя русского языка как иностранного в его профессиональной деятельности. Вестник ЧГПУ им. И.Я Яковлева, 2019, №3 (103), стр. 234
4. Маркова А. К. Психология профессионализма. - М. : Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. - 312 с.

**IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK  
O'YINLARDAN FOYDALANISH****Teshaeva Dilrabo Gafurovna***Buxoro viloyati G'ijduvon tumani**43-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

Mustaqillikdan keyin ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada anchagina ishlar ham amalga oshirildi. O'quvchilarimiz ham endi ancha zukko, topqir va qiziquvchan yoshlarga aylanib borishmoqda. Bu esa o'z navbatida pedagoglarni yanada o'z ustilarida ishlash va malakalarini oshirishga turtki bo'lmoqda. Bugunning bolasi uchun eski uslubdagi darslar oddiy va quruq darslar bo'lib tuyulishining sababi shundaki, ular texnika taraqqiy etib borayotgan

zamon bilan hamnafas yashashmoqda va fikrlashmoqda.

Bugungi kunda yoshlardagi bu o'zgarish va yangiliklarga bo'lgan qiziqish o'qituvchidan dars jarayoniga texnologik yondashuvni va dars jarayonida turli xil o'yin va metodlardan foydalanishni talab etmoqda. Ko'plab o'qituvchilarimiz hatto har bir darsini texnika vositalari va turli xil mavzuga oid o'yinlarni darsga olib kirgan holda tashkillashtirmoqdalar.

Maktab ta'limini rivojlantirishni asosiy nuqtasi sifatida maktab o'quvchilarining fuksional savodxonligini rivojlantirish ularni jamiyatda faol ishlash, o'z taqdirini belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'z – o'zini ro'yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'zlashtirishda maktab o'quvchilari egallashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va matakalarga Davlat tomonidan qo'yiladigan talablar bayon qilinadi. Respublikamizning kelajagini barpo qiluvchi yosh avlodga hozirgi zamon fanining yangiliklarini, uning murakkab qirralarini o'rgatish bilan bir qatorda tarixiy merosimizni o'rganshga imkoniyat tug'dirilishi lozim. Iqtisodiy bilim asoslari fani Davlat ta'lim standartining me'yor ko'rsatkichlari dinamik xarakterda bo'lib, ta'lim jarayonining takomillashuvi, fan va texnika yutuqlarining natijalari bilan to'ldirilib boriladi. O'rta umumta'lim maktabining bitiruvchisi 8-9-sinflarda "Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o'rgangandan so'ng, quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- iqtisodiy resurslarning ehtiyojlarga nisbatan cheklanganligi muammosi, imkoniyatlar ichidan birini yoki bir nechtasini tanlashga olib kelishini tushunib yetish;

- tanlovning muqobil qiymatini aniqlay olish va uni tanlov natijasini baholashda qo'llay olish;

- iqtisodiy qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish va uning omillarini tavsiflash;

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida,

yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etadi

Ta'lim sohasida Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy –texnika taraqqiyoti davrida erkin demokratik jamiyatga moslashgan, Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol, ma'navan yetuk, barkamol, har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsad yo'lida amalga oshirish uchun ta'lim tarbiya jarayonida hozirgi zamon ta'lablariga mos keluvchi yangi, turli didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Iqtisodiy bilim asoslari darslarida mavzularini o'qitishda innovatsiyon texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagi didaktik o'yinlar tavsiya etiladi. "Sherigini top", "Idrok xaritasi", "Zinnama zina", "Geometrik domino", "Tushunchalar tahlili", "Baliq skeleti", va hokoza didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini ortirishimiz ularni fikrlash qobiliyatini o'stirishimiz mumkin. O'tilgan mavzularni mustahkamlashda uchun "Aqliy hujum", "Tezkor savol javob", "Ha, yoq" oyinidan foydalanishimiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak "ha yoq" oyini, bu o'yin o'quvchini tez va to'g'ri fikrlashga o'rgatadi. Bundan tashqari hozirgi globallashtirish zamonida AKTdan foydalartish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatni globallashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar yangi tushimchalar haqida rasmiy bilimlarni to'plamasdan, balki ularni tushunib olishlari juda muhim. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitish yanada samarali bolishi uchun o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar AKTni ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag'batlantirishlari zarur.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan, ya'ni noa'niq muommoli vaziyatlar vujudga kelganda qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni o'quvchi ongiga singdirib tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limning sifat bosqichi davrida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishga joriy etish davr talabi bo'lib, bu nafaqat ta'lim samarasini oshirishgacha balki iqtisodiyotimizni rivojlanishiga ijobiy samara beradi.

O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda fanga oid bilim, konikma, va malakalarining dars jarayonlarida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim bu esa o'z ijobiy samarasini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. G'affarova T. Maktabda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent-2017.
4. G'ulomov A. O'qitish prinsiplari va metodlari. T, 2018 y, 90 bet.